

‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI
“IQTISODIYOT” FAKULTETI
“IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI”

“Iqtisodiyot” kafedrası mudiri

_____ dots. A.I.Raxmatullayev

“___” _____ 2015 yil

“TASDIQLAYMAN”

“Iqtisodiyot” fakulteti dekani

_____ i.f.d. A.F.Xurramov

“___” _____ 2015 yil

Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo‘jalik yerlaridan
samarali foydalanish yo‘llari

(Mirishkor tumani “Turdialibobo” fermer xo‘jaligi misolida)

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: “Iqtisodiyot” ta‘lim

yo‘nalishi bitiruvchisi IV kurs I-463

guruh talabasi _____ Erolov

Baxtiyor Yulbul o‘g‘li

ILMIY RAHBAR:

“Iqtisodiyot” kaferasi dotsenti

_____ Ravshanov A.D.

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi

_____ sonli bayonnoma “___” _____ 2015 yil

QARSHI – 2015 yil

MUNDARIJA

Kirish.....

I BOB Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning nazariy asoslari

1.1. 1.1.Xalqaro amaliyotda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning ilmiy- nazariy asoslari.....

1.2. 1.2.Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalashda tashqi iqtisodiy aloqalarning tutgan oʻrni

II BOB II Bob. Viloyatda tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi va hozirgi holati

2.1. Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy tavsifi, tashqi iqtisodiy aloqalarning oʻrnatilishi, rivojlanish bosqichlari va hozirgi holati.....

2.2. Hududda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari

2.3. Hudud iqtisodiyotida eksport va import koʻrsatkichlari tahlili.....

III BOB Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari.....

3.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni takomillashtirishda xalqaro mehnat taqsimoti va jahon narxlarining tutgan oʻrni.....

3.2. Tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda toʻlov balansining taʼsiri va istiqboldagi rivojlanish koʻrsatkichlari.....

3.3. Jahon xizmatlar savdosi va xalqaro raqobatlashuvning tashqi iqtisodiy aloqalar samaradorligini oshirishdagi ahamiyati.....

Xulosa va takliflar.....

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA TOPSHIRIQ

“TASDIQLAYMAN”

Kafedra mudiri _____ A.I.Raxmatullayev

“ _____ ” _____ 20__ yil

1. **Talaba:** Sayniyazov Muhammadjon Qudrat o'gli
2. **Ta'lim yo'nalishi:** 5230100- Iqtisodiyot (makroiqtisodiyot)
3. **Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:** Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish yo'nalishlari
3. **Bitiruv oldi amaliyoti o'tilgan joy:** Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi
4. **Bitiruv malakaviy ishi rahbari:** dotsent Sh. Sh. Fayziyeva
5. **Bitiruv malakaviy ishi maqsadi:** Bitiruv malakaviy ishining maqsadi viloyatda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish hamda tashqi savdo operatsiyalarini takomillashtirishdan iborat. Shuningdek, mavzu bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

6. Ish rejasi:

Bitiruv malakaviy ishi bo'limi	Bitiruv malakaviy ishi bo'limi nomi	Bajarish muddati
Kirish	Mavzuning dolzarbligini, ilmiy va amaliy ahamiyatini, maqsadi va vazifalarini hamda ilmiy yangiliklarini yoritish	08.12.2014-20.12.2014 y.
I Bob	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning nazariy asoslari	22.02.2014-23.01.2015 y.
II Bob	Viloyatda tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi va hozirgi holati	26.01.2015-20.03.2015 y.
III Bob	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari	23.03.2015-24.04.2015 y.
Xulosa va takliflar	O'rganilgan muammolar bo'yicha xulosalar qilib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish	04.05.2015-15.05.2015 y.
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	Mavzuni yoritishda ilmiy manbalardan, darslik, o'quv qo'llanma va uslubiy qo'llanmalardan foydalanish	18.05.2015-02.06.2015 y.

7. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun zarur bo'lgan materiallar:

a) adabiyot manbalari: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, respublikamiz va xorijdagi yetakchi iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari va asarlari.

b) qonuniy-meyoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va boshqa meyoriy hujjatlar.

v) statistik va boshqa ma'lumotlar: respublika Davlat Statistika Qo'mitasi, viloyat statistika boshqarmasi va Qashqadaryo Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi ma'lumotlari

9. Tasvirlash materiallari: jadval, chizma va slaydlar

10. Topshiriq berilgan kun: 01.12.2014 yil

11. Ishni topshirish muddati: 08.06.2015 yil

12. Ilmiy rahbar: _____ dots. Sh. Sh. Fayziyeva

13. Kafedra mudirining bitiruv malakaviy ishini himoyaga qo'yish haqidagi xulosasi _____

QARSHI MUXANDISLIK –IQTISODIYOT INSTITUTI
“IQTISODIYOT” FAKULTETI

5230100-Iqtisodiyot (makroiqtisodiyot) ta'lim yo'nalishi

Sayniyazov Muhammadjon Qudrat o'gli ning bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Malakaviy ish mavzusi: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish yo'nalishlari (Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi misolida)

Malakaviy ishning hajmi: _____ bet

A) yozma izoh qismi: varaqlar soni _____ bet

B) grafik qismi: chizmalar soni _____ ta

Malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va topshiriqqa mosligi:

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi viloyatda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish hamda tashqi savdo operatsiyalarini takomillashtirishdan iborat. Shuningdek, mavzu bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu masala mavzuning dolzarbligini belgilayd hamda berilgan mavzu topshiriqqa mos keladi.

Malakaviy ishning yozma izoh va grafik materiallarning tarkibi va bajarilish sifati Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, har bir bobni yorituvchi paragraflar, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, BMI Nizom talablari asosida sifatli bajarilgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar, fan-texnika yutuqlari va ilg'or tajriba natijalaridan foydalanilganligi: Bitiruv malakaviy ishida ilmiy manbalar, xorijiy tajribalar, fan va texnika yutuqlari va ilg'or tajriba natijalaridan foydalanilgan.

Malakaviy ishning ijobiy tomonlari: BMI ni bajarishda olingan xulosalar natijasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar amaliyotda qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Malakaviy bitiruv ishining bahosi (maksimal -100 ball) va xulosa: Bitiruv malakaviy ishi tugallangan bo'lib, DAK talablariga to'liq javob beradi va ishni 90 ball bilan baholandi. BMI ni DAK oldida himoya qilishga tavsiya etaman.

Malakaviy ish rahbari:

dots. SH.SH.Fayziyeva

“ _____ ” _____ **2015 yil**

QARSHI MUHANDISLIK –IQTISODIYOT INSTITUTI
“IQTISODIYOT” FAKULTETI

5230100-Iqtisodiyot (makroiqtisodiyot) ta'lim yo'nalishi
Sayniyazov Muhammadjon Qudrat o'g'lining bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Malakaviy ish mavzusi: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish yo'nalishlari (Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi misolida)

Malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va topshiriqqa mosligi:

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi viloyatda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish hamda tashqi savdo operatsiyalarini takomillashtirish. dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmokda. Shu nuqtai nazardan ushbu mavzu bugungi kunda dolzarb bo'lib, berilgan mavzu topshiriqqa mos keladi.

Malakaviy ishnig yozma izoh va grafik materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, har bir bobni yorituvchi paragraflar, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, BMI Nizom talablari asosida sifatli bajarilgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar, fan-texnika yutuqlari va ilg'or tajriba natijalaridan foydalanganligi: Bitiruv malakaviy ishida ilmiy manbalar, xorijiy tajribalar, fan va texnika yutuqlari va ilg'or tajriba natijalaridan foydalanilgan.

Malakaviy ishning ijobiy tomonlari va kamchiliklari BMI ni bajarishda olingan xulosalar natijasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar amaliyotda qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Malakaviy bitiruv ishining bahosi (maksimal -100 ball) va xulosa

Bitiruv malakaviy ishi tugallangan bo'lib, DAK talablariga to'liq javob beradi va ishni 92 ball bilan baholandi. BMI ni DAK oldida himoya qilishga tavsiya etaman.

Taqrizchi: _____

“Menejment” kafedrasi mudiri,
dotsent Berdiyev A.H.

“ ____ ” _____ 2015 yil

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Tashqi iqtisodiy aloqalar moddiy, moliyaviy va zakovat boyliklarining mamlakatlar o'rtasida almashinishining turli yo'nalishlari, shakllari va vositalarini ifodalovchi yaxlit tizimdir. Bu istalgan mamlakat iqtisodiyotidagi eng murakkab soha bo'lib, o'z rivojlanishi uchun atroflicha yondashishni taqozo etadi. O'zbekistonning siyosiy mustaqillikka erishishi va bozor munosabatlariga o'tishi, bosqichma - bosqich iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi mamlakat taraqqiyotida tashqi iqtisodiy aloqalarning rolini ancha ko'tardi. O'zbekiston uchun nafaqat uzok xorij, balki yaqin qo'shnilar bilan ham xo'jalik va savdo aloqalari tashqi iqtisodiy aloqalarga aylandi. Shu munosabat bilan milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda tashqi iqtisodiy omilning ahamiyati keskin oshdi. Ayni vaqtda ayrim xo'jalik subyektlarining ham davlatning umuman tashqi iqtisodiy faoliyati mohiyati son va sifat jihatidan tubdan o'zgardi.

Tashqi iqtisodiy omilning kuchayishi amalga oshirilayotgan bozor o'zgarishlari, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti, ichki bozorning tashqi bozor bilan hamkorligining shakllanayotgan butunlay yangi asoslari talablaridan kelib chiqadi. Prezidentimiz. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish - davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir¹".

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy hayotida tashqi iqtisodiy aloqalarning o'рни beqiyosdir. Tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bu-investitsion faoliyatni rag'batlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy infrastrukturani kengaytirish, jahon bozorida salmoqli o'ringa ega bo'lish, yangi texnologiyalar hamda erkin muomaladagi valyutaning kirib kelishini ta'minlash demakdir.

Hozirgi bosqichda tashqi iqtisodiy aloqalarning son va sifat jihatidan o'sishi bu jarayonlarni har tomonlama chuqur o'rganishga yanada yuksak talablar qo'ymokda. Turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarning ishlab chiqarish, ilmiy - texnikaviy, valyuta - moliya, xorijiy sheriklar bilan savdo - iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblangan eksportga mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, turizmni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonlarida ma'lum bir muammolar mavjud bo'lib, ularning hal etilishi bugungi kunning dolzarb vazifasi

¹ I.A.Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: "O'zbekiston" 1998 y. 22-bet.

hisoblanadi. Bularning barchasi bitiruv malakaviy ishi mavzusini tanlash uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Mavzuning o'rganilganligi. Tashqi iqtisodiy aloqalar va ularni rivojlantirish bilan bog'liq muammolar xorijda doimo tadqiqot predmeti bo'lib kelgan bir vaqtda, yaqin paytlardan boshlab bu muammolarga mamlakatimiz tadqiqotchilari tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmokda.

Iqtisodiyot nazariyasi tarixida bu muammolar bilan A.Smit, D.Rikardo, E.Xeksher, B.Olin, P.Samuelson va boshqalar shug'ullanganlar. Hozirgi paytda MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan Y.F.Prokushev, S.Sarkisov, Y.M.Strovskiy, B.I.Sinetskiylarning asarlarida mazkur mavzuning ayrim qirralari yoritilgan.

Respublikamizda R.H.Shodiyev, Sh.SH.Shodmonov, E.R.Maxmudov, I.A.Hamedov, G.G'.Nazarova kabi iqtisodchi olimlar mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mazkur mavzu bo'yicha samarali ish olib borishmoqda. Ularning mazkur muammoga bag'ishlangan qator ilmiy ishlari va asarlari mavjud bo'lib, bu asarlarda tashqi iqtisodiy aloqalar tushunchasiga va uning asosiy yo'nalishlariga umumiy holda keng ta'rif berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Mamlakatimizda va Qashqadaryo viloyatida bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganish va ularni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-iqtisodiy asoslangan xulosa va takliflarlar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish talab etiladi:

- tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati, zaruriyati va ijtimoiy -iqtisodiy ahamiyatini yoritish;
- Qashqadaryo viloyati tashqi iqtisodiy aloqalarining samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish va tahlil etish;
- tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- mazkur muammolarning yechimi bo'yicha samarali xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti sifatida Qashqadaryo viloyatida tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish jarayoni iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar bo'yicha o'rganildi, tahlil qilindi hamda nazariy xulosa, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar bilan boyitildi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib, viloyatda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining uslubi sifatida dialektik, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, mantiqiylik va tarixiylik hamda makroiqtisodiy tahlil birligi usullari qo'llanildi. Mikdoriy ko'rsatkichlar dinamika va qiyosiy tarzda ko'rib chiqildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va tashqi iqtisodiy aloqalar, uning tashqiliy iqtisodiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha vatanimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, meyoriy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi hamda Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot bosh boshqarmasining ma'lumotlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- tashqi iqtisodiy aloqalarning shakllari turkumlanib, tizimga keltirilgan hamda samarali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan shakllarni ustuvor rivojlantirish taklif etilgan;

- O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarining tashqiliy asoslari va tarkibiy tuzilishi tahlil qilingan;

- viloyatda tashqi iqtisodiy aloqalarni amal qilishiga yaratilgan shart - sharoitlar o'rganilgan;

- bozor munosabatlariga o'tish davrida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan va ularni amalga oshirishga qaratilgan chora - tadbirlar tizimi ishlab chiqilgan;

- tashqi iqtisodiy aloqalar samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Ishning natijasida ishlab chiqilgan asosiy yondashuv va xulosalar tadqiq qilinayotgan muammoning ilmiy asoslarini yanada boyitadi. Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida erishilgan asosiy natija, xulosa va tavsiyalardan mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarini takomillashtirishga qaratilgan loyiha va dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek: "Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida shiddat bilan sodir bo'layotgan jarayonlar va birinchi navbatda, qarama-qarshiliklarning kuchayib borayotgani, jahon bozorlaridagi vaziyatning tez o'zgarayotgani, hali-beri davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uning oqibatlari, dunyoning ko'plab davlatlarida investitsiya faolligining susayishi va o'sish sur'atlarining pasayishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, albatta.

Shundan kelib chiqib, 2015 yilda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sish sur'ati 108 foiz darajasida bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Bu borada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 6 foizga ko'payishi belgilanmoqda.”²

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, mantiqan hamda mazmunan o'zaro bog'langan 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning hajmi ----bet, mazmunini yorituvchi ----ta jadval va --- ta chizma hamda ilovalarda o'z ifodasini topgan.

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslangan. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari, uslubi , ilmiy yangiliklari va amaliy ahamiyati qayd etilgan.

Birinchi bobda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning nazariy asoslari, xalqaro amaliyotda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning ilmiy- nazariy asoslari, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalashda tashqi iqtisodiy aloqalarning tutgan o'rni to'g'risidagi ma'lumotlari kiritilgan.

Ikkinchi bobda esa viloyatda tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi va hozirgi holati, Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy tavsifi, tashqi iqtisodiy aloqalarning o'rnatilishi, rivojlanish bosqichlari va hozirgi holati, tashqi iqtisodiy aloqalarda tashqi savdo operatsiyalarining ahamiyati va dinamikasi hamda hudud iqtisodiyotida eksport va import ko'rsatkichlari tahlil qilingan va ahamiyati ochib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari, tashqi iqtisodiy aloqalarni takomillashtirishda xalqaro mehnat taqsimoti va jahon narxlarining tutgan o'rni, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda to'lov balansining ta'siri va istiqboldagi rivojlanish ko'rsatkichlari, jahon xizmatlar savdosi va xalqaro raqobatlashuvning tashqi iqtisodiy aloqalar samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida bajarilgan bitiruv malakaviy ishining natijasi bo'yicha olingan ma'lumotlar asosida xulosa va takliflar bayon etilgan.

² I.A.Karimov. “2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir”. // “Xalq so'zi” 17.01.2015

I- bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning nazariy asoslari

1.1.Xalqaro amaliyotda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari

Sivilizatsiyaning rivojlanishi alohida olingan davlatlarni xalqaro xo‘jalik aloqalariga muntazam ravishda jalb etishga olib keladi, bu esa yagona jahon iqtisodiyotini barpo etishga imkon yaratadi. Dunyodagi barcha mamlakatlar umumiy iqtisodiy qonunlarga ko‘ra rivojlanadi, ular xalqaro munosabatlar iqtisodiy xarakterining ustuvor bo‘lishini shartlaydi.

Ehtiyojlarning doimo murakkablashib boradigan tarkibi, resurslarning juda kamligi va olisdaligi nafaqat alohida olingan davlat ichidagi hududlar o‘rtasida, balki turli davlatlar va jahon mintaqalari o‘rtasida ham yanada samaraliroq ayirboshlash vositalarini talab etadi.

Dunyoning turli mintaqalarida iqtisodiy rivojlanish va aholining o‘sishi notekis yuz beradi, bu ham xalqaro ayirboshlashni kengaytirish zaruratini yuzaga keltiradi; ushbu jarayonlar yangi bozorlarni (tovarlar, xizmatlar, mehnat, axborot, moliya va boshqa bozorlarni) rivojlantirishga, xom ashyoni olib kirishga, texnologiya va axborotlarni ayirboshlashga, ilmiy, ilmiy-texnika, ishlab chiqarish, madaniy va boshqa tashqi iqtisodiy aloqalarga imkon yaratadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar moddiy, moliyaviy, zakovat boyliklarining mamlakatlar o‘rtasidagi almashinishining turli yo‘nalishlari, shakllari va vositalarini ifodalovchi yaxlit tizimdir. Bu istalgan mamlakat iqtisodiyotidagi eng murakkab soha bo‘lib, o‘z rivojlanishi uchun atroflicha yondashishni taqozo etadi. O‘zbekistonning siyosiy mustaqillikka erishishi va bozor munosabatlariga o‘tishi, sobiq Ittifoq parchalanganidan so‘ng O‘zbekiston geosiyosiy holatining birdan o‘zgarishi, bosqichma-bosqich iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi mamlakat taraqqiyotida tashqi iqtisodiy aloqalarning rolini ancha ko‘tardi. O‘zbekiston uchun nafaqat uzoq xorij, balki yaqin qo‘shnilar bilan ham xo‘jalik va savdo alokalari tashqi iqtisodiy aloqalarga aylandi. Shu munosabat bilan milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda tashqi iqtisodiy omilning ahamiyati keskin oshdi. Ayni vaqtda ham ayrim xo‘jalik subyektlarining, ham davlatning umuman tashqi iqtisodiy faoliyati mohiyati son va sifat jihatidan tubdan o‘zgardi. Tashqi iqtisodiy omilning kuchayishi amalga oshirilayotgan bozor o‘zgarishlari, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotida ichki bozorning tashqi bozor bilan hamkorligining shakllanayotgan butunlay yangi asoslari talablaridan kelib chiqadi.

O'zbekistonda ko'plab korxona va birlashmalar, korporatsiya va kompaniyalar, firma va boshqa tashkilotlar xorijlik sheriklar bilan tashqi savdo aloqalarini muvaffaqiyat bilan rivojlantirmoqdalar, xorijlik investorlar ishtirokida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirmoqdalar, xalqaro ishlab chiqarish hamkorligini butun choralar bilan kengaytirmoqdalar va chuqurlashtirmoqdalar. Tashqi iqtisodiy alokalarning ushbu shakllari milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi. Ana shu ta'sir natijalarining tahlili va xalqaro mehnat taksimotida ishtirok etishni hisobga olgan holda iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari belgilash tashqi iqtisodiy aloqalar va tashqi iqtisodiy faoliyat tushunchalarining mazmuni to'g'risidagi anik tasavvurga asoslanishi kerak.

Tashqi iqtisodiy aloqalar — bu xalqaro xo'jalik, savdo, axborot munosabatlari bo'lib, mazkur munosabatlar tovar ayirboshlash, iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlikning turli shakllari, ixtisoslashuv, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, qo'shma tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish, valyuta va moliya-kredit operatsiyalarini amalga oshirishni ta'minlaydi³.

Shuningdek, tashqi iqtisodiy aloqalar — bir aniq mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan xalqaro mehnat taqsimoti, fan va ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish hamda boshqa omillarga asoslangan ishlab chiqarish, savdo va boshqa xil munosabatlaridir. Tashqi iqtisodiy faoliyat esa tashqi iqtisodiy aloqalarni ro'yobga chiqarish jarayonidir⁴.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari shitob bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda mamlakatda samarali tashqi iqtisodiy faoliyat olib borish, rivojlangan mamlakatlar bilan iqtisodiyotning yetakchi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish tarmoqlarida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, raqobatbardosh milliy maxsulotlari, turli ko'rinishdagi xizmatlari bilan dunyo bozorlarini zabt etish har bir davlatning bosh maqsadi hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish va fanni ixtisoslashtirish, xo'jalik xayotini baynalminallashtirish jarayonidan obyektiv ravishda kelib chiqadi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning shakllanishi va rivojlanishi alohida olingan mamlakatlarning o'zaro aloqalari va bir-biriga bog'liqligining kuchayishi bilan belgilanadi. Dunyodagi turli mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish notekis yuz berganligi sababli xalqaro ayirboshlashni kengaytirish zarurati yuzaga keladi, ya'ni mamlakatlar orasida turli tovarlar, xizmatlar, mehnat, axborot, xom ashyo, texnika-texnologiyalar ayirboshlash, madaniy va boshqa hamkorliklarni

³ "Прокушев Е.Ф. Внешнеэкономическая деятельность. Учебник. М.: Издательско-торговая корпорация «Дашковик и К°» 2006, 5-бет.

⁴ Hamedov I.A., Alimov A.M. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati asoslari. T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot jamg'armasi» nashriyoti, 2001, 7-bet.

amalga oshirish ehtiyoji paydo bo‘ladi. O‘z navbatida har bir davlat o‘z milliy, iqtisodiy, siyosiy manfaatlarini ko‘zlagan holda mazkur jarayonlarda ishtirok etadi.

Shunday qilib, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalari turli sohalarida: tashqi savdo, faoliyatning ilmiy-texnika, ishlab chiqarish, investitsiya, valyuta-moliya va kredit, axborot, madaniy va sport turlari, mehnat resurslarini olib o‘tishda o‘rnatiladn. Tashqi iqtisodiy aloqalarning ana shu barcha turlarini quyidagi shakllarga birlashtirish mumkin: savdo (tovarlarni ayirboshlash, xizmatlar ko‘rsatish), qo‘shma tadbirkorlik, hamkorlikning boshqa turlari. Ular xalqaro iqtisodiy munosabatlar amaliyotida ayniqsa keng tarqalgan. Tashqi iqtisodiy aloqalar tarixiy va iqtisodiy toifa hisoblanadi.

Tarixiy toifa sifatida tashqi iqtisodiy aloqalar sivilizatsiya mahsuloti hisoblanadi. Ular davlatlar paydo bo‘lishi bilan yuzaga keladi va ular bilan birga rivojlanadi. Ushbu aloqalarning rivojlanishiga ayniqsa feodalizmning tanazzuli kuchli turtki berdi. Natural xo‘jalikdan tovar-pul munosabatlariga o‘tilishi alohida davlatlarning milliy bozorlarini rivojlantirishga va ushbu milliy bozorlarning tovar ayirboshlashida keskin sakrashni tug‘dirdi, bu esa davlat munosabatlarining iqtisodiy sohasida baynalmilal aloqalar va xalqaro ayirboshlash kengayishi va chuqurlashiga olib keldi.

Iqtisodiy toifa sifatida tashqi iqtisodiy aloqalar barcha turdagi resurslarning davlatlar va turli davlatlarning iqtisodiy subyektlari o‘rtasidagi harakati paytida yuzaga keladigan ishlab chiqarish - iqtisodiy munosabatlar tizimini tashqil etadi. Ushbu ikki taraflama munosabatlar davlat iqtisodiy hayotining barcha sohalarini, avvalo uning ishlab chiqarish, savdo, investitsiyaga oid va moliyaviy faoliyatini qamrab oladi.

Iqtisodiy toifa sifatida tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati uning funksiyalarida aniqlanadi. Quyidagilar ana shunday funksiyalar hisoblandi:

- ✓ tabiiy resurslar hamda ularning ashyoviy va qiymat shaklidagi mehnat natijalari bilan xalqaro ayirboshlashning tashqil etish va xizmat ko‘rsatish;
- ✓ xalqaro mehnat taqsimoti mahsulotlari iste‘mol qiymatining xalqaro miqyosdagi e‘tirofi;
- ✓ xalqaro pul muomalasini tashqil etish.

Birinchi funksiya tabiiy resurslar sifatida qazib olinadigan mahsulotlar va xalqaro mehnat taqsimoti jarayonida olinadigan mahsulotlarni mahsulotlar va ularning ashyoviy hamda qiymat shakldagi mehnat natijalari bozori orqali Aniq iste‘molchilarga yetkazishdan iborat bo‘ladi. Ayirboshlashni tashqil etish ayni vaqtda ayirboshlashga xizmat ko‘rsatishni ham nazarda tutadi.

Ikkinchi funksiyani bajarish jarayonida tovar-pul munosabatlari harakatining yakunlanishi va pulni xalqaro mehnat taqsimoti mahsulotiga

ayirboshlash tugashi yuz beradi, buning natijasida mahsulotning iste'mol qiymati (yoki amaliy qiymati) xalqaro e'tirofga sazovor bo'ladi.

Uchinchi funksiya - turli xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayenida pulning uzluksiz harakati uchun shart-sharoit yaratishdir⁵.

Ayni vaqtda tashqi iqtisodiy aloqalar davlatning iqtisodiy tizimiga ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib maydonga chiqadi, u tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmi orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi jahon xo'jaligida tashqi iqtisodiy aloqalar davlat milliy daromadini o'stirish, xalq xo'jaligi xarajatlarini tejash va fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillariga aylanadi.

Davlatlar o'rtasidagi hamkorlik tovarlarni odatdagi ayirboshlashdan xizmatlar savdosi, texnik-iqtisodiy vazifalarni birgalikda hal etish, ilmiy va ishlab chiqarish kooperatsiyasini hamda birgalikdagi xo'jalik faoliyatining boshqa shakllarini rivojlantirish, shu jumladan qo'shma korxonalarni barpo etishga qadar kengaymokda.

Tashqi iqtisodiy aloqalar orqali jahon bozorining tovar va xizmatlarga talabi muayyan davlatning ichki bozoriga o'tkaziladi, bu esa ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishga imkon yaratadi, bu o'z navbatida, sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, moliya muassasalari va xizmatlar sohasini rivojlantirishga olib keladi.

Eksportga mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan, shuningdek import tovarlarini xarid qiladigan va qayta ishlaydigan hamda tashqi iqtisodiy aloqalarning boshqa shakllarini amalga oshiradigan tarmoqlar, birlashmalar, korxonalar, firmalarning jamul-jami mamlakatning tashqi iqtisodiy majmuasini tashqil etadi.

Tashqi iqtisodiy majmua uchta asosiy qismdan tashqil topadi:

- ishlab chiqarish faoliyati eksportga mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, shuningdek import tovarlari va xizmatlarining iste'molchilari hisoblangan korxonalar;

- tovarlarni xorijdagi iste'molchilarga yetkazib berish, shuningdek xorijda ishlab chiqarilgan mahsulotning kelib tushishi bilan band bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish, kadrlarni tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar, axborot bilan ta'minlash va hokazolar vositasida tashqi iqtisodiy aloqalarni ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan tashkilot va muassasalar.

Tashqi iqtisodiy majmuani rivojlantirishning hozirgi bosqichi faoliyatning ishlab chiqarish va savdo turlarini bevosita, barqaror va uzoq muddatga

⁵ Hamedov I.A., Alimov A.M. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati asoslari. T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot jamg'armasi» nashriyoti, 2001, 11-bet.

birlashtirish hamda majmuani dinamik va muvozanatlashtirilgan ilmiy-ishlab chiqarish tijorat tizimiga aylantirishni nazarda tutadi.

Eksport salohiyatini oshirish, qo'shma tadbirkorlikning turli shakllariga kiritish, raqobat qiluvchi ishlab chiqarishlarning mavjudligi, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda mintaqalar, korxonalar, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning mustaqilligini oshirish O'zbekiston tashqi iqtisodiy majmuasini muvaffaqiyatli rivojlantirish shartlari hisoblanadi.

1.2.Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalashda tashqi iqtisodiy aloqalarning tutgan o'rni

Tashqi iqtisodiy aloqalarni tashqil etish va ularni boshqarish mexanizmining samaradorligi ko'p jihatdan tashqi iqtisodiy aloqalar tasnifi bilan belgilanadi. Tasnif (klassifikatsiya) deganda muayyan belgilar bo'yicha aniq guruhlariga taqsimlash tushuniladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning tasnifi tizimi aloqa turlari va shakllaridan iboratdir.

Tashqi iqtisodiy aloqalar xalqaro, xo'jalik, savdo, siyosiy, axborot munosabatlari bo'lib, mazkur munosabatlar tovar ayirboshlash, iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlikning turli shakllari, ixtisoslashuv, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, qo'shma tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish, valyuta va moliya-kredit operatsiyalarini amalga oshirishni ta'minlaydi⁶.


Tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shakllari quyidagilar:

1. Xalqaro savdo munosabatlari.
2. Kapital olib chiqish va olib kirish, qo'shma tadbirkorlik.
3. Ishlab chiqarish kooperatsiyasi.
4. Xizmat ko'rsatish.
5. Ishchi kuchi migratsiyasi.
6. Fan va texnika sohasidagi hamkorlik.
7. Kadrlar tayyorlab, yetkazib berish.
8. Valyuta-moliya, kredit munosabatlari.

Xalqaro savdo munosabatlari. Mazkur shakl yordamida keng ko'lamdagi iste'mol tovarlari: kiyim-kechak, oyoq kiyim, parfyumeriya, madaniy-maishiy tovarlar, shuningdek, oziq-ovqat va xom ashyo kabilar savdosi, shuningdek, sanoat ehtiyoji mahsulotlari: turli detallar, ehtiyot kismalari vash u kabilarning savdo almashinuvi ham amalga oshiriladi. Jamoat ehtiyojini qondiruvchi tovar va asbob-

⁶ Прокушев Е.Ф. Внешнеэкономическая деятельность. Учебник. М.: Издательско-торговая корпорация «Дашковик и К°» 2006, 5-бет.

uskunalar: shahar transporti, kasalxona, sanatoriy, poliklinikalar uchun jixozlar, dori -darmonlar, atrof-muhit himoyasi uchun qurilma va asbob-uskunalar, aqliy



1.2.1-chizma. Mahsulot eksporti va undan ko‘riladigan samara

(intellektual) mehnat mahsulotlari: litsenziya va «nou-xau», injiniring mahsulotlari savdosi ham amalga oshiriladi.

Tovar oqimining yo‘nalishi bilan bog‘langan tasnif belgisi tovar (xizmatlar, ishlar) ning bir mamlakatdan boshqasiga harakatini, ya’ni tovarning mamlakatdan olib chiqilishi yoki tovarning mazkur mamlakatga olib kirilishini belgilaydi. Ushbu belgiga ko‘ra tashqi savdo aloqalari tovarni sotish va olib chiqish bilan bog‘liq eksport aloqalariga hamda tovarni xarid qilish va olib kelish bilan bog‘lik import aloqalariga bo‘linadi.

Eksport - tovar, ishlar, xizmatlar, intellektual mulk natijalari, shu jumladan ularga doir mutlaq huquqlarni bojxona hududidan xorijga kaytarib olib kelish majburiyatisiz olib chiqishdir. Eksport fakti tovar bojxona chegarasini kesib o‘tgan, xizmatlar va intellektual faoliyat natijalariga doir huquqlar taqdim etilgan paytda qayd etiladi. Bojxona hududidan xorijga tovarlar olib chiqishsiz ayrim tijorat operatsiyalari tovarlar eksportiga tenglashtiriladi.

Import – tovarlar, ishlar, xizmatlar, intellektual faoliyat natijalarini, shu jumladan ularga doir favqulodda huquqlarni bojxona hududiga qaytarib olib chiqish majburiyatsiz olib kelishdir. Import fakti tovar bojxona chegarasini kesib o‘tgan, xizmatlar va intellektual faoliyat natijalariga doir huquqlar olingan paytda qayd etiladi⁷.

Tashqi savdoda xizmatlar savdosi katta o‘rin tutadi. Xizmatlar ham tovardir, biroq ko‘pincha ashyolashtirilgan shaklga ega emas va tovarlardan bir qator mezonlari bilan farq qiladi.

Xizmatlar — boshqa shaxslar ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan tadbirkorlik faoliyati bo‘lib, mehnat huquqiga oid munosabatlar asosida amalga oshiriladigan faoliyat bundan mustasno.

Xizmatlar oldi-sotdisi bo‘yicha asosiy tashqi savdo bitimlariga transport xizmatlari, injiniring (muhandislik-texnika xizmatlari savdosiga doir operatsiyalar), ijara munosabatlari (lizing), turistlik xizmatlari eksport-importiga doir operatsiyalar, informatika va boshqarishni takomillashtirish sohasidagi konsultatsiya xizmatlari, sug‘urtalash va bir qator boshqa xizmatlar kiradi.

Xizmatlarning tashqi savdosi «ko‘zga ko‘rinmaydigan eksport» deb ataladi.

Kapital olib chiqish va olib kirish, qo‘shma tadbirkorlik.

Tashqi iqtisodiy aloqalar ko‘pincha bizga tovarlarni olib kirish va olib chikish, ipmort va eksport shaklida namoyon bo‘ladi. Lekin, zamonaviy iqtisodiyetda olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlar katoriga kapital ham

⁷ Hamedov I.A., Alimov A.M. O‘zbekiston Respublikasi tashki iktisodiy faoliyati asoslari. T.: Uzbekiston yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot jamg‘armasi» nashriyoti, 2001, 13-bet

kiritiladi. Kapitalning xalqaro harakati-kapitalni chet elda foyda olish maqsadida joylashtirish va ishlatishdir.

Bunda «kapital» termini zaminida faqat ishlab chiqarish omili sifatida kapitalning o'zi emas, qisman mehnat, yer, tadbirkorlik qobiliyati ham tushuniladi, chunki chet elda kapital sarflanganda ularni bir-biridan ajratish anchayin qiyin⁸.

Chet elga kapital chiqarish (kapital olib chiqish) shunday bir jarayonki, uning davomida bir mamlakatning milliy muomalasida bo'lgan kapitalning bir qismi chiqarib olinadi, turli shakllarda (mahsulot, pul) ikkinchi bir davlatning ishlab chiqarish jarayoniga, muomalasiga kiritiladi. Kapitalning xalqaro harakati mamlakatlar o'rtasidagi kapitallar migratsiyasidan iborat bo'lib, o'z egasiga daromad keltiradi. Kapitallar chet elga quyidagi shakllarda chiqariladi:

- 1.Xususiy va davlat kapitallari shaklida;
- 2.Pul va tovar shaklida;
- 3.Qisqa muddatli (odatda 1 yilgacha), o'rta uzoq muddatli shakllarda;
- 4.Ssuda va tadbirkorlik kapitallari shaklida.

Ssuda kapitali mulk egasiga ko'pincha qo'yilgan pul, zayom va kreditlar bo'yicha foiz shaklida, tadbirkorlik shaklidagi (tadbirkorlik kapitali) kapital esa foyda tarzida daromad keltiradi. Kapitalning chet elga chiqishiga asosiy sabab uning o'z mamlakatida - donor mamlakatda nisbatan ko'pligidir. Bu xol yanada ko'proq daromad topishga, kapitalni chet elga joylashtirish natijasida ham dividend, ham foiz shaklida foyda olishga imkon beradi.

Kapital olib chiqish jarayonini uning u yoki bu qirrasini aks ettiruvchi mezonlarga bog'liq ravishda sinflarga ajratish mumkin. Kapital harakati manbalari nuqtai nazaridan, hukumatlararo kelishuvlarga mos ravishda e'tiborli davlat organlari qaroriga binoan davlat budjetidan rasmiy moliyaviy resurslarni olish (bu tipga xalqaro tashkilotlar mablag'lari ham mablag'lari ham kiradi) jarayoni yoki hususiy, huquqiy va jismoniy shaxslarning tuzilgan shartnomalari asosidagi investitsion faoliyati natijasida kapital eksportiga ega bo'lamiz.

Iqtisodiy mazmuniga bog'lik ravishda bo'sh turgan mabla/lar tadbirkorlik kapitali (ma'lum miqdordagi foydani dividend ko'rinishida olish huquqiga ega bo'lish maqsadida ishlab chiqarishga mablag' qo'yishga asoslangan) va ssuda kapitali (foiz olish maqsadida qarz oluvchimga pul mablag'i berishni ifoda etadi) ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Muddatidan kelib chiqadigan bo'lsak qisqa (bir sutkadan bir yilgacha), o'rta (bir yildan besh yilgacha) va uzoq (besh yildan ortiq) muddatli kapital qo'yilmalar bo'lishi mumkin. Aniq bir muddatni tanlash tuzilayotgan shartnoma shartlari bilan aniqlanadi.

⁸ Shodiyev R.X., Mahmudov E.R. Jahon iqtisodiyoti, Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2005 yil 66- bet.

Va, nihoyat, foydalanish maqsadiga ko'ra, kapital qo'yilmalari to'g'ri va portfel investitsiyalariga bo'linadi. To'g'ri investitsiyalar kapital ko'yilgan obyektni boshqarish (nazorat qilish) ni nazarda tutadi, portfel investitsiyalar esa kapital qo'yilayotgan obyekt qimmatli qog'ozlari (aksiyalar, sertifikatlar, polislar kabilar)ni sotib olish va emissiya qilishda o'z aksini topadi hamda faqatgina foyda olish huquqini kafolatlaydi.

Jahon xizmatlar bozorining rivojlanish jarayonida kapital olib chiqishning ko'rsatib o'tilgan sinflashda keltirilgan turli xil ko'rinishlari orasidagi chegaralar «yo'qolib bormokda». Xalqaro hamkorlikning Yangi ko'rinishlari: konsalting, lizing, forveyting va boshqalar tashqi iqtisodiy aloqalarning savdo, valyuta, kredit, axborot sohalari chegarasida keng tarqala boshladi.

Kapitalni bir mamlakatdan boshqa mamlakatga olib o'tish avvalo olib chiqayotgan mamlakat ichki iqtisodiy rivojlanishining uning tashqi savdosi o'sishi bilan taqqoslaganda ildam borishi bilan bog'langan. Lekin shu bilan birga tashqi iqtisodiy faoliyat shakli sifatida kapitalni olib kirish va olib chiqish o'zaro bog'langan va quyidagi xizmatlar tufayli bir-birini shartlaydi: kapitalni tovar shaklida olib chiqish mashinalar, uskunalar, ishlab chiqarish uchun butlovchi buyumlarni yetkazib berishni anglatadi; kapitalni olib chiqish - asosan kreditor mamlakatda tovar xaridi uchun taqdim etiladigan kreditlardir. Agar tashqi savdo hajmlari ko'paysa, demak, kapitalni olib o'tish o'sgan, ya'ni kapital eksporti tovarlarni xorijga olib chiqishni rag'batlantirish vositasiga aylangan.

Xizmat ko'rsatish. Tashqi iqtisodiy aloqalarning mazkur shakli sanoat, qishloq xo'jaligi, fan, ta'lim, tibbiyot, transport, madaniyat, san'at, moliya-kredit sohaslarida amalga oshiriladi. Xalqaro biznesda eng keng tarqalgan xizmatlarga dallollik, bank, birja xizmatlari, sug'urta, turizm kiradi. Dunyoning rivojlangan davlatlarida mavjud bo'lgan kompyuter tarmoqlari xizmatlari hajmi ham o'sib bormokda.

Ishchi kuchi migratsiyasi. Ishchi kuchi resurslarining qulay sharoitda ish bilan ta'minlanish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishi xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi hisoblanadi. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi uzoq tarixga ega bo'lsada, faqatgina XX asrga kelib ishlab chiqarish omillari harakatining yetakchi ko'rinishlaridan biriga, binobarin tashqi iqtisodiy aloqalarning alohida shakliga aylandi. Buni quyidagi sabablar bilan bog'lash mumkin:

- xo'jalik hayotining baynalminallashuvi;
- ijtimoiy-demografik o'zgarishlar;
- fan-texnika va axborot sohasidagi inqilob;
- integratsiya jarayonlarining rivojlanishi;
- transmilliy korporatsiyalar faoliyati.

Bu barcha omillar mehnatga layoqatli aholining harakatchanligining kuchayishiga sababchi bo'ldi, zero mamlakatlar va qit'alararo ko'chish uchun rivojlangan kommunikatsiya infratuzilmasidan foydalanishadi. Xalqaro migratsiya jarayonini iqtisodiy omillar bilan birga siyosiy, etnik, madaniy, oilaviy va boshqa hususiyatlagi omillar ham taqozo qiladi.

Xalqaro migratsiya ikkita asosiy tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: emigratsiya va immigratsiya. Emigratsiya-bir mamlakatdan boshqa mamlakatga doimiy yashash uchun chiqib ketishni, immigratsiya-aynan olingan mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishni bildiradi⁹.

Migratsiya turli mezonlarga ko'ra sinflanib, quyidagi ko'rinishlarga egabo'lishi mumkin:

- davomiyligiga ko'ra- vaqtinchalik, mavsumiy va doimiy;
- ijtimoiy tarkibiga ko'ra - malakasiz ishsilar, o'rta texnik va servis xodimlari, talabalar (ta'til paytida), mutaxassislar, fan, madaniyat va sport arboblari, tadbirkorlar;
- tabiatiga ko'ra - bevosita va bilvosita;
- mehnat shartnomasi ko'rinishiga ko'ra - shaxsiy va jamoaviy;
- qabul qiluvchi mamlakatdagi huquqiy holatiga ko'ra -assimilyatsion (keyinchalik fuqarolik berilishi) va noassimilyatsion.

Xalqaro statistika ma'lumotlariga ko'ra, migrantlarning asosiy qismini ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligida band bo'lgan kam malakali ishchilar tashqil etadi .

Fan va texnika sohasidagi hamkorlik. Fan texnika yutuqlari bilan xalqaro hamkorlik bir qator shakllarda amalga oshiriladi. U ilmiy -texnikaviy axborotlar, mutaxassislar, fan sohasi xodimlari bilan ayirboshlashni, tadqiqot va yangiliklarni litsenziya asosida berishni, ilmiy

-tadqiqot ishlari o'tkazishni, umumiy fan - texnika va texnologiyalari ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma tadbirkorlikni o'z ichiga oladi¹⁰.

Bunday ayirboshlash ham tijoriy, ham notijoriy ko'rinishlarda mavjud bo'lishi mumkin. Notijoriy ko'rinishlarga quyidagilar kiradi:

- ma'lumotlar manbaalari (maxsus adabiyotlar, internetning axborot massivlari, ma'lumotlar bazalari kabilar) dan tekin foydalanish;
- konferensiya, ko'rgazmalarda olimlar va kashfiyotchilar o'rtasidagi g'oyalar, tamoyillar, yangiliklar bilan ayirboshlash;

⁹ Shodmonov Sh.SH., Alimov R.H., Jo'rayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «Moliya» nashriyoti, 2002 yil, 379-bet

¹⁰ Shodmonov Sh.SH., Alimov R.H., Jo'rayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «Moliya» nashriyoti, 2002 yil, 380-bet

- mutaxassislarning chet ellardagi davlat va xususiy kompaniyalarda tajriba orttirib kelishi;
- ilmiy - texnikaviy kadrlarning vaqtinchalik yoki qaytib kelmaslik asosidagi migratsiyasi.

Notijoriy ayirboshlashda yetakchi o‘rinni potentlashtirilmagan ma’lumotlar va texnologiyalar egallaydi.

Tijoriy ayirboshlashga kelsak, ularning ichida eng keng tarqalgan ko‘rinishlari injiniring (ishlab chiqarishni ta’minlash, mahsulot sotishni uyishtirish, ishlab chiqarish obyektni qurib, ishga tushirish yuzasidan maslahat berish va xizmat ko‘rsatish), franchayzing (bir kompaniya tomonidan boshqa yirikroq yoki bosh kompaniyaning savdo markasi, tovar belgisi va boshqa atributlaridan foydalanish) va konsalting (konsalting firma tomonidan har qanday iste’molchiga keng ko‘lamdagi maslahat xizmatlari ko‘rsatish) hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlab, yetkazib berish jarayoni bugungi kunda eng rivojlanib borayotgan tashqi iqtisodiy aloqa shakllaridan biri hisoblanadi. Bunda turli davlatlar mutaxassis kadrlarining malakalarini oshirish, rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o‘rganish uchun o‘zaro aloqalar olib boradilar. Xozirgi paytda bu jarayon ko‘pgina davlatlarda keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, turli shakllar (masofadan turib o‘qitish, turli grantlar va shartnoma asosida kadrlar tayyorlash, o‘zaro malaka almashish va boshqalar) da amalga oshirilib, samarali natijalarga erishilmoqda.

Valyuta-moliya, kredit munosabatlari.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning muhim shakllaridan biri valyuta-«kredit va moliya munosabatlari hisoblanadi. Valyuta-moliya munosabatlariga turli davlatlar tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish jarayonidagi ssuda kapitali va valyuta kursining o‘zaro bog‘liqlik tizimini kiritish mumkin. Bunda tashqi hamkorlar tomonidan jahon ssuda kapitali bozorlari orqali kiritiladigan kreditlar muhim rol o‘ynaydi.

Mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda milliy pul birliklari jahon pullari funksiyasini bajaradi. Pulning jahon xo‘jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzlar va subsidiyalar oqimi, fan-texnika ayirboshlash, turizm va h.k.) xizmat qilishi bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar - xalqaro valyuta-kredit munosabatlari deb ataladi. **Valyuta** - bu mamlakatlar pul birligi(masalan, so‘m, dollar, funt-sterling va h.k.)¹¹. «Valyuta» tushunchasi uch xil ma’noda qo‘llaniladi: bu birinchidan, muayyan mamlakatning pul biriligi (yapon iyenasi, bolgar levi, qozoq tengesi va h.k.), ikkinchidan esa bu - chet el davlatlarining pul belgilari,

¹¹ Shodmonov Sh.SH., Alimov R.H., Jo‘rayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «Moliya» nashriyoti, 2002 yil, 401-bet

shuningdek, chet el pul birliklarida ifodalangan va xalqaro hisob-kitoblarda foydalaniladigan kredit va to'lov vositalari (chet el valyutasi); uchinchi, xalqaro (mintaqaviy) pul hisob-kitobi birligi va to'lov vositasidir (Yevro, SDR). Mulkchilik huquqining valyuta boyliklariga o'tishi; valyuta boyliklaridan xalqaro muomalada to'lov vositasi sifatida foydalanilishi, qarzlar va boshqa majburiyatlarning topshirilishi, lyuta boyliklarini mamlakat hududiga olib kirish, o'tkazish va jo'natish hamda ularni xorijga olib chiqish, o'tkazish va jo'natish bilan bog'liq harakatlar valyuta operatsiyalari deyiladi. Valyuta operatsiyalarini valyutalarni almashtirish va uning nisbatlarini belgilamasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Ikkita pul birliklarini almashtirishning nisbati yoki boshqa mamlakatning pul birligida ifodalangan bitta pul birligining narxi valyuta kursi deb ataladi¹². Valyuta kurslariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- milliy daromad va ishlab chiqarish harajatlari darajasi;
- milliy iste'molchilarining real xarid qilish layoqati va mamlakatdagi inflyatsiya darajasi;
- to'lov balansi holati;
- mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi;
- valyutaga jaxon bozoridagi ishonch va h.k. Valyutalarning uchta sinfi (guruhi) mavjud.

Birinchi guruh — erkin konvertatsiyalanadigan (aylanadigan) valyuta-(EKV). Bu valyuta boshqa chet el valyutalariga erkin va cheklanmagan holda almashtiriladi. EKV to'liq tashqi va ichki aylanuvchanlikka, ya'ni bir xildagi almashtirish rejimlariga ega. EKV ni almashtirish sohasi kundalik tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq joriy operatsiyalarni, shuningdek, tashqi kreditlar va chet el investitsiyalariga doir operatsiyalariga tadbiq etiladi.

Ikkinchi guruh - qisman konvertatsiyalanadigan valyuta-(QKV). Bu operatsiyalarning ayrim turlari bo'yicha yoki valyuta bitimlarining ba'zi ishtirokchilari uchun miqdoriy cheklovlar yoki maxsus ruxsat berish rusum-qoidolari mavjud bo'lgan mamlakatlarning milliy valyutasidir.

Uchinchi guruh — maxdud (konvertatsiyalanmaydigan) valyuta — bu faqat bita mamlakat hududida faoliyat ko'rsatadigan va chet El valyutalariga almashtirilmaydigan (ham yuridik, ham jismoniy shaxslar uchun taqiqlangan) milliy valyutadir. Milliy va xorijiy valyutalarni olib kirish va olib chiqish, sotib olish va sotish, almashtirish va turli cheklov va taqiklar qo'llaniladigan,

¹² Hamedov I.A., Alimov A.M. O'zbekiston Respublikasi tashki iqtisodiy faoliyati asoslari. T.: Uzbekiston yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot jamg'armasi» nashriyoti, 2001, 119-bet

shuningdek, valyuta orqali tartibga solishning turli usullaridan foydalaniladigan mamlakatlarning valyutalari maxdud valyutalarga kiradi.

Yuqorida ta'rif berib o'tilgan tashqi iqtisodiy aloqalarning barcha shakllari bizning mamlakatimizga ham xos bo'lib, ularni jaxon standartlariga mos ravishda samarali rivojlantirish Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.


Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalar ikki yo'l bilan tartiblanadi: birinchisi, tashqi iqtisodiy aloqalarning bozor mexanizmlari orqali tartiblanishi bo'lsa, ikkinchisi, tashqi iqtisodiy aloqalarning davlat tomonidan tartibga solinishi xisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga soluvchi asosiy bozor mexanizmlari narx, raqobat, talab, taklif kabilar hisoblanadi. Jahon bozoridagi ma'lum bir tovar, xizmatlar va hamkorlikning boshqa shakllariga nisbatan talab va taklifning o'zgarishi mamlakat tashqi iqtisodiy sohasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchi davlat yoki uning subyektlari tashqi iqtisodiy aloqalarning har bir shakli (turi) bo'yicha dunyo bozoridagi talab va taklifni o'rgangan holda o'z faoliyatini amalga oshiradi. Bu yerda nafaqat talab va taklif, balki, narx mexanizmi ham ishga tushadi. Birgina tashqi savdoni misol qilib oladigan bo'lsak, jahon bozoridagi talabning ortishi muayyan tovarni ishlab chiqarish va eksport qilishni kengaytirishi, mazkur tovar narxining oshishi esa ekporter daromadining oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Yoki aksincha bozorda taklifning ko'payishi va narxning tushib ketishi oqibatida eksportyor mazkur tovarni eksport qilishni kamaytirishi yoki umuman to'xtatishi, ba'zi hollarda esa foyda olish maqsadida mazkur tovarni import qilish ham mumkin. Shu tariqa bozor mexanizmlari tashqi iqtisodiy aloqalar jarayonini tartibga solib turadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solishda korxona va tashkilotlarning tovar yoki xizmatlariga aniq narxni belgilash chog'ida turli xil narx chegirmalari katta ahamiyatga ega. Xalqaro amaliyotda quyidagi chegirma turlari eng ko'p qo'llaniladi: umumiy (oddiy) chegirma, bonus chegirmasi, progressiv chegirma, yashirin chegirma va boshqalar.

Tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish maqsadida bo'lgan o'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan mamlakat o'zini faqatgina erkin bozor girdobiga tashlab qo'ya olmaydi va bu sharoitda davlatning rivojlantirish kafolati sifatida faol qatnashuvi zaruriyati tug'iladi. Bozor munosabatlariga o'tishning ilk bosqichlarida tashqi iqtisodiy aloqalarning davlat tomonidan tartibga solinishi ayniqsa muhimdir.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan tartibga solish -bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasi va dinamikasini oshirish maqsadida mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy



1.2.2-chizma. Eksportni davlat tomonidan qullab-quvvatlashning asosiy shakl va usullari

manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, jumladan, tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, eksport va import tarkibida progressiv siljishlarni rag'batlantirish, xorijiy kapital oqimini kuchaytirishga yo'naltirilgan vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish tusidagi chora-tadbirlar tizimidir.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning davlat tomonidan boshqarilishi muhim hisoblanadi. Markazlashtirilgan iqtisodiyotda tashqi iqtisodiy aloqalarga qat'iy ta'sir ko'rsatiladi va davlat organlari tomonidan nazorat qilinadi. Tashqi savdoda davlat monopoliyasi o'rnatilgan bo'lib, uni buzish jinoyat deb qaraladi. Lekin, bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda ham tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan boshqarilishi sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Davlatning tashqi

iqtisodiy funksiyasi uning ichki xo'jalik funksiyasining davomi hisoblanadi, lekin, boshqacha shaklda amalga oshiriladi.

Davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarga aralashuvidan asosiy maqsad mamlakat iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini ta'minlashdan iborat. Shu Bilan birga davlat unga foyda keltiruvchi va davlat aralashuvini talab kiluvchi bir qancha tashqi iqtisodiy faoliyatlarni amalga oshirishni o'z zimmasiga olishga moyil bo'ladi.

Xozirgi sharoitda davlat u yoki bu yo'l orqali xalqaro iqtisodiy aloqalarning deyarli hamma sohalarini boshqaradi, rag'batlantiradi yoki cheklaydi. Davlat boshqaruvi tashqi savdoda, xalqro kapital harakati, valyuta-kredit munosabatlarida, ilmiy-texnik ayirboshlash, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasida o'z ifodasini topadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning davlat tomonidan boshqarilishi - bu davlatlar orasidagi ularning milliy va davlat manfaatlari, maqsad va vazifalariga mos ravishda amalga oshiriladigan aloqalariga davlat xizmati organlari tomonidan ta'sir ko'rsatishning shakl, uslub va dastaklari majmuidir¹³.

Davlatning boshqaruv va tartibga solish jarayoni hukumat tomonidan tegishli qonunlar va boshqa davlat aktlari, farmon va qarorlarini qabul kilish orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro savdoga nisbatan hukumatlar boshqarishining bosh obykti sifatida bojxona tarifi, soliqlar, cheklash shartlari, davlatlararo shartnomalar va kelishuvlar, eksport va importni rag'batlantirish tadbirlari kabilar ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llaydi.

Tarixdan hukumatlar tashqi iqtisodiy siyosatining ikkita asosiy yo'nalishi ma'lum - fritradorlik va proteksionizm.

¹³ Экономическая теория: Учебник. / - изд. и доп./ Под. обид. ред. акад. В.И. Видяпина, А.И. Добрышина, Г.П. Журавлевой, Л.С. Тарасевича. - М.: ИНФРА-М, 2006. 644-с.

Fritredorlik - bu erkin savdo siyosati bo'lib, bunda bojxona organlari faqat ro'yhatdan o'tkazish funksiyasini bajaradi, eksport yoki import bojlari undirilmaydi, tashqi savdo oborotiga nisbatan biror bir cheklashlar o'rnatilmaydi. Erkin savdo tamoyili XIX asrda Angliyaning rasmiy iqtisodiy siyosati bo'lib hisoblangan va buning asosida D.Rikardonning qiyosiy ustunlik nazariyasi yotgan.

Bunday siyosatni faqat mahalliy tadbirkorlari chet ellik rakrbatchilarga qarshi tura oladigan va jahon bozoriga jadal kirib bora oladigan, yuksak samarali milliy xo'jalikka ega bo'lgan davlatgina o'tkaza oladi.

Proteksionizm siyosati ichki bozorda o'z qishloq xo'jaligini, sanoatini chet ellik raqobatchilardan himoya qilishga qaratilgan. Proteksionizmga xos xususiyatlar - bu yuqori bojxona tariflari va importning cheklanganligidir.

Bojxona tarifi - bu bojlarning turkumlangan ro'yhati bo'lib, hukumat tomonidan mamlakatga olib kiriladigan va olib chiqib ketiladigan ba'zi bir tovarlarga nisbatan qo'llanladi.

Божхона тарифлари давлатнинг товарлар олиб кирилиши ва олиб чиқирилишини енгиллаштириш ёки қийинлаштириш орқали экспорт ва импортга қай тариқа таъсир кўрсатилиши ҳақида тасаввур уйғотади.

Bojxona bojlari - bu chegara orqali tovarlar, mulk va boyliklarning olib o'tilganligi uchun davlat tomonidan undiriladigan soliqlardir¹⁴. Undirish obyektiga qarab bojxona bojlari eksport, import va tranzit bojlariga bo'linadi. Undirish usullariga qarab esa advalor (tovarlar narxidan), maxsus (tovarning og'irligidan, hajmidan, sonidan) va aralash turlarga bo'linadi.

Bojlar tovarlar yetkazib beriladigan bozorda tovar narxini oshiradi va shu orqali uning raqobatbardoshligin kamaytiradi. Agar davlat boshqa davlatdan keltirilgan tovarning o'z tovarlari bilan raqobatlashishini xoxlamasa ularga nisbatan yuqori boj belgilanadi.

Bunda boj ichki bozorning chet el tovarlar importidan ximoya vazifasini bajaradi.

Bojlar shu bilan birga foyda olish maqsadida ham o'rnatilishi mumkin. Fiskal bojlar davlat budjetini to'ldirish maqsadida olinadi, odatda, uncha yuqori bo'lmaydi va mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan tovarlarga nisbatan o'rnatiladi. Dunyodagi barcha mamlakatlarda boj tariflari mavjud. Hozirgi tariflar Tovarlar tavsifi va kodlashtirilishining uyg'unlashtirilgan tizimi bazasida bir xillashtirilgan, bu esa tariflardan turli tillarda foydalanish va bir xil tovarlarga doir bojlar stavkalarini taqqoslashni yengillashtiradi.

¹⁴ Hamedov I.A., Alimov A.M. O'zbekiston Respublikasi tashki iktisodiy faoliyati asoslari. T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot jamg'armasi» nashriyoti, 2001, 298-bet.

Boj tarifida bojlar mamlakat iqtisodiy rivojlanishining darajasi, tovarga ishlov berish darajasi va boshqa omillar bilan belgilanadi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik past bo'lsa, boj stavkalari shunchalik yuqori bo'ladi, chunki ular yordamida yetarlicha rivojlanmagan tarmoqlar haddan tashqari kuchli chet el rakobatidan himoya qilinadi. Masalan, Avstriyada bojlar Shveytsariyadagidan deyarli uch baravar yuqori. Ayniqsa yuqori bojlar (50 foiz va undaya ortiq) rivojlanayotgan mamlakatlarda belgilanadi.

Tovarlarga ishlov berish darajasining oshishi bilan boj stavkalari ko'paymokda. Eng yuqori bojlar odatda sermehnat tayyor buyumlarga belgilanadi, zero ushbu tovarlar bozoridagi kuchli chet el raqobati korxonalarning yopilishi va mamlakatda ishsizlik darajasining oshishiga olib kelishi mumkin.

Bojlar deyarli barcha mamlakatlarda yuqori, o'rta, past bojlarga bo'linadi, shuningdek boj to'lamasdan olib kelish mavjud. O'zbekiston Respublikasida ko'proq eng ko'p qulaylik rejimidan foydalanadigan (hamkorlik shartlarida) mamlakatlar uchun qo'llaniladigan bojlarning o'rta stavkalari tadbiiq etilmokda.

Notarif cheklovlar - tariflarning istisno etganda tovar va xizmatlarning xalqaro oqimlari harakat yo'lidagi ko'pdan - ko'p cheklovlar (kvotalar, subsidiyalar, eksportni ixtiyoriy cheklash, demping, ekologik, I sanitariya va boshqa meyorlar) bo'lib, olib kirish yoki olib chiqishga ruhsat etilgan tovarlarning miqdori va tarkibini aniqlovchi davlat tomonidan o'rnatilgan to'g'ridan to'g'ri ma'muriy chora-tadbirlarni anglatadi¹⁵.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning tarifsiz chora-tadbirlari davlatlar o'rtasidagi erkin savdoni qiyinlashtiradigan yoki

- cheklaydigan, iqtisodiy, ma'muriy va texnik tusdagi (boj tarifidan tashqari) chora-tadbirlar majmuasidir. Ushbu majmuaga kvotalash;

- litsenziyalash; ikki tomonlama ahamiyatga ega tovarlar va texnologiyalar eksporti ustidan nazorat kiradi.

Miqdoriy cheklovlar bilan bir qatorda notarif cheklovlarning boshqa vositalari ham mavjud. Ular jumlasiga rasmiy boj va konsullik, ichki soliqlar, aksiz yigimlari, ma'lum sifat standartlari, qadoqlash meyorlari, markalash va shu kabi bir qancha chora-tadbirlarni kiritimiz mumkin. Barcha mamlakatlarda importni, xususan, uni taqiqlash, miqdorini limitlash, litsenziyalash, bojxona organlarining farmoyishlari, yetkazib beruvchilarga boshqa majburiy talablarni izhor etish yo'li bilan tartibga solishning turli ma'muriy vositalaridan foydalaniladi.

Chunonchi, savdoni to'liq taqiqlash bilan bir qatorda (u odatda BMT qaroriga ko'ra bo'ladi) ko'p mamlakatlar kishilar hayoti va salomatliga, hayvonot

¹⁵ Экономическая теория: Учебник. / - изд. и доп./ Под. общ. ред. акад. В.И. Видяпина, А.И. Добрышина, Г.П. Журавлевой, Л.С. Тарасевича. - М.: ИНФРА-М, 2006. 645с.

va o'simliklar dunyosini muhofaza qilish manfatarini ko'zlab, axloq va diniy qonun-qoidalaridan kelib chiqib muayyan tovarlarni olib kirishga qisman taqiqlar belgilaydi. Shartli taqiq ham qo'llaniladi: agar yetkazib beruvchi hokimiyat organlarining muayyan ko'rsatmalariga amal qilmasa, importga ruxsat berilmaydi. Doimo amal qiladigan taqiqlardan tashqari mavsumiy va vaqtincha choralar qo'llaniladi. Importni ochiqdan-ochiq taqiqlash bilan birga pardalangan taqiq ham qo'llaniladi, masalai, chet el kemalarining mamlakat ichki suvlariga kirishi taqiqlanadi.

«Kvotalash (keng qamrovli, yakka tartibdagi, tarifli, mavsumiy va hokazo)» shaklidagi importni an'anaviy miqdoriy cheklashlarga qo'shimcha sifatida ularning nisbatan yangi shakli - yanada qattiqroq taqiqlash choralarini qo'llash tahdidi bilan haqiqatda tiqishtiriladigan: yetkazib berishlarning o'zini o'zi «ixtiyoriy» cheklash keng tarqaldi. Bunday o'zini o'zi cheklash yetkazib berishlarni qisqartirish, ularning yillik o'sishini kamaytirish yoki narxlarni oshirish ko'rinishida tadbir qilinadi.

Litsenziyalash ham ko'p tur-xillarga ega, buning ustiga rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'pincha importga ruxsat importchining muayyan muqobil harakatlarida tezroq beriladi, masalan, u mahalliy mahsulotni sotib olish yoki mamlakatda tayyorlangan tovarlarning bir qismini tashqi bozorda sotish majburiyatini olganida.

Xavfsizlik qoidalarini alohida e'tiborga loyiq, chunki ular odatda majburiy qoidalar hisoblanadi va, bundan tashqari, iste'molchiga tovar nuqsonli ekani bilan zarar yetkazilishi keyinchalik yetkazib beruvchi uchun katta xarajatlarga sabab bo'lishi mumkin. Bu narsa avvalo avtomobil va mototsikllarga, zamonaviy xillari juda ko'p bo'lgan maishiy elektrotexnikaga, tibbiyot asboblari, dori-darmonlar, oziq-ovqat mahsulotlariga taalluqlidir.

Ko'pgina mamlakatlarda iste'molchilarning manfaatlarini muhofaza qiladigan va ularni buzganlik uchun qattiq jazo choralarini ko'zda tutadigan qonunlar qabul qilingan. Xususan, YEI mamlakatlarida barcha iste'mol tovarlarini yetkazib beruvchilar savdo tarmog'iga kishilar hayoti va salomatligiga tahdid tug'dirmaydigan (to'g'ri foydalanganda, boshqa tovarlarga va iste'molchilarning muayyan toifalari, masalan, bolalar uchun ehtimol bo'lgan ta'sirida) buyumlarnigina chiqarishlari shart.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni kvotalash va litsenziyalash tartibi O'zRning meyoriy-huquqiy hujjatlariga binoan belgilangan.

Mamlakatimizda eksport va import miqdoriy cheklovlarisiz amalga oshiriladi. Ushbu cheklovlar faqat favqulodda hollarda O'zR hukumati tomonidan: O'zR milliy xavfsizligini ta'minlash, O'zRning xalqaro majburiyatlarini bajarish; O'zR ichki tovar bozorini himoya qilish maqsadiga joriy etiladi.

II Bob. Viloyatda tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi va hozirgi holati

2.1. Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy tavsifi, tashqi iqtisodiy aloqalarning o'rnatilishi, rivojlanish bosqichlari va hozirgi holati.

Viloyat respublika iqtisodiyotining neft va gaz sanoati hamda qishloq xo'jaligi sohasida yetakchi hududlardan bir hisoblanadi. Respublikada yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning 7,3 foizi viloyat hissasiga to'g'ri keladi.

Viloyatda so'nggi yillarda yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'atlari o'rta hisobda 6,6 foizni tashqil qilib, 2008-2014 yillarda 1,4 marotabaga ortdi.

Tahlil qilinayotgan davr mobaynida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qariyb 1,25 marotaba, iste'mol tovarlari 1,8 marotaba, chakana savdo aylanmasi 2,9 marotaba, pullik xizmatlar esa 2,8 marotabaga ortdi.

Viloyat mahalliy budjetining daromadlari 2014 yilda 2008 yilga nisbatan 3,8 martaga, 2013 yilga nisbatan 116 foizga o'sdi. Xarajatlar 2014 yilda 2008 yilga nisbatan 3,8 martaga, 2013 yilga nisbatan 116 foizga oshdi. Viloyatning daromadlari o'z xarajatlarini to'liq qoplaydi.

Belgilangan daromadlar rejasini orttirib bajarilishi hisobiga, mahalliy budjetda 2014 yilda 11,3 mlrd so'm miqdorida qo'shimcha daromad manbalari shakllanib, ushbu mablag'lar hududdagi muhim ijtimoiy tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirildi.

Investitsiya sohasida viloyat iqtisodiyotiga 2008-2014 yillarda barcha manbalar hisobidan 18,1 trln so'mlik investitsiyalar jalb etilib, shundan 4,9 trln so'mi xorijiy investitsiyalar hisobidan yo'naltirildi.

Shu davr mobaynida o'zlashtirilgan kapital mablag'lar hajmida markazlashgan kapital mablag'lar ulushi 25,7 foizni, markazlashmagan kapital mablag'larning ulushi 74,3 foizni tashqil etdi.

O'tgan 7 yil mobaynida markazlashtirilmagan mablag'lar hajmi keskin ko'payib, korxonalar va chet el investitsiyasi, ayniqsa aholi mablag'lari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Korxonalar mablag'i 56 foizni, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyasi 18 foizni tashqil qilib, aholi mablag'i esa 23,5 foizini tashqil qilmoqda. Ya'ni ushbu yo'nalishlarning mablag'lari hajmi 2-3 martaga ko'paydi.

2008-2014 yillarda o'zlashtirilgan jami mablag'larning 14,3 trln so'mi yoki 79 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishga hamda ishlab chiqarish korxonalarining quvvatini oshirishga sarflandi. Shuningdek, ushbu davr ichida 3,6 trln so'mlik to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyasi jalb etilib, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishga yo'naltirildi.

Natijada iqtisodiyot tarmoqlarida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan 2014 yil yakunlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulotda

2.1.1-jadval

Qashqadaryo viloyatida 2008-2014 yillarda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

T/r	Tarmoqlar	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014 yil 2008 yilra nisbatan, %
1.	YAHM, mlrd.so'm	3818	5244,8	5862,9	6973,9	8704,9	8828,1	10209,2	141,8
	o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da	111,2	108,1	103,2	106,6	104,6	105,6	107,9	x
2.	Iste'mol narxlar indeksi (INI)								
	dekabr oyi o'tgan yil dekabr oyiga nisbatan, %	106,3	107,5	107,1	107,8	107,6	107,5	107,5	x
3.	Sanoat mahsulotlari xajmi, mlrd.so'm	3306,6	4461,6	4614,7	4621,3	5589,9	6263,7	6322,3	124,8
	o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da	118,9	115,1	96,8	104,1	98	102,9	106,7	x
4.	Xalq iste'moli mollari xajmi, mlrd.so'm	249,2	279,7	356	450,6	524,9	1009	1110,5	176,6
	o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da	117,4	107,1	111,2	117,4	108,2	110,4	105,8	x
5.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari xajmi, mlrd.so'm	1015,4	1194,1	1491,7	1826,3	2439,5	2618,4	3078,8	139,4
	o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da	107	104,5	106,9	103,6	106,2	106,8	106,2	x
6.	Asosiy kapitalga investitsiyalar xajmi, mlrd.so'm	1824,7	2193	1690,4	2107,9	2875,9	3498,8	3944,4	106,9
	o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da	174,1	110,6	66,9	109	118,8	105,7	105,6	x
7.	Qurilish ishlari xajmi, mlrd.so'm	398,7	507,6	699,2	791,5	997,9	1168,2	1619,8	2 m
	o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da	109,6	108,2	125,2	104,9	114,6	105,1	120,1	x

T/r	Tarmoqlar	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014 yil 2008 yilga nisbatan, %
8.	Chakana savdo aylanmasi xajmi, v mlrd.so'm	747,3	959	1325,2	1867,1	2567,6	3443,7	4394,3	2,9 m
	o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da	119,2	115,6	120,7	127,2	119,7	118,7	116,2	x
9.	Xizmatlar - jami, mlrd.so'm	930,7	1197,6	1498,5	1929,1	2521,1	3407,5	4525	2,6 m
	o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da	114,8	114,8	113	116,4	119,7	120,4	118,1	x
9a.	Pullik xizmat ko'rsatish, mlrd.so'm	224,6	280,9	378,8	524,6	731,5	1027,1	1286,8	2,8 m
	o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da	128,3	105,5	114,7	113,7	118,6	119,5	111,7	x
10.	Tashqi savdo aylanmasi, mln. AQSH dollari	1787,9	2461,7	504,6	580,7	750,8	765,5	637,2	35,6
	o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da	214,1	137,7	20,5	115,1	129,3	101,9	83,2	x
11.	Eksport, mln. AQSH dollari	1274,3	2068,7	355,8	462,3	343,1	335,3	323,5	25,4
	o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da	202,2	162,3	17,2	129,9	74,2	97,7	96,5	x
12.	Import, mln. AQSH dollari	513,6	393	148,8	118,4	407,7	430,2	313,7	61,1
	o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da	250,5	76,5	37,9	79,6	344,4	105,5	72,9	x
13.	Tashqi savdo aylanmasi saldosi (+, -)	760,7	1675,7	207	343,9	-64,6	-94,9	9,8	x

Manba: Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot Bosh boshqarmasi ma'lumotlari

sanoatning ulushi 33,7 foizni, qishloq xo'jaligining ulushi 19,4 foizni, qurilish ishlari 7,8 foizni, savdo va umumiy ovqatlanish 7,6 foizni, soliqlar 9,4 foizni, transport va aloqa 7,2 foizni, boshqa sohalar ulushi 15 foizni tashqil etdi.

Sanoat sohasida, Sanoat viloyat iqtisodiyotining asosiy tarmog'i hisoblanib, uning respublika sanoatidagi ulushi 8,4 foizni tashqil etadi.

Viloyatning G'uzor tumanidagi "SHo'rtangazkimyo" majmuasi, "SHo'rtan-neftgaz" unitar sho'ba korxonasi, Muborak tumanidagi "Muborakneftgaz" unitar sho'ba korxonasi, "Muborak gazni qayta ishlash zavodi", Dehqonobod tumanidagi "Kaliyli o'g'itlar zavodi", Nishon tumanidagi "Talimarjon" issiqlik elektr stansiyasi nafaqat respublikamizda, balki butun Markaziy Osiyoda ham eng yirik korxonalar sirasiga kiradi.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirish maqsadida 2008-2014 yillar mobaynida 2,6 trln so'mlik investitsiyalar kiritildi, jumladan 280 mln dollar xorijiy investitsiyalar hamda Taraqqiyot va tiklanish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 522,3 mlrd so'mlik mablag'lar o'zlashtirildi.

Mazkur investitsiyalar hisobiga shu jumladan 1969 ta yangi sanoat korxonalari ishga tushirildi va 627 ta sanoat korxonasida modernizatsiya ishlari amalga oshirildi. Natijada 23,9 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi.

2013-2016 yillarda Qashqadaryo viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturini amalga oshirilishi viloyatda sanoatni rivojlantirish uchun jiddiy turtki bo'ldi. Mazkur dastur doirasida 2 mlrd dollardan ziyod mablag' o'zlashtirish hisobiga 555 ta loyihalarni amalga oshirish belgilangan.

Bugungi kunda dastur doirasida viloyatda qiymati 909,2 mln dollarlik 421 ta loyihalar ishga tushirilib, 6988 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Viloyatdagi sanoat korxonalari tomonidan 2008 yilda 25 turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, o'tgan 7 yil davomida ishga tushirilgan korxonalar hisobiga 31 turdagi (jumladan, energiya tejovchi lampochka, ko'p funksiyali nazorat kassa mashinalari va taksometrlar, laminantlangan mebel xom-ashyosi, qorako'l teridan bosh kiyim va erkaklar ustki kiyimi, paypoq, poyafzal, lak bo'yoq mahsulotlari, kosmetik sovun, ko'mir briket, kungaboqar yog'i, masxar yog'i, meva-sabzavot mahsulotlarini quritish, qovurish va qadoqlash, kiriyeshki, shpatlyovka, pechenye mahsulotlari, quruq sut mahsulotlari, asalni qadoqlash, kir yuvish kukuni, suniy marmar tosh, mikrokalsit, chinni buyumlar, shisha mahsulotlari) yangi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib, mahsulot turi 56 taga yetkazildi.

Misol uchun, Qarshi shahridagi "Tashabbus original invest" mas'uliyati cheklangan jamiyatda trikotaj mahsulotlar,, "Aznur sof plast" mas'uliyati cheklangan jamiyatda sun'iy marmar toshlar, Kitob tumanidagi "Javohir Halimovich" xususiy korxonasida har-xil turdagi poyafzallar, "SAFIT KARV"

qo'shma korxonasida lak-bo'yoq mahsulotlari, "Go'zalsavdoservis" mas'uliyati cheklangan jamiyatda meva quritish, qovurish va qadoqlash, "Kitob teri muyna" xususiy firmasida terini qayta ishlash;

Qarshi tumanidagi "Santexyig'majihoz" xususiy korxonasida bolalar vannasi va oshxona jihozlari, "Nasaf metal" mas'uliyati cheklangan jamiyatda sport buyumlari va jihozlari, Koson tumanida "Alibobo orzusi" korxonasida quruq sut, "Bonu Kosmetks" mas'uliyati cheklangan jamiyatda kosmetik sovun, gel, balzam, suyuq sovun mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga quyildi.

Keyingi 4 yilda "O'zbekneftgaz" MXK tomonidan umumiy qiymati 2 mlrd dollardan oshiq bo'lgan 10 ta yangi quvvatlar ishga tushirilib, 880 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Mazkur obyektlarning faoliyat ko'rsatishi natijasida yiliga 37,6 mlrd. kub.m. gaz, 1696 ming tonna gaz kondensati qazib chiqarish hamda 565 ming tonna suyultirilgan gaz ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Muborak gazni qayta ishlash zavodida suyultirilgan gaz ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun propan-butan aralashmasini olish uskunasi o'rnatilishi hisobiga 258 ming tonna suyultirilgan gaz va 125 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, 2010 yilda Dehqonobod tumanida zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zida mujassam qilgan, Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan yirik Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodining I navbati ishga tushirildi. Korxonada 1321 ta yangi ish o'rinlari tashqil qilinib, ularda asosan mahalliy mutaxassislar mehnat qilib kelishmoqda.

Bugungi kunda korxona barqaror ishlab, nafaqat Qashqadaryo viloyati, balki butun kimyo sanoati va respublikamiz iqtisodiy salohiyatiga ulkan hissasini qo'shish bilan bir qatorda, fermer xo'jaliklarining kaliyli o'g'itlarga bo'lgan ehtiyojini to'liq ta'minlab qolmasdan, xorijiy davlatlarga ham O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotni yetkazib berib yurtimiz dong'ini taratib kelmoqda.

Korxonada istiqbolli loyihalar bo'yicha ham keng ko'lamdagi ishlar olib borilmoqda, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodini ishlab chiqarish quvvatini 20 ming tonnaga oshirish investitsiya loyihasi amalga oshirildi.

Loyihaning umumiy qiymati 2,8 mln dollar bo'lib, korxona mablag'lari hisobiga moliyalashtirildi. Qurilish-montaj ishlari yakunlangach korxonaning tog'-kon majmuasida silvinit xom-ashyo rudasini qazib chiqarish 770 ming tonnaga va qayta ishlash majmuasida kaliy xlorid mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha yillik umumiy quvvati 220 ming tonnaga yetkazildi hamda 123 ta yangi ish o'rinlari tashqil etildi.

Bundan tashqari, viloyatda to'qimachilik sanoati ham tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Agarda 2008 yilda viloyatda yirik to'qimachilik sanoati korxonalari soni 2 tani tashqil etgan bo'lsa, 2014 yilda ularning soni 7 taga yetdi.

2.1.2-jadval

Qashqadaryo viloyatining 2008-2014 yillarda YAXM tuzilmasi

foizda

T/r	Tarmoqlar	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 й	2013 й*	2014 й*
1	YAXM	100	100	100	100	100	100	100
2	Sanoat	42	48,8	42,1	36	36	37,4	33,7
3.	Qishloq xo'jaligi	18	15,3	17,2	17,8	18,2	19,8	19,4
4	Qurilish	9,3	8,5	8,2	8,4	8,9	6,5	7,8
5.	Transport va aloqa	7	3,9	5	5,9	6,3	7,5	7,2
6.	Savdo va umumiy ovqatlanish	3,5	3,8	4,8	5,8	5,8	6,4	7,6
7.	Boshqalar	13,6	12,9	15,5	16,5	16,6	14	15
8.	Sof soliqlar	6,6	6,8	7,2	9,6	8,2	8,4	9,4
9.	YAXMni Respublika YAIMdagi ulushi	9,8	10,6	9,4	8,9	8,9	7,4	7,3

Manba: Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot Bosh boshqarmasi ma'lumotlari

Misol uchun, yiliga 4800 tonna ip-kalava ishlab chiqaradigan "Oqsaroy tekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyat, yiliga 2000 tonna ip-kalava ishlab chiqaradigan "Bunyodkor" mas'uliyati cheklangan jamiyat, yiliga 450 tonna ip-kalava ishlab chiqaradigan "Yakkabog' xumo teks" korxonasi ishga tushirilib faoliyat ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha 7,7 ming tonna paxta tolasi qayta ishlanib, qayta ishlash darajasi 5,2 foizni tashqil etmoqda.

To'qimachilik sanoatida xom-ashyodan yarim tayyor mahsulotga, yarim tayyor mahsulotdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tilmoqda.

2008 yilda 650 tonna kalava-ip qayta ishlanib tayyor mahsulot holiga keltirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2014 yilga kelib 1520 tonnani tashqil etgan yoki 2008 yilga nisbatan 2,4 martaga oshgan. Natijada 2008-2014 yillar mobaynida ip-gazmol ishlab chiqarish 24,6 marotaba, tayyor trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish deyarli 20 barobar oshgan.

Shu bilan birgalikda, viloyatda to'qimachilik va yengil sanoat sohasini yanada rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlar mavjud, shu boisdan, bu soha rivojini yanada kengaytirish va raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarish va eksportga chiqarishni yo'lga qo'yish oldimizda turgan asosiy vazifa bo'lib qoladi.

Mahalliyashtirish Dasturi doirasida viloyatda 2008-2014 yillarda 119 ta loyihalar tomonidan 610,3 mlrd so'm miqdorda mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Ushbu loyihalar tomonidan 140,8 ming dollar miqdorida mahsulotlar eksporti amalga oshirildi. Misol uchun, Koson tumanidagi "BONU KOSMITIK" mas'uliyati cheklangan jamiyat tomonidan Ukrainaga parfyumeriya (shampun, balzam, suyuq sovun va krem) mahsulotlari, Chiroqchi tumanidagi "Chiroqchi kvars" xususiy korxonasi tomonidan Qozog'istonga dala shpati mahsulotlari eksporti amalga oshirildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijada 319,9 mln dollardan ortiq miqdorda erkin ayirboshlanadigan valyuta iqtisod qilib qolindi.

Xizmat ko'rsatish sohasida, Sir emaski, aholining daromadlari, turmush darajasi o'sib borishi bilan uning turli xizmat turlariga bo'lgan ehtiyoji ham oshib boradi. Mazkur ehtiyojni to'liq qondirish maqsadida viloyatda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida oxirgi yillarda ushbu soha yuqori sur'atlarda o'sib bormoqda.

2008-2014 yillarda xizmat ko'rsatish o'sish sur'atlari yiliga o'rtacha 117,6 foizni tashqil etdi. Xizmat sohasining yalpi hududiy mahsulot tarkibida xizmatlar ulushi 24,1 foizdan 29,7 foizgacha ko'paydi (respublika bo'yicha 53 foizdan 54 foizga). Yuqori texnologik xizmatlar qatorida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari eng jadal rivojlanmoqda, bunday xizmatlar oxirgi besh yilda 4,7 baravar

(respublika bo'yicha 3,3 baravar), hisobot yilida esa – 27,5 foizga o'sdi (respublika bo'yicha 24,5 foiz).

2008-2014 yillar davomida 7000 taga yaqin xizmat ko'rsatish va servis obyektlari ishga tushirildi. Shundan 2950 ta obyektni savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari tashqil etgan bo'lsa, 4030 tasi boshqa turdagi xizmat ko'rsatish korxonalariga to'g'ri keldi.

Hozirgi kunda, viloyatda 31 mingdan ortiq xizmat ko'rsatish shoxobchalari mavjud bo'lib, ulardan 11,5 mingtasi turg'un savdo majmualari, 1,5 mingtasi umumiy ovqatlanish, 869 tasi moliyaviy xizmat ko'rsatish shoxobchasi, 16 mintadan ortiq maishiy va boshqa turdagi xizmat ko'rsatish shoxobchalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Aholiga qulaylik yaratish maqsadida 50 taga yaqin "Guzar tipidagi savdo va xizmat ko'rsatish" majmualari (tikuvchilik, go'zallik saloni, kompyuter xizmati, teleradio apparaturalarni ta'mirlash, paynet xizmati, savdo do'koni, kafe bar, sug'urta xizmatlari, poyafzal ta'mirlash, avtomobillarga xizmat ko'rsatish va boshqalar) tashqil etilib, 1000 dan ortiq kishining bandligi ta'minlandi.

Misol uchun, Qamashi tumani markazida 1,2 mlrd so'mga (25 ta ish o'rni) xizmat ko'rsatish majmuasi, Qarshi tumanidagi Yertepa qishloq fuqorolar yig'inida (Mirmiron qishlog'i) 1,2 mlrd so'm mablag' hisobiga xizmat ko'rsatish majmuasi (25 ta ish o'rni), Shahrisabz tumanidagi Chorshanbe qishlog'ida 450 mln so'mga (10 ta ish o'rni) xizmat ko'rsatish majmuasi, Qarshi shahri Mustaqillik shox ko'chasida 531 mln so'mga (15 ta ish o'rni) xizmat ko'rsatish majmuasi qurilib foydalanishga topshirildi.

Viloyatda keyingi 7 yilda yangi, zamonaviy xizmat turlarini o'z ichiga olgan kompyuterli programmashtirish xizmati, aloqa va axborotlashtirish xizmati, moliya xizmati, turistik xizmatlar kabi xizmat sohalarining tez sur'atlarda o'sib borayotganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, aloqa va axborotlashtirish xizmati 12,5 martaga, kompyuterli programmashtirish xizmatlari 4,0 martaga, moliya xizmati 4,3 martaga, turistik xizmatlar 8,7 martaga, savdo va maishiy xizmatlar 6,5 martaga, texnologik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xizmatlari 2,5 martaga oshdi.

Viloyatda Internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 2007 yilda 202 ming tani tashqil etgan bo'lsa, 2015 yil 1 yanvar holatida kelib foydalanuvchilar soni 440 ming tadan ziyodni tashqil etadi. Internet tarmog'iga yuqori tezlikda ulovchi uskunalarning abonent nuqtalari soni yil boshiga nisbatan 6827 taga oshirilib, jami 26304 tani (135,1%) tashqil qilgan.

Viloyatda jami 156 ta axborot-resurs markazlari bo'lib, shundan Oliy ta'lim muassalarida 4 ta, viloyat xalq ta'limi tizimida 16 ta, akademik litseylarda 7 ta, kasb-hunar kollejlarida 129 ta tashqil etadi.

“ZiyoNet” ta’lim tarmog‘iga 1285 ta ta’lim muassalaridan 763 tasiga (59,4 %) xususan, maktablarning 59,3%, kollejlarning 63,5 %, litseylarning 71,4 % mazkur tarmoqqa ulangan, viloyat kutubxonasi ham tarmog‘iga ulangan.

Viloyat aholisiga zamonoviy telekommunikatsiya vositalari imkoniyatlaridan keng foydalanish va sifatli televizion dasturlarni namoyish etish, raqamli televedeniya rivojlantirish Dasturiga muvofiq 2011 yilni avgust oyida Dehqonobod tumani “Odamtosh” RTS-10 (radio televizion stansiya)da 2 kVtli raqamli televedineyasi uzatgich o‘rnatilib foydalanishga topshirilgan.

Natijada, viloyat hududini qariyb 70,3% qamrab olindi va 12 xil teledasturlarni namoyish etilishi ta’minlandi. Shundan Dehqonobod, G‘uzor, Kasbi, Nishon, Mirishkor va Qarshi tumanlari raqamli televideniya signallari bilan to‘liq qamrab olingan. 2013 yilning avgust oyidan boshlab viloyat televideniyasining teledasturlarini raqamli televideniya uzatgichlar orqali viloyatda tarqatilishi yo‘lga qo‘yilgan. 2017 yilga borib viloyat hududi raqamli televideniya signallari bilan to‘liq qamrab olinadi.

Hozirgi kunda viloyat bo‘yicha ishlatilayotgan yo‘nalishlarda har kuni 4155 ta avtotransport vositalari yo‘lovchi tashish bilan shug‘ullanmoqda. Shundan 283 tasi avtobus, 3872 tasi yunalishli taksi yunalishlarida xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

2007 yil 1 yanvar holatida yo‘lovchi tashish yo‘nalishlari 223 ta tashqil etgan bo‘lsa, 2015 yilning 1 yanvar holatida 338 taga yetkazildi yoki 115 taga ko‘paydi.

Viloyatdagi tashkilotlar va kichik korxonalar tomonidan keyingi 2007-2014 yillarni ichida 389 tadan ortiq “Isuzu” rusumli yangi avtobuslar sotib olinib, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.

Eksport va qo‘shma korxona sohasida, Viloyatda 2008-2014 yillar mobaynida xorijiy investorlar ishtirokida 36 ta qo‘shma korxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ushbu qo‘shma korxonalarning 10 tasi qurilish materiallari, 4 tasi yengil sanoat, 8 tasi qishloq xo‘jaligi, elektrotexnika sanoati, neftgaz, charm poyabzal tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish sohalarida 1 tadan, hamda 9 tasi xizmat ko‘rsatish turlarini kengaytirish bo‘yicha tashqil etildi.

Natijada viloyatdagi qo‘shma korxonalar soni 54 taga yetdi. Mazkur korxonalarning viloyatda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlaridagi ulushi 2014 yil yakuni bilan 10 foizni tashqil etdi.

2008-2014 yillar mobaynida viloyatda 5 mlrd dollardan ziyod mahsulot va xizmatlar eksporti amalga oshirildi. Shu davrda hududiy eksport hajmi 3,2 barobarga oshdi.

Bunga eksport qiluvchi korxonalar soni ko‘payib, eksport qilinayotgan mahsulotlar turlari hamda eksport geografiyasini kengaytirish hisobiga erishildi.

2.1.3-jadval

Qashqadaryo viloyatida 2007-2014 yillarda faoliyat ko'rsatgan qo'shma korxonalar to'g'risida

t/r	Shahar (tuman)lar nomi	2007 yilda		2008 yilda		2009 yilda		2010 yilda		2011 yilda		2012 yilda		2013 yilda		2014 yilda*	
		soni (01.01.2008 y.-holatiga)	ishlab chiqarilgan mahsulot, mln.so'm	soni (01.01.2009 y.-holatiga)	ishlab chiqarilgan mahsulot, mln.so'm	soni (01.01.2010 y.-holatiga)	ishlab chiqarilgan mahsulot, mln.so'm	soni (01.01.2011 y.-holatiga)	ishlab chiqarilgan mahsulot, mln.so'm	soni (01.01.2012 y.-holatiga)	ishlab chiqarilgan mahsulot, mln.so'm	soni (01.01.2013 y.-holatiga)	ishlab chiqarilgan mahsulot, mln.so'm	soni (01.01.2014 y.-holatiga)	ishlab chiqarilgan mahsulot, mln.so'm	soni	ishlab chiqarilgan mahsulot, mln.so'm
1	G'uzor	4	160033,7	2	609901	3	972867,8	3	737673,6	1	416712,9	1	507245,1	2	427124,1	2	231739,9
2	Qamashi	1		1		1		1		1		1		1		1	
3	Qarshi	4	541,8	5	591,5	6	602,7	5	1432,4	5	3267,4	5	12240,5	6	17856,7	5	20947,3
4	Koson	1		1		1		1		1		1		1		1	
5	Kitob	4	146,3	6	1362,7	6	816,2	4	254,6	5	713,4	6	1376,5	5	2195,2	3	2193,6
6	Mirishkor							1		1		1		1			
7	Muborak	1	209532,7	1	466343,5	1	775227,4	1	824776,2	1	591918,2	1	1109558,5	2	816264,1	2	845426,2
8	Nishon													1		1	
9	Kasbi	2		1		1	33,3	1	24,1	1	58,7			2		1	
10	Chiroqchi	2		3		2		2		2		1		1		1	
11	Shahrisabz	9	364,1	7	2424,9	4		2		4		4		6		5	
12	Yakkabog'	2	3243,7	2		2	3118,8	2	3998,3	2	12289,2	2	2409,5	1	2866,6	2	377,4
13	Qarshi sh.	15	8457,2	21	8903,9	22	91918,1	22	93588	21	108308,5	21	129211,3	22	121698,5	21	114319
	Jami	45	382319,5	50	1089528	49	1844584	45	1661747	45	1133268	44	1762041	51	1388005	45	1215003

*-2014 yil qo'shma korxonalar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi kutilish ma'lumoti

Manba: Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot Bosh boshqarmasi ma'lumotlari

Misol uchun, o'tgan yilning o'zida hududiy korxonalar tomonidan 38,5 mln dollar miqdorida eksport amalga oshirildi va ushbu jarayonda hududiy tasarrufdagi eksportyor korxonalar tomonidan eksport amalga oshirilayotgan davlatlar qatoriga Latviya, Janubiy Koreya va Hindiston qo'shildi, kompyuter ehtiyot qismlari, polietilen buyumlar, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish uchun xom-ashyo, poliz mahsulotlari kabi yangi mahsulot turlari eksporti yo'lga qo'yilgan.

Koson tumanidagi "Oltin voha agro invest" mas'uliyati cheklangan jamiyat va "Ne'mat bobo" ko'p tarmoqli korxonasi tomonidan 375 tonna qovun va tarvuz, Kitob tumanidagi "Viget impeks" fermer xo'jaligi tomonidan 700 tonna uzum mahsulotlarini Latviya, Rossiya davlatlariga eksporti amalga oshirilgan.

Kichik biznes sohasida, Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha oxirgi yillarda izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan "yagona darcha" tamoyilini joriy etish, kichik biznes subyektlarining statistika va soliq hisobotlarini taqdim etish mexanizmini soddalashtirish, xususiy tadbirkorlar uchun xom ashyo resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini ancha kengaytirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada yalpi hududiy mahsulotni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000 yildan buyon o'tgan davrda 25,8 foizdan 51,5 foizgacha (respublika bo'yicha 31 foizdan 56 foizga), sanoat mahsuloti ishlab chiqarishda esa – 6,8 foizdan 16,9 foizgacha o'sdi (respublika bo'yicha 12,9 foizdan 31,1 foizga), tadbirkorlikda band aholi ulushi 73,2 foizdan 77,9 foizga o'sishiga erishildi.

2008 yilda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 9982 tani tashqil etgan bo'lsa, 2014 yil yakuni bilan 15808 tani tashqil etgan holda 5826 taga ko'payishiga muhim omil bo'ldi.

Kichik korxonalar tomonidan 2008 yilda 339,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2014 yilga kelib 1,1 trln so'mni tashqil etdi. Shuningdek, kichik korxonalar tomonidan keyingi 7 yilda qurilish ishlari hajmi 7,4 martaga, chakana savdo aylanmasi 5,3 martaga, aholiga pullik xizmat ko'rsatish 4,1 martaga oshgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan sungi 7 yil mobaynida 1 trln 712 mlrd so'mlik kredit mablag'lari ajratib berildi. Joriy yilda bu ko'rsatkich 500 mlrd so'mni tashqil etib, oldingi yilga nisbatan qariyb 1,3 martaga ko'paygan.

Hukumat qarorlari bilan tasdiqlangan xususiylashtirish davlat dasturlariga asosan oxirgi 7 yil ichida viloyatdan jami 32 ta bo'sh turgan va faoliyat yuritmayotgan korxona, obyektlar va davlat aktivlari investitsiya majburiyati evaziga "nol" xarid qiymatida sotilgan.

Shartnomaga muvofiq investorlar tomonidan ushbu obyektlarga jami 11,2 mlrd so‘mlik va 3,7 mln dollar miqdorida investitsiya kiritilishi va faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi hisobiga 287 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Bugungi kunda Hukumat qarorlari bilan investitsiya majburiyati evaziga “nol” xarid qiymatida sotish bo‘yicha 6 ta obyekt savdolarga turibdi.

Qishloq xo‘jalik sohasida, Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlar natijasida viloyatdagi 202 ta shirkat xo‘jaliklari tugatilib, ular negizida 9343 ta fermer xo‘jaliklari tashqil etildi.

Shundan 7237 tasi (77,5 foizi) paxta va g‘allachilik, 1196 tasi (12,8 foizi) bog‘dorchilik va uzumchilik, 236 tasi (2,5 foizi) sabzavotchilik va polizchilik, 489 tasi (5,2 foizi) chorvachilik hamda 185 tasi (2 foizi) boshqa sohalar bilan shug‘ullanadi.

Hozirgi vaqtda fermer xo‘jaliklari tomonidan paxta xom-ashyosining 99,6 foizi, don mahsulotlarining 84 foizi yetishtirilmoqda. Bu rentabellik darajasini ta‘minlashga omil bo‘lmoqda.

2013 yilda g‘alla va paxta yetishtirishdan 171,6 mlrd so‘m foyda olingan bo‘lsa, 2014 yilda 215,6 mlrd so‘m foyda olingan. Joriy yilda rentabellik darajasi g‘allachilikda 32 foiz, paxtachilikda 25,6 foiz tashqil etgan.

Viloyatda 2014 yilda 1889 ta ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari tashqil etilib, ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun jami 60,6 mlrd so‘m mablag‘ sarflandi hamda 7439 nafar yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Sungi yillarda fermer xo‘jaliklarida ekin strukturasi ham yaxshilanib bormoqda. Viloyatda 3,6 ming gektar paxta maydonlari qisqartirilib, meva-sabzavot, kartoshka va poliz ekinlari maydonlari ko‘payib bormoqda. Yerdan foydalanishda keng ko‘lamli agrotexnik tadbirlar o‘tkazilishi va melioratsiya ishlarini yaxshilanishi natijasida paxta hamda boshqa texnik ekinlar hosildorligi sezilarli darajada oshmoqda.

Xususan, 2009 yilda 400,1 ming tonna paxta yetishtirilib, hosildorlik 25 sentnerni tashqil etgan bo‘lsa, 2014 yilga kelib 421,5 ming tonna (21,4 ming tonna ko‘p) va hosildorlik 26,3 sentnerni (1,3 sentnerga ko‘p) tashqil etdi. 2014 yilda 5848 ta paxtachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining 1010 tasi 30,1 dan 35 sentnergacha, 168 tasi 35,1 dan 40 sentnergacha, 310 tasi 40,1 dan 45 sentnergacha va 39 tasi 45 sentnerdan yuqori hosildorlikka erishdi.

Misol uchun, Koson tumanidagi Shodmonov Xolli bobo fermer xo‘jaligi 87,5 gektar paxta maydonning har gektaridan 46,7 sentnerdan (shartnoma rejasini 152 foizga uddalagan, yalpi hosil 409 tonna);

Mirishkor tumanidagi Kamalak fermer xujaligi 50,7 gektar maydondan 64,3 sentnerdan (shartnoma rejasini 247 foizga uddalagan, yalpi hosil 326 tonna);

Kasbi tumanidagi Sayfullo bobo Ruziyev fermer xo'jaligi 48,7 gektar maydondan 47,1 sentnerdan (shartnoma rejasini 142 foizga yalpi hosil 230 tonna);

Nishon tumanidagi "Turdiyev Rahmiddin" fermer xo'jaligi 90 gektar maydondan 44,8 sentnerdan (shartnoma rejasini 144,3 foizga uddalagan, yalpi hosil 403 tonna) hosil olishga erishgan, bunday fermer xo'jaliklarini ko'plab misol keltirish mumkin.

2008 yilda 4,7 ming gektar kartoshka, 11,8 ming gektar sabzavot, 4,6 ming gektar poliz, 9,1 ming gektar meva va 6,3 ming gektar uzum maydonlaridan hosil olingan bo'lsa, 2014 yilga kelib kartoshka 7,4 gektar (2008 yilga nisbatan 2,7 ming gektar ko'p), sabzavot 16,1 ming gektar (4,3 ming gektar ko'p), poliz 6,7 ming gektar (2,1 ming gektar ko'p), meva 13,4 ming gektar (4,3 ming gektar ko'p) va uzum 8,3 ming gektar (2 ming gektar ko'p) maydonda dehqonchilik qilingan.

Ushbu yillar davomida meva-sabzavotchilikda qo'llanilgan agrotexnik tadbirlar hisobiga hosildorlik oshishiga erishilgan, jumladan kartoshka hosildorligi 44 sentnerga, sabzavot 83,5 sentnerga, poliz 59,5 sentnerga, meva 23,5 sentnerga va uzum 22,2 sentnerga ko'paygan.

Natijada bugungi kunda viloyat aholisining meva-sabzavot mahsulotlariga bo'lgan yillik ehtiyoji viloyatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hisobidan to'liq ta'minlanmoqda.

Viloyat bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash uchun 2008 yilda 35,8 ming tonnalik 156 ta sig'imlar mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda 67,03 ming tonnalik 427 ta sig'imlarga mahsulotlar qo'yish imkoniyati mavjud.

Viloyatning joriy yildagi iqtisodiy ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari.

2014 yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi oldingi yilga nisbatan 107,9 foizga, sanoat mahsulotlari hajmi 106,7 foizga, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish 105,8 foizga, qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti 106,2 foizga, pudrat ishlari 120,1 foizga, chakana savdo aylanmasi 116,2 foizga, pulli xizmatlar 111,7 foizga, jami xizmatlar 118,1 foizga oshgan. Tashqi savdo operatsiyalarida eksport hajmi 323,5 mln dollarini tashqil etmoqda.

2014 yilda bilan aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot 3,6 mln so'mni, sanoat mahsulotlari 2,2 mln so'mni, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish 380 ming so'mni, jami ko'rsatilgan xizmatlar 1,5 mln so'mni, pullik xizmat ko'rsatish 439,5 ming so'mni, chakana tovar aylanmasi 1,5 mln so'mni tashqil etdi.

Barcha manbalar hisobidan 3,9 trln so'mlik kapital mablag'lar o'zlashtirildi.

2014 yilda 281 ta sanoat korxonasi ishga tushirilib, ularning faoliyatini tashqil etish uchun 61,8 mlrd so'm investitsiyalar jalb etildi.

2014-2016 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturiga asosan 7 ta loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ushbu loyihalar tomonidan 2014 yilda 10 mlrd so‘m miqdorida mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki belgilangan prognoz (1,7 mln so‘m) ko‘rsatkich 6 marta ko‘pga bajarildi.

Misol uchun, Qarshi tumanidagi “Santexyig‘majihoz” mas’uliyati cheklangan jamiyatning polimer-marmar vannalar ishlab chiqarish loyihasi bo‘yicha 1900 dona 475,8 mln so‘mlik, Qarshi shahridagi “NASAF TOZA SIFAT” mas’uliyati cheklangan jamiyatning sintetik yuvish moslamalari loyihasi bo‘yicha 128 tonna 397 mln so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

2014 yilda mahalliy lashtirish loyihalari tomonidan 41,2 mln dollar miqdorida erkin ayirboshlanadigan valyuta iqtisod qilib qolindi hamda 24,3 mln dollar miqdorida mahsulotlar eksporti amalga oshirildi.

Viloyatda xizmatlar sohasi va servisni rivojlantirish dasturida belgilangan ko‘rsatkichlarni amalga oshirilishi natijasida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 4,5 trln so‘mga yetdi.

Jami xizmatlarning qishloq joylardagi ulushi 1,5 trln so‘mni (32,1 foiz) tashqil etdi.

2014 yilda 1147 ta xizmat ko‘rsatish va servis shoxobchalari tashqil etildi va ularning 544 tasi qishloq joylarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xususan, 315 tasi chakana savdo va umumiy ovqatlanish, 52 ta moliya xizmatlari, 124 ta tikuvchilik, 123 ta sartaroshxona va go‘zallik salonlari, 29 ta suratxona, 55 ta poyafzal ta‘mirlash, 17 ta maishiy texnikalarni ta‘mirlash, 63 ta avtomobil va boshqa texnikalarni ta‘mirlash ustaxonalari, 7 ta ta‘lim va 10 ta sog‘liqni saqlash xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlar tashqil etildi.

Shuningdek, viloyatda 36 ta sun‘iy qoplamali stadionlar foydalanishga topshirildi. (Qarshi shahrida 21 ta, Shaxrisabz tumanida 7 ta, Muborak, Koson, G‘uzor tumanida 2 tadan, Qarshi, Nishon tumanlarida 1 tadan).

Yaratilgan imkoniyat va imtiyozlardan foydalangan holda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2014 yilda kichik biznesning 1578 ta yangi subyektlarini tashqil etishga ko‘maklashdi hamda ularning jami soni 17492 taga yetdi. Ularning 15808 tasi yoki 90,4 foizi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 1,1 trln so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi, 551 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi.

Tijorat banklari tomonidan 10535 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 500 mlrd so‘m kredit mablag‘lari ajratildi.

Natijada, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoat mahsulot-laridagi ulushi 2013 yildagi 10,1 foizdan 16,9 foizga (6,8 bandga), qurilish ishlaridagi ulushi 73,9 foizdan 74,9 foiz (1,0 bandga) o‘shishga erishildi.

2014 yil viloyat qishloq xo‘jaligi uchun ijobiy natijalar yili bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida viloyatda joriy yilda 1035,4 ming tonna g‘alla, 421,5 ming tonnadan ortiq paxta yoki 2013 yilga nisbatan 27,8 ming tonna ko‘p g‘alla hosili yetishtirildi.

Hosildorlik g‘allachilikda suvli maydonlarda 54,4 sentnerni, paxtachilikda 26,3 sentnerni tashqil etib, 2013 yilga nisbatan mos ravishda 2,4 sentner va 0,7 sentnerga ortdi. 2013 yilda g‘alla va paxta yetishtirishdan 171,6 mlrd so‘m foyda olingan bo‘lsa, 2014 yilda 215,6 mlrd so‘m foyda olinmoqda.

Bundan tashqari, 2014 yilda 110,7 ming tonna meva, 467,3 ming tonna sabzavot, 150,2 ming tonna kartoshka, 130,6 ming tonna poliz mahsulotlari ishlab chiqarildi, ushbu mahsulotlarning yetishtirish ko‘rsatkichi o‘tgan yilga nisbatan 10-15 foizga ko‘paydi.

2.2. Hududda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishning asosiy yunalishlari

Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi hukumati va uning ta’sir doirasidagi mas’uliyatli organlar xalqaro darajada faoliyat yuritib kelmokdalar. Ular tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshiradilar:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish dasturini ishlab chikish va uni konun bilan belgilab kuyish;
2. Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini kredit Bilan ta’minlash;
3. Eksport kreditlarini sug’urtalash va kafolatlash tizimi funksiyalari bilan ta’minlash;
4. Savdo ko‘rgazmalari va yarmarkalari, maxsus yig’inlar va anjumanlarni tashkil etish hamda ularda ishtirok etish;
5. Tashqi iqtisodiy faoliyatda xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, reklama kompaniyalarini joriy etish va tovarlar va xizmatlar eksportini rivojlantirishga xizmat kompaniyalarni joriy qilish.

Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini ishlarini rag‘batlantirib borish ham muhim rivojlantiruvchi omillardan xisoblanadi. Undan tashqari xalqaro savdoda tashqi iqtisodiy faoliyatni axborot bilan ta’minlanganligi xam muhim o‘rin tutadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat axborot bilan qanchalik tez ta’minlansa, har bir davlat shunchalik tez muvaffaqiyatga erishadi. Demak, tashqi savdoni rivojlantirishning muhim bir yo‘nalishlaridan biri, bu axborot bilan ta’minlashdir. Tashqi savdo axboroti sifatida quyidagilarni izoxlashimiz mumkin:

- tashqi savdoni rivojlantirishni hududiy va viloyatlararo dasturlari to‘g‘risida;

- o‘zbek va xorijiy shaxslarni olgan kvota va litsenziyalari to‘g‘risida;
- bozorlarda faoliyat ko‘rsatayotgan, tashqi savdo bilan shug‘ullanayotgan maxalliy va xorijiy shaxslar to‘g‘risida;
- o‘zbek va xorijiy tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha qonunlar to‘g‘risida;
- O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi vakolatxonalari to‘g‘risida;
- tashqi savdo faoliyati doirasida sug‘urtalash va kreditlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi, eksport va import munosabatlarida ishtirok etuvchi davlatning maxsus banklari va boshqa tashkilotlari to‘g‘risida;
- O‘zbekiston Respublikasi bojxona statistikasi to‘g‘risida.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni sxematik tarzda rivojlantirish va rag'batlantirishni quyidagi chizmada ko'rishimiz mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish va rag'batlantirish

Tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish

Tashqi iqtisodiy faoliyatini axborot bilan ta'minlash

Tashqi iqtisodiy faoliyatini rag'batlantiruvchi tadbirlar

Tashqi iqtisodiy faoliyatini sug'urtalash

Tashqi iqtisodiy faoliyati statistikasini yuritish

Tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantiruvchi idora va tashkilotlar

O'zbekistondagi xorijiy yuridik shaxmlar vakolatxonalar

2.2.1-chizma. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va rag‘batlantirish tizimi

Tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish uchun, har yili davlat dasturlari ishlab chiqiladi. Bular quyidagilardir:

➔ Asosiy tovar guruxlari bo'yicha xorijiy bozorlardagi konyunklatura to'g'risida.

➔ Standartlash va sertifikatlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xukukiy-normativ xujjatlari.

➔ Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha qoidabuzarliklar to'g'risida.

➔ Respublika hududiga olib kiriladigan va olib chiqilishi taqiqlangan buyumlar ro'yxati va ular to'g'risida.

➔ Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha va boshqa tashqi savdoga oid boshqa ma'lumotlar.

Zamonaviy jaxon xo'jaligining o'ziga xos xususiyati xo'jalik faoliyatining internatsionallashuvi bo'ldi. Baynalminallashuv deganda, davlatlarning milliy iqtisodiyotini, ishlab chiqarishda o'zaro bog'likligi, xalqaro tovar aylanmasi, kapital va ishchi kuchi harakati, bir-biriga o'zaro bog'lik holda ta'sir ko'rsatuvchi

jarayonlarni, shuningdek, narxlarni, foiz stavkalari birxillashuvi bilan va boshqa bir qancha omillar bilan tasvirlaymiz.

Baynalminallashuv rivojini xalqaro ishlab chiqarishda, xom ashyoni ayirboshlash, maxsulotlarga bo'lgan talabni ta'minlaydi. Hozirgi sharoitdagi jarayonlar iqtisodiyotning globallashuv jarayonlari deb ataladi. Zamonaviy globallashuv jarayonlari deyishimizning sababi, Sobik Ittifoqning parchalanishi va undan so'ng G'arbiy-Sharqiy Yevropa va Osiyo mamlakatlarining jaxon iqtisodiyotiga kirib kelishi bilan bog'likdir.

Baynalminallashuv va globallashuv jarayonlariga asosiy xizmat qiluvchi va rivojlantiruvchi tendensiya mavjud bo'lib, bu tendensiya ikki xildir:¹⁶

birinchisi, AQSH ning jaxon iqtisodiyotiga tutgan o'rni, har tomonlama yuksakligi, moliya bozorlaridagi tartib, kinobiznes va ta'limning rivojlanishiga bo'lgan bosqichdagi jarayonlar jaxon iqtisodiyotiga ta'sir qilgan bo'lsa;

ikkinchisi, yangi iqtisodiy markazlarning shakllanishi bo'ldi. Yevropa va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, shuningdek, Xitoy, Yaponiya, Lotin Amerikasi davlatlari iqtisodiy-siyosiy munosabatlari AQSH iqtisodiyotiga qarama-qarshi tarzda rivojlandi. Bu esa o'zaro muvozanatni vujudga keltirdi.

Ishlab chiqarishning baynalminallashuvi mamlakatlardagi rivojlangan, bir kator ishlab chikaruvchi korxonalar urtasida yuz berdi.

Ishlab chiqarishni baynalminallashuvi – xalqaro mexnat taqsimotini o'zida aks ettiradigan obyektiv chuqurlashgan jarayonlardir. Zamonaviy munosabatlarda ishlab chiqarishning baynalminallashuviga turli omillar ta'sir etgan bo'lsada, ilmiy texnika inqilobi ayniqsa, muxim rol o'ynaydi.

¹⁶ Ломакин В.К. Мировая экономика. Учебник.-М.: ЮНИТИ, 2004, 75-бет.

2.2.1-jadval

Qashqadaryo viloyatining 2014 yil yakuni bo'yicha tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomlari	O'lchov birligi	2013 y. yakuni, haqiqatda	2014 yil yakuni		2013 y. yakuniga nisbatan %da	2015 yil 1-chorak yakunida kutiladi	
			prognoz	haqiqatda		prognoz	2014 yil 1-chorakka nisb.o'sish sur'ati, %
2	3	4	5	6	7	8	9
Tashqi savdo aylanmasi - jami	ming doll.	↑ 713378,2	741070,0	↓ 582356,4	81,6	150803,2	84,5
Eksport	- " -	↑ 298259,1	312758,3	↓ 284483,1	95,4	49541,9	65,8
Import	- " -	↑ 415119,1	428311,7	↓ 297873,3	71,8	101261,3	98,1
Qoldiq	- " -	↓ -116860,0	-115553,4	↑ -13390,2	x	-51719,4	184,9
Eksport tarkibi	ming doll.	↑ 298259,1	312758,3	↓ 284483,1	95,4	49541,9	65,8
- paxta tolasi	ming doll.	↑ 136301,9	163210,3	↓ 134223,4	98,5	26995,1	52,0
- kimyo sanoati mahsulotlari	- " -	↓ 54994,9	59679,0	↑ 55937,4	101,7	5264,7	80,3
- qora va rangli metallar	- " -						
- mashina va uskunalar	- " -	↓ 1,9	5,1	↑ 38,3	2015,8	8,5	102,4
- oziq-ovqat mahsulotlari	- " -	↓ 3370,2	3613,3	↑ 13893,0	412,2	3267,9	104,3
- energiya resurslari	- " -	↑ 55198,2	61425,7	↓ 35878,6	65,0	8352,5	101,5
- xizmatlar	- " -	↑ 34855,7	10714,9	↓ 33434,6	95,9	2014,2	102,4
- boshqalar	- " -	↑ 13536,3	14110,0	↓ 11077,8	81,8	3639,0	105,0
Import tarkibi	ming doll.	↑ 415119,1	428311,7	↓ 297873,3	71,8	101261,3	98,1
- oziq-ovqat mahsulotlari	ming doll.	↑ 6487,1	7078,1	↓ 1627,2	25,1	638,7	101,6
- ximiya sanoati mahsulotlari	- " -	↓ 25938,9	27567,5	↑ 35959,9	138,6	7437,0	103,3
- qora va rangli metallar	- " -	↓ 4064,4	4273,5	↑ 6549,7	161,1	565,4	102,3
- mashina va uskunalar	- " -	↑ 362807,6	376966,4	↓ 232577,3	64,1	92115,3	100,3
- energiya resurslari	- " -	↑ 614,2	618,6	↓ 358,1	58,3	142,2	102,0
- xizmatlar	- " -	↓ 4906,6	709,8	↑ 5604,3	114,2	289,1	100,6
- boshqalar	- " -	↓ 10300,3	11097,8	↑ 15196,8	147,5	73,6	2,8

davomi

Ko'rsatkichlar nomlari	O'lchov birligi	2013 y. yakuni, haqiqatda	2014 yil yakuni		2013 y. yakuniga nisbatan %da	2015 yil 1-chorak yakunida kutiladi	
			prognoz	haqiqatda		prognoz	2014 yil 1-chorakka nisb.o'sish sur'ati, %
2	3	4	5	6	7	8	9
Uzoq xorij va Boltiqbo'yi davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalar							
Jami:	ming doll.	 456984,8	462157,6	 357123,2	78,1	116607,2	101,6
Eksport	- " -	 169568,9	171072,2	 181427,8	107,0	42296,7	103,5
Import	- " -	 287415,9	291085,4	 175695,4	61,1	74310,5	100,5
Qoldiq	- " -	 -117847,0	-120013,2	 5732,4	-4,9	-32013,8	96,8
Eksport tarkibi							
- paxta tolasi	ming doll.	 63436,0	81784,8	 106925,1	168,6	5,2	
- kimyo sanoati mahsulotlari	- " -	 15213,7	16425,8	 15655,6	102,9	12,3	0,9
- qora va rangli metallar	- " -					5,5	
- mashina va uskunalar	- " -			38,3		8,5	102,4
- oziq-ovqat mahsulotlari	- " -	 842,2	958,8	 10907,1	1295,1	2642,5	104,2
- energiya resurslari	- " -	 55198,2	61425,7	 35878,6	65,0	8352,5	101,5
- xizmatlar	- " -	 27021,2	2352,6	 4782,3	17,7	389,7	104,8
- boshqalar	- " -	 7857,6	8124,5	 7240,8	92,2	3124,5	105,3
Import tarkibi							
- oziq-ovqat mahsulotlari	ming doll.	 2496,7	3152,6	 503,8	20,2	186,5	102,7
- ximiya sanoati mahsulotlari	- " -	 12127,3	13242,2	 20774,3	171,3	3652,5	103,6
- qora va rangli metallar	- " -	 2956,3	3021,2	 1431,8	48,4	99,9	100,5
- mashina va uskunalar	- " -	 263087,6	267541,2	 141702,5	53,9	68989,9	100,3
- energiya resurslari	- " -	 164,6	168,4	 350,1	212,7	142,2	102,0
- xizmatlar	- " -	 3745,5	707,5	 1989,9	53,1	85,0	102,4
- boshqalar	- " -	 2837,9	3252,3	 8943,0	315,1	1154,5	100,5

davomi

Koʻrsatkichlar nomlari	Oʻlchov birligi	2013 y. yakuni, haqiqatda	2014 yil yakuni		2013 y. yakuniga nisbatan %da	2015 yil 1-chorak yakunida kutiladi	
			prognoz	haqiqatda		prognoz	2014 yil 1-chorakka nisb.o'sish sur'ati, %
MDH davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalar							
Jami:	ming doll.	↓ 256393,4	278912,4	↑ 309165,9	120,6	105353,4	102,1
Eksport	- " -	↑ 128690,2	141686,1	↓ 103055,3	80,1	34898,9	101,5
Import	- " -	↑ 127703,2	137226,3	↓ 122177,9	95,7	30323,3	103,5
Qoldiq	- " -	↑ 987,0	4459,8	↓ -19122,6	-1937,4	5124,5	100,6
Eksport tarkibi							
- paxta tolasi	ming doll.	↑ 72865,9	81425,5	↓ 27298,3	37,5	26989,9	101,6
- kimyo sanoati mahsulotlari	- " -	↓ 39781,2	43253,2	↑ 40281,8	101,3	5252,4	102,0
- qora va rangli metallar	- " -						
- mashina va uskunalar	- " -	1,9	5,1				
- oziq-ovqat mahsulotlari	- " -	↓ 2528,0	2654,5	↑ 2985,9	118,1	625,4	105,0
- energiya resurslari	- " -						
- xizmatlar	- " -	↓ 7834,5	8362,3	↑ 28652,3	365,7	1624,5	101,8
- boshqalar	- " -	↑ 5678,7	5985,5	↓ 3837,0	67,6	514,5	102,9
Import tarkibi							
- oziq-ovqat mahsulotlari	ming doll.	↑ 3990,4	3925,5	↓ 1123,4	28,2	452,2	101,1
- ximiya sanoati mahsulotlari	- " -	↓ 13811,6	14325,3	↑ 15185,6	109,9	3784,5	102,9
- qora va rangli metallar	- " -	↓ 1108,1	1252,3	↑ 5117,9	461,9	465,5	102,6
- mashina va uskunalar	- " -	↑ 99720,0	109425,2	↓ 90874,8	91,1	23125,4	100,3
- energiya resurslari	- " -	↑ 449,6	450,2	↓ 8,0	1,8		
- xizmatlar	- " -	↓ 1161,1	2,3	↑ 3614,4	311,3	205,6	100,6
- boshqalar	- " -	↑ 7462,4	7845,5	↓ 6253,8	83,8	1485,2	100,5

Manba: Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot Bosh boshqarmasi ma'lumotlari

Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va yuksak darajada mexanizatsiyalash ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun qilinayotgan tadqiqotlar uchun ko'p xarajatlar talab qilindi. Sanoat mollarining turlari oshdi, ishlab chiqarishda yangi sohalar vujudga keldi, jumladan atom sanoati, elektronika, sintetik materiallar ishlab chiqarish shular jumlasiga kiradi.

Yana tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri eksport tajribasini takomillashtirishdan iborat. Eksportni rivojlantirishda iqtisodiy rag'batlantirish va davlat tomonidan qullab-quvvatlash chora-tadbirlari muxim rol o'ynaydi. Ma'lumki, paxta mamlakat eksportining 40 foizini tashkil qilgan holda byudjet tushumining asosiy manbai hisoblanadi. Respublikamizda eksport infrastrukturasini amalda yangitdan tashkil qilishga to'g'ri keldi.

Ayniqsa, savdo kompaniyalarini tashkil etish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida kadrlarni tayyorlash va o'qitish, kommunikatsiya transport tizimini rivojlantirish va ishlab chiqarilgan maxsulot sifati ustidan nazorat qilish bo'yicha turli xil qiyinchiliklar va muammolarga duch kelindi. O'zbekiston jaxon paxta savdosida barqarorlashtiruvchi omil bo'lishi va o'z eksporti daromadlarini oshirish uchun yetarli imkoniyatlarga ega. Shuning uchun respublika paxta sanoatini sog'lomlashtirishga qaratilgan istiqbolli chora-tadbirlarni amalga oshirish paxta savdosiga ijobiy ta'sir ko'rsatmokda.

2.3. Hudud iqtisodiyotida eksport va import ko'rsatkichlari tahlili

Hozirgi jahon rivojining xususiyatli belgisi tashqi iqtisodiy aloqalarning, avvalo, tashqi savdoning tez o'sishi hisoblanadi. Tashqi savdo xalqaro hamkorlikning ishlab chiqarish, ilmiy-texnika va boshqa shakllari (kadrlarni tayyorlash, turizm va h.k.) bilan bir qatordagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim shakli hisoblanadi. Barcha mamlakatlar tashqi savdosi majmui xalqaro savdoni tashkil etadi.

Xalqaro savdo – bu turli davlat milliy xo'jaliklari o'rtasidagi tovar va xizmatlarning ayirboshlash jarayonidir. Xalqaro savdo qadimdan mavjud bo'lsada, faqat XIX asrga kelib, ya'ni deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar xalqaro savdo aloqalarida ishtirok eta boshlashi bilan jahon bozori shakliga kirdi.

Xalqaro savdo tashqi savdo aylanmasi, eksport va import, savdo balansi kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Eksport – bu tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovar mamlakatdan tashqariga chiqariladi. Eksportning iqtisodiy samaradorligi shu bilan aniqlanadiki, mazkur mamlakat ishlab chiqarishning milliy xarajatlari jahon xarajatlaridan past bo'lgan mahsulotlarni chetga chiqaradi. Bunda eksportda olinadigan yutuq hajmi mazkur

2.3.1-jadval

Qashqadaryo viloyatida 2008-2014 yillarda eksport ko'rsatkichlari to'g'risida*

Shahar va tumanlar nomi	2008 yilda		2009 yilda		2010 yilda		2011 yilda		2012 yilda		2013 yilda		2014 yilda		2014 yilda 2008 yilga nisbatan, %
	jami eksport	shundan, hududiy eksport	jami eksport	shundan, hududiy eksport	jami eksport	shundan, hududiy eksport	jami eksport	shundan, hududiy eksport	jami eksport	shundan, hududiy eksport	jami eksport	shundan, hududiy eksport	jami eksport	shundan, hududiy eksport	
Jami	1274,3		2068,7		355,8		462,3		343,1		335,3		323,5	38,5	25,4
Qarshi sh.	14,3	3,6	26,1	1,5	31,9	0,8	55,8	1	64,9	5,6	71,6	4,6		9,5	
G'uzor	749,8		1441,8	0,9	65	0,3	64,8	0,4	44,9	0,6	35,4	0,4		0,4	
Dehqonobod	0		0		7,7		47,7	1	64,3	0,6	23,4	0,5		0,4	
Qamashi	22,4	0,8	16	0,5	22,7	1,5	30,4	1,7	17,6	3,3	20,6	1,6		2,1	
Qarshi	18,8	0,1	19,2		20,8	0,8	30,6	0,1	21,6	0,1	21,9	2,2		2,7	
Koson	31,7	1,1	26	0,2	42,4	0,06	48,9	1,1	28,2	0,6	31,8	1,1		1,9	
Kitob	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,9	1,3	1,4	1,4	1,7	1,6		8,9	
Mirishkor	15,6		18,9		30,7	0,3	32,9	0,2	14		15,3	0,6		0,2	
Muborak	332,1		440,8	6,2	11,7	6,4	23,2	7	10,4	5	7,1	5,1		0,2	
Nishon	25,3	3,1	21,6	1,3	36,3	3,8	31,4	3,6	20,5	0,7	18,6	1,3		0,1	
Kasbi	27,2		23,7		33,8		43,8		24,4		25,2	0,3		0,4	
Chiroqchi	7,5		8,1	0,05	15,4	0,1	14,2		6,9	0,008	8,8	0,7		0,6	
Shaxrisabz	15,2	2,8	15,6	1,1	21,3	0,4	20,8	0,5	13,9	1,1	14,7	1,2		7,8	
Yakkabog'	11,5	0,1	10,5	0,08	15,7	0,2	16,7	0,2	9,9		12,2	0,7		3,3	

*) Jamlama va yig'indi ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq taqsimlanmagan xajmlar hisobiga

Manba: Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot Bosh boshqarmasi ma'lumotlari

tovar milliy va jahon narxlarining nisbatiga, mazkur tovarning xalqaro aylanmasida ishtirok etuvchi mamlakatlarning mehnat unumdorligiga bog'liq.

Xalqaro savdoda **tovarlarning eksport tarkibi** fan-texnika revolyutsiyasi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ta'siri ostida o'zgaradi. Hozirgi davrda xalqaro savdoning eksport tarkibida qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari yetakchi o'ringa ega bo'lib, uning hissasiga jahon tovar ayriboshlashining 3/4 qismi to'g'ri keladi. Oziq-ovqat, xomashyo va yoqilg'i ulushi faqat 1/4 qismini tashkil qiladi.

Xizmatlar eksporti tovarlar eksportidan farq qiladi. Chet ellik iste'molchilarga xizmat ko'rsatish, chet el valyutalarini olish bilan bog'liq bo'lib, u milliy chegarada amalga oshiriladi (masalan, chet el kompaniyasi vakillariga pochta, telegraf xizmati ko'rsatish, chet el fuqarolariga sayyohlik xizmati ko'rsatish va h.k.).

Kapital eksport qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Kapital eksporti kredit berish yoki chet el korxonalari aksiyalariga maqsadli qo'yilmalar kabi shakllarda amalga oshirilib, kapital chiqarilgan vaqtda eksport qiluvchi mamlakatdan mablag'lar oqimini taqozo qiladi va shu orqali tasarrufida bo'lgan resurslar hajmini qisqartiradi. Boshqa tomondan, kapital eksporti chet davlatlarning mazkur mamlakatdan bo'lgan qarzlarini ko'paytiradi. U jahon bozoriga tovarlarning keyingi eksporti uchun qulay sharoit yaratadi va chet el valyutasida foiz yoki dividend shaklida barqaror daromad olish omili hisoblanadi.

Ko'plab mamlakatlar, cheklangan resurs bazasiga va tor ichki bozorga ega bo'lib, o'zlarining ichki iste'moli uchun zarur bo'lgan barcha tovarlarni yetarli samaradorlik bilan ishlab chiqarish holatida bo'lmaydi. Bunday mamlakatlar uchun import kerakli tovarlarni olishning asosiy yo'li hisoblanadi.

Import eksportdan farq qilib chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga keltirishni bildiradi. Bunda mamlakat ichida ishlab chiqarish xarajatlari tashqaridan sotib olingan chog'dagi xarajatlaridan yuqori bo'lgan mahsulotlar import qilinadi. Tashqi savdo samaradorligini hisoblashda mazkur mamlakat tomonidan import qilish hisobiga muayyan tovarlarga bo'lgan o'z ehtiyojining tezlik bilan qondirilishi hamda bunday tovarlarni mamlakat ichida ishlab chiqarilgan chog'da sarflanishi lozim bo'lgan resurslarning tejalishi natijasida olinuvchi iqtisodiy naf e'tiborga olinadi.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalardagi ishtirokini ifodalovchi bir qator ko'rsatkichlar ham mavjud. Masalan, tarmoq ishlab chiqarishining xalqaro ixtisoslashuvi darajasi ko'rsatkichlari sifatida **taqqoslama eksport ixtisoslashuvi koeffitsiyenti (TEIK)** hamda **tarmoq ishlab chiqarishidagi eksport bo'yicha kvotadan** foydalanish mumkin. TEIK quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_o = E_i / E_M ,$$

bu yerda:

E_0 – mamlakat eksportida tovar (tarmoq tovarlari yig‘indisi)ning solishtirma salmog‘i;

E_M – jahon eksportidagi shu turdagi tovarlarning solishtirma salmog‘i.

Agar nisbat birdan katta bo‘lsa, bu tarmoq yoki tovarni xalqaro jihatdan ixtisoslashgan tarmoq yoki tovarlarga kiritish mumkin va aksincha.

Eksport bo‘yicha kvota milliy sanoatning tashqi bozor uchun ochiqlik darajasini ifodalaydi:

$$K_E = E / YaIM ,$$

bu yerda: E – eksport qiymati.

Eksport buyicha kvotaning ko‘payishi ham mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokining, ham mahsulot raqobatbardoshligining o‘tib borishidan darak beradi.

Mamlakatdagi aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi eksport hajmi uning iqtisodiyotining «ochiqligi» darajasini ifodalaydi. **Eksport salohiyati (eksport imkoniyatlari) – mazkur mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning o‘z iqtisodiyoti manfaatlariga putur yetkazmagan holda jahon bozorida sotishi mumkin bo‘lgan qismi.**

Tovarlar eksporti va importi summasi tashqi savdo aylanmasi yoki tashqi tovar aylanmasini tashkil etadi. **Biror bir mamlakat boshqa mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarni o‘z iste‘moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun xarid qilgan taqdirda reeksport ro‘y beradi.** Reeksport bilan reimport uzviy bog‘liq. **Reimport iste‘molchi mamlakatdan reeksport tovarni sotib olishni bildiradi.**

Eksport va importning harakatida ham multiplikatsiya samarasi mavjud bo‘lib, bu omilni hisobga olish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada taniqli iqtisodchi olimlardan J.Keyns, R.Kan, F.Maxlup, P.Samuelson va boshqalar tashqi savdo multiplikatori to‘g‘risidagi nazariy asoslarni yaratishda katta hissa qo‘shdilar.

Eksport multiplikatori ham investitsiyalar multiplikatori singari iste‘mol sohasidagi ichki jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, iste‘mol yoki jamg‘armaga so‘nggi qo‘shilgan moyillik ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi:

$$M_x = \frac{1}{MRS} = \frac{1}{1 - MRC} ,$$

bu yerda:

M_x – eksport multiplikatori koeffitsiyenti;

MRS – jamg‘armaga so‘nggi qo‘shilgan moyillik;

MRC – iste‘molga so‘nggi qo‘shilgan moyillik.

Eksport hajmining oshishini yalpi milliy ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$YaIM = I_{\delta} \Delta X ,$$

bu yerda:

I_{δ} – multiplikator;

ΔX – eksport hajmining o'sishi.

Biroq, xalqaro savdo faqat eksportdan iborat bo'lmay, balki o'z ichiga importni ham oladi. Agar eksportdan olingan daromadning bir qismi importga sarflansa, u holda mamlakatning ichki xarid qobiliyati pasayadi. Import jamg'arma singari boy berilgan imkoniyat sifatida amal qiladi, shuning uchun u matematik ifodalarda manfiy ishora bilan qo'llaniladi. Importni jamg'arish funksiyasiga o'xshagan holda tahlil qilish mumkin. Buning uchun importga so'nggi qo'shilgan moyillik tushunchasini kiritib olamiz. Bu moyillik import hajmi o'zgarishining daromad o'zgarishiga nisbati orqali ifodalanishi mumkin. Natijada **import multiplikatori** formulasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$M_p = \frac{1}{(MRS + MRM) \Delta X} ,$$

bu yerda:

MRM – importga so'nggi qo'shilgan moyillik.

Importni hisobga olgan holda eksport hajmi o'zgarishining yalpi milliy ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\Delta YaIM = \frac{1}{(MRS + MRM) \Delta X} .$$

Tashqi savdo multiplikatori cheksiz harakatda bo'lmaydi. Import tovarlarni iste'mol qilishga so'nggi qo'shilgan moyillikning qiymati birdan kam bo'lganligi sababli navbatdagi qo'shimcha o'sishlar miqdori muntazam qisqarib, multiplikatsiya jarayoni sekin-asta so'nib boradi.

Xalqaro savdo bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Iqtisodiy resurslarning harakatchanligi mamlakatlar o'rtasida mamlakat ichidagiga qaraganda ancha past bo'ladi. Masalan, ishchilar mamlakat ichida viloyatdan viloyatga, hududdan hududga erkin o'tishi mumkin. Mamlakatlar o'rtasidagi til va madaniy to'siqlardan tashqari yana immigratsion qonunlar ishchi kuchining mamlakatlar o'rtasidagi migratsiyasiga qattiq cheklashlar qo'yadi. Soliq qonunchiligidagi, davlat tomonidan tartibga solishning boshqa tadbirlaridagi farqlar va boshqa qator muassasaviy to'siqlar real kapitalning milliy chegara orqali migratsiyasini cheklaydi.

2. Har bir mamlakat har xil valyutadan foydalanadi. Bu mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdoni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

3. Xalqaro savdo siyosiy aralashuv va nazoratga mahkum bo'lib, bu ichki savdoga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlardan tavsifi va darajasi bo'yicha sezilarli farqlanadi.

Xalqaro savdoning tarkibiy tuzilishi ishlab chiqarish asosiy omillarining turli mamlakatlar o'rtasida joylashuvi hamda jahon ishlab chiqarishi tuzilmasiga bog'liq. Agar bundan bir asr muqaddam xalqaro savdoda ustun ravishda xomashyo, materiallar, oziq-ovqat va yengil sanoat mahsulotlari ayirboshlangan bo'lsa, bugungi kunga kelib sanoat tovarlari, ayniqsa mashina va asbob-uskunalarining salmog'i sezilarli darajada o'sdi. Intellektual tovarlar va xizmatlarning ulushi ham keskin ravishda oshib, umumiy savdo aylanmasining 10 foiziga qadar yetdi. Shuningdek, xalqaro savdoni tashkil etish shakllari ham takomillashib bormoqda. An'anaviy ko'rinishdagi tovar birjalari, auksionlar, savdo-sanoat yarmarkalari, savdo ko'rgazmalari bilan bir qatorda ikki tomonlama bitimlarning quyidagi shakllari ham keng qo'llanmoqda:

1) barter – tovarlarni to'g'ridan-to'g'ri, pul ishtirokisiz bir-biriga ayirboshlash. Barterda pul ishtirok etmasada, tovarlarning qiymatini bir-biriga taqqoslash uchun pulning qiymat o'lchovi vazifasi orqali baholab olinadi;

2) eksport qiluvchilar tomonidan yetkazib berilgan tovarlar qiymatining bir qismiga import tovarlarni xarid qilish;

3) texnikaning yangi modellarini sotishda eskirgan modellarni sotib olish;

4) import qilingan asbob-uskunalar qism va detallarini importga sotuvchi mamlakat tomonidan butlab berish;

5) kompensatsion bitimlar. Mazkur bitimlar shartiga ko'ra, texnologik asbob-uskunalar yetkazib beruvchi tomonlarning biri taqdim etgan kredit (moliyaviy, tovar ko'rinishidagi) bo'yicha to'lovlar ana shu asbob-uskunalarda tayyorlangan tayyor mahsulotlarni yetkazib berish orqali amalga oshiriladi;

6) bir mamlakatda undirilgan xomashyoni boshqa bir mamlakat ishlab chiqarish quvvatlari yordamida qayta ishlashda ushbu qayta ishlash va tashib berish xizmatlarini qo'shimcha xomashyo yetkazib berish orqali to'lash;

7) kliring operatsiyalari, ya'ni o'zaro talab va majburiyatlarni hisobga olish orqali naqd pulsiz hisoblashuv.

Ikki tomonlama savdo tamoyilida amalga oshiriluvchi xalqaro operatsiyalar barcha hajmida barter bitimlari 4 foiz, ikki tomonlama xarid – 55 foiz, kompensatsion bitimlar – 9 foiz, kliring operatsiyalari 8 foizni tashkil etadi.

Tashqi savdo aylanmasining o'zgarishiga bir vaqtning o'zida bir necha omillar ta'sir qilgani uchun uni tahlil qilishda juft regressiya tenglamasidan foydalanish jarayonni to'liq yoritish imkonini bermaydi. Shuning uchun odatda

tashqi savdo aylanmasini prognozlashda ko'p omilli regressiya tenglamasidan foydalansh tavsiya qilinadi. Ushbu tenglama natijaviy belgining bir necha omillar ta'sirida qanday o'zgarishini ko'rsatadi. Odatda, matematik statistikada natijaviy belgi "y", omil belgi esa x_i ($i=1,2,3,\dots,n$), bilan belgilanadi. y va x orasidagi bog'lanish esa $y=f(x_i)$ funksiya orqali ifodalanadi.

Tashqi savdo aylanmasi ko'rsatkichlarini prognozini amalga oshirish uchun uning hajmiga ta'sir etuvchi quyidagi omillarni olamiz:

1. YHM, mlrd. so'm (x_1);
2. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm (x_2);
3. Chakana savdo aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (x_3);

Omil va natijaviy belgi orasidagi bog'liqlikni jadval shaklida ifodalaymiz. Ushbu jadvalning 1-ustunida vaqt omili, 2-ustunida natijaviy belgi, ya'ni tashqi savdo aylanmasi hajmi, qolgan ustunlarda esa omil belgilarning o'zgarish dinamikalari aks ettiriladi. (2.3.1-jadval).

2.3.2-jadval

Tashqi savdo aylanmasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar dinamikasining regression va korrelatsion tahlili

Vaqt	YAHM, mlrd. so'm	Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm	Chakana savdo aylanmasi hajmi, mlrd. so'm	Tashqi savdo aylanmasi, mln. AQSH dollari
t	x_1	x_2	x_3	y
1	3818	1824,7	747,3	1787,9
2	5244,8	2193	959	2461,7
3	5862,9	1690,4	1325,2	504,6
4	6973,9	2107,9	1867,1	580,7
5	8704,9	2875,9	2567,6	750,8
6	8828,1	3498,8	3443,7	765,5
7	10209,2	3944,4	4394,3	637,2
Σ	49641,8	18135,1	15304,2	7488,4
o'rtacha miqdor	7091,685714	2590,728571	2186,314286	1069,771429
	x_1^2	x_2^2	x_3^2	y^2
	14577124	3329530,09	558457,29	3196586,41
	27507927,04	4809249	919681	6059966,89
	34373596,41	2857452,16	1756155,04	254621,16
	48635281,21	4443242,41	3486062,41	337212,49
	75775284,01	8270800,81	6592569,76	563700,64
	77935349,61	12241601,44	11859069,69	585990,25
	104227764,6	15558291,36	19309872,49	406023,84
Σ	383032326,9	51510167,27	44481867,68	11404101,68

	t	x_1y	x_2y	x_3y
	1	6826202,2	1710305,14	1336097,67
	2	12911124,16	2439052,36	2360770,3
	3	2958419,34	520192,14	668695,92
	4	4049743,73	615483,93	1084224,97
	5	6535638,92	822050,92	1927754,08
	6	6757910,55	865474,3	2636152,35
	7	6505302,24	725579,64	2800047,96
Σ	28	46544341,14	7698138,43	12813743,25
	$(x_1 - \bar{x})^2$	$(x_2 - \bar{x})^2$	$(x_3 - \bar{x})^2$	$(y - \bar{y})^2$
	10717018,16	586799,7722	2070762,114	515708,6451
	3410986,842	158188,0165	1506300,356	1937465,148
	1509914,332	810591,5365	741517,8131	319418,7437
	13873,47449	233123,4294	101897,7602	239190,8622
	2602460,332	81322,74367	145378,7959	101742,7722
	3015134,572	824593,7194	1581018,834	92581,10224
	9718895,322	1832426,337	4875200,914	187118,0408
Σ	30988283,03	4527045,554	11022076,59	3393225,314

Omil belgining natijaviy belgiga va har bir omilning boshqa omilga ta'sirini korrelyatsiya koeffitsientlari orqali hisoblaymiz. Unda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$r_{xy} = \frac{\Sigma(x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}{\sqrt{\Sigma(x_i - \bar{x})^2 \Sigma(y_i - \bar{y})^2}} = \frac{n \Sigma x_i y_i - \Sigma x_i \Sigma y_i}{\sqrt{[n \Sigma x_i - (\Sigma x_i)^2][n \Sigma y_i - (\Sigma y_i)^2]}}$$

Ushbu formuladagi x_i va y_i omil va natijaviy belgining mos qiymatlari. $\bar{x} = \frac{\Sigma x_i}{n}$ va $\bar{y} = \frac{\Sigma y_i}{n}$ ga teng. Omillar orasidagi bog'lanish kuchi va yo'nalishini aniqlashda y_i o'rniga mos x lar qiymati qo'yiladi.

Korrelyatsiya koeffitsienti $-1 \leq r_{xy} \leq 1$ oralig'ida o'zgaradi. Agar $0 < r_{xy} \leq 1$

$-1 \leq r_{xy} < 0$ bo'lsa, omil va natijaviy belgi orasida teskari, bo'lsa, to'g'ri bog'lanish mavjud bo'ladi. Agar $r_{xy} = 0$ bo'lsa, bog'lanish mavjud emas.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida korrelyatsiya koeffitsientlarini hisoblaymiz va natijalarni jadval ko'rinishida ifodalaymiz.

2.3.3-jadval

Omil va natijaviy belgi orasidagi korrelyatsion bog'lanish kuchi

y x_1 x_2 x_3

y	1	-0,63983421	-0,33463744	-0,5818335
x_1	-0,639834211	1	0,900220093	0,96071501
x_2	-0,334637437	0,900220093	1	0,95688991
x_3	-0,581833496	0,960715012	0,956889907	1

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida tashqi savdo aylanmasi uchun regressiya tenglamasini tuzamiz. Uning umumiy ko'rinishi $y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + a_3x_3 + a_4x_4$ shaklida bo'ladi. Tenglamaning noma'lum hadlarini topish uchun standartlashgan regressiya tenglamasidan foydalanamiz. Ushbu tenglama juft korrelyatsiya koeffitsientlari matritsasi asosiga quriladi.

Uning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$t_{y_i} = \beta_1 t_{x_1} + \beta_2 t_{x_2} + \beta_3 t_{x_3}$$

Bu yerda, β -regressiyaning standartlashgan koeffitsienti,

$$t_{y_i} = \frac{y_i - \bar{y}}{\delta_y} \quad \text{va} \quad t_{x_i} = \frac{x_i - \bar{x}}{\delta_x} \quad \text{ga teng.}$$

Ushbu tenglamadagi noma'lum hadlarni topish uchun quyidagi tenglamalar sistemasidan foydalaniladi:

$$\begin{cases} r_{yx_1} = \beta_1 + \beta_2 r_{x_2x_1} + \beta_3 r_{x_3x_1} \\ r_{yx_2} = \beta_1 r_{x_2x_1} + \beta_2 + \beta_3 r_{x_3x_2} \\ r_{yx_3} = \beta_1 r_{x_3x_1} + \beta_2 r_{x_3x_2} + \beta_3 \end{cases}$$

r_{xy} -xususiy korrelyatsiya koeffitsientlari.

2.3.2-jadval ma'lumotlarini ushbu tenglamalar sistemasiga qo'ysak, quyidagi sistema hosil bo'ladi:

$$\begin{cases} r_{yx_1} = \beta_1 + 0,9 \beta_2 + 0,961 \beta_3 \\ r_{yx_2} = 0,9 \beta_1 + \beta_2 + 0,957 \beta_3 \\ r_{yx_3} = 0,961 \beta_1 + 0,957 \beta_2 + \beta_3 \end{cases}$$

U shbu tenglamalar sistemasini matritsalar usulida yechish uchun uni matritsalariga joylashtiramiz.

$$\beta = \begin{bmatrix} \beta_1 \\ \beta_2 \\ \beta_3 \end{bmatrix}, \quad r = \begin{bmatrix} 1 & 0,9 & 0,961 \\ 0,9 & 1 & 0,957 \\ 0,957 & 0,961 & 1 \end{bmatrix} \quad \text{va} \quad y = \begin{bmatrix} -0,640 \\ -0,335 \\ -0,582 \end{bmatrix}$$

Matritsalarini ko'paytirish qoidasiga ko'ra $y = \beta \cdot r$. Agar ushbu tenglikning har ikki tarafini r^{-1} ga, ya'ni r matritsaga teskari matritsaga ko'paytirsak, u holda $\beta = y \cdot r^{-1}$ hosil bo'ladi. Demak, β kattaliklarni topish uchun y matritsani r matritsaning teskarisiga ko'paytirish lozim. r matritsaga teskari matritsani topishda MS EXCEL dasturidagi "MOBP" funksiyasidan foydalanamiz. U holda r matritsaga teskari matritsa quyidagiga teng bo'ladi.

r matritsaga teskari matritsa elementlari

$$\beta = \begin{bmatrix} 13,753 & 3,11 & -16,189 \\ 3,11 & 12,557 & -15,004 \\ 16,189 & -15,004 & 30,91 \end{bmatrix}$$

U holda $a=y \cdot x^{-1}$ ga ko'ra, bu 6y matritsani hisoblashda MS EXCEL dasturidagi "MYMHOЖ" funksiyasidan foydalanamiz.

$$\beta = \begin{bmatrix} 13,753 & 3,11 & -16,189 \\ 3,11 & 12,557 & -15,004 \\ -16,189 & -15,004 & 30,91 \end{bmatrix} \times \begin{bmatrix} -0,640 \\ -0,335 \\ -0,582 \end{bmatrix}$$

Demak, $\beta_1=-0,421$, $\beta_2=2,538$ va $\beta_3=-2,605$. U holda regressiya tenglamasining standart ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$t_y = -0,421t_{x_1} + 2,538t_{x_2} - 2,605t_{x_3}$$

Yuqoridagi a ko'effitsentlar va standartlashgan regressiya ko'effitsenti β orasida quyidagi bog'liqlik mavjud:

$$a_i = \beta_i \frac{\delta_y}{\delta_x}$$

δ_x va δ_y mos ravishda x hamda y boyicha o'rtacha kvadratik tafovutlar. 1-jadval ma'lumotlariga asosan, $a_1=-0,139$, $a_2=2,197$ va $a_3=-1,446$ va teng bo'ladi. $y=a_0+a_1x_1+a_2x_2+a_3x_3$ ga ko'ra, $a_0=y-(a_1x_1+a_2x_2+a_3x_3)$.

Regressiya tenglamasining umumiy ko'rinishi

$$y=-473,001-0,139x_1+2,197x_2-1,446x_3 \text{ dan iborat bo'ladi.}$$

Endi ushbu tenglamaning ishonchlilik darajasini baholaymiz. Buning uchun Fisher va Styudent metodlaridan foydalanamiz. Fisher metodi bo'yicha tekshirishda, avval ushbu ko'p omilli regressiya tenglamasi uchun umumiy korrelyatsiya ko'effitsentini hisoblaymiz:

$$R_{xy} = \sqrt{\sum r_{xy} \beta_i}$$

$$\text{Demak, } R_{xy} = \sqrt{-0,64 * 0,421 - 0,335 * 2,538 + 0,582 * 2,605} = 0,968$$

ga teng. Agar ushbu ko'rsatkichni kvadratga oshirsak, ko'p omilli determinatsiya ko'effitsenti kelib chiqadi, ya'ni $R^2_{xy}=0,936$. Determinatsiya ko'effitsenti hisobga olingan omillarning natijaviy belgiga ta'sirini ifodalaydi. Bizning misolimizda, ushbu ta'sir 93,6% ni tashkil etib, hisobga olinmagan omillarning ta'siri 6,4% ga teng. Endi ushbu qiymat orqali Fisher ko'effitsentini hisoblaymiz:

$$F_{haqiqiy} = \frac{R^2_{xy}(n-m-1)}{m(1-R^2_{xy})}$$

Bu yerda, m -omillar soni, n -kuzatishda qatnashayotgan elementlar soni. Bizning misolimizda $m=3$ va $n=7$. U holda,

$$F_{haqiqiy} = \frac{0,968^2(7-3-1)}{3(1-0,968^2)} = 14,68$$

Endi ushbu qiymatni jadval ko'rsatkichlari bilan solishtiramiz. Fisher taqsimot jadvaliga ko'ra, $3(3=7-3-1)$ erkinlik darajasida 0,05 ehtimollik bilan $F_{jad} = 9,28$ ga teng va $F_{haqiqiy} > F_{jad}$. Demak, 97 % aniqlikda aytish mumkinki, yuqoridagi regressiya tenglamasi iqtisodiy jihatdan ma'noga ega. Fisher metodining ahamiyatli tomoni shundaki, uning yordamida har bir omilning qay darajada ma'noga ega ekanligini ham

tekshirib ko'rish mumkin. Buning uchun xususi Fisher koeffitsentlaridan foydalaniladi:

$$F_{x_i} = \frac{[(R]_{x_i,y}^2 - r_{x_i,y}^2)(n-m-1)}{1 - R_{x_i,y}^2}$$

Bundan,

$$F_{x_1} = \frac{[(R]_{x_1,y}^2 - r_{x_1,y}^2)(n-m-1)}{1 - R_{x_1,y}^2} = \frac{0,936 - (-0,640)^2}{1 - 0,938} \cdot 3 = 24,783$$

shunga

o'xshash $F_{x_2} = 38,773$ va $F_{x_3} = 28,116$. Endi ushbu qiymatlarni jadval qiymatlari bilan taqqoslaymiz. Jadvalga ko'ra, $F_{jad}(3,1)=10,13$; $F_{jad}(3,2)=9,55$; $F_{jad}(7,3)=9,28$. Demak, har 3 ta omil bo'yicha Fisher koeffitsentining haqiqiy qiymatlari, uning jadvaldagi qiymatlaridan katta. Ushbu fikrni Styudentning t-kriteriyasi bo'yicha ham tekshirish mumkin. Bunda Fisher va Styudent kriteriyalari

orasidagi bog'lanishdan foydalanamiz, ya'ni $t_{a_i} = \sqrt{F_{x_i}}$.

U holda t ning qiymatlari quyidagilarga teng bo'ladi: $t_{a_1} = \sqrt{F_{x_1}} = \sqrt{24,783} = 4,978$, $t_{a_2} = 6,227$ hamda $t_{a_3} = 5,302$. Styudent t-kriteriyasi jadvaliga ko'ra, $n=7$ bo'lganda, $t=1,8946$ ga teng bo'ladi. Demak, t ning barcha haqiqiy qiymatlari uning jadval ko'rsatkichlaridan katta. Bundan xulosa qilish mumkinki, barcha omillar iqtisodiy jihatdan ma'noga ega ekan.

Endi amalga oshirilishi lozim bo'lgan ish- natijaviy belgi u ning vaqtga bog'liqligini ifodalashdir. Buning uchun dastlab har bir omil belgining vaqt bo'yicha o'zgarish modelini tuzib olish talab qilinadi. Bunda yuqorida natijaviy belgi uchun qo'llanilgan eng kichik kvadrat usulidan foydalaniladi. Omil belgining vaqtga bog'liqligini umumiy holda quyidagicha ifodalash mumkin: $x(t)=b_0+b_1t$ Bu yerdan b kattaliklarni topish uchun eng kichik kvadratlar usulidan foydalaniladi:

$$\sum_{i=1}^n [(x_i(t) - \hat{x}_i(t))]^2 \rightarrow \min$$

. Masalan x_1 omil uchun b_0 va b_1 ni hisoblash quyidagi tenglamalar sistemasi asosida amalga oshiriladi.

$$\begin{cases} nb_0 + b_1 \sum t = \sum x \\ b_0 \sum t + b_1 \sum t^2 = \sum xt \end{cases} \quad \text{bundan,} \quad b_0 = \frac{\sum x \sum t^2 - \sum t \sum xt}{n \sum t^2 - (\sum t)^2} \quad \text{va} \\ b_1 = \frac{n \sum xt \sum t^2 - \sum x \sum t}{n \sum t^2 - (\sum t)^2}$$

Ushbu tenglamadagi no'malum hadlarni topish uchun quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanamiz.

2.3.4-jadval

Natijaviy belgining vaqtga bog'liqligini ifodalash

Yillar	Vaqt omili (t)	YAHM, mlrd. so'm	Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm	Chakana savdo aylanmasi hajmi, mlrd. so'm	Hisoblashlar			
	t	x_1	x_2	x_3	tx_1	tx_2	tx_3	t^2
2008	1	3818	1824,7	747,3	3818	1824,7	747,3	1
2009	2	5244,8	2193	959	10489,6	4386	1918	4
2010	3	5862,9	1690,4	1325,2	17588,7	5071,2	3975,6	9
2011	4	6973,9	2107,9	1867,1	27895,6	8431,6	7468,4	16
2012	5	8704,9	2875,9	2567,6	43524,5	14379,5	12838	25
2013	6	8828,1	3498,8	3443,7	52968,6	20992,8	20662,2	36
2014	7	10209,2	3944,4	4394,3	71464,4	27610,8	30760,1	49
Jami:	28	49641,8	18135,1	15304,2	15304,2	15304,2	15304,2	15304,2

Jadval ma'lumotlarini yuqoridagi formulaga qo'yib, $b_0=2922,8$ va $b_1=1042,221$ ekanligini topish mumkin. Demak, $x_1(t) = 2922,8 + 1042,221t$. Shunday tarzda qolgan omillarning ham vaqtga bog'liqlik modelini tuzish mumkin: $x_2(t) = 1139,843 + 362,721t$ va $x_3(t) = 264,086 + 612,6t$. Hosil bo'lgan natijalarni $y = -473,001 - 0,139x_1 + 2,197x_2 - 1,446x_3$ formulaga qo'ysak, natijaviy belgining vaqtga bog'liqligini ifodalovchi regressiya tenglamasi hosil bo'ladi: Demak, regressiyaning vaqtga bog'liq tenglamasi $y = 2005,573 - 233,95t$ formuladan iborat.

Ushbu formula asosida tashqi savdoning qiymatini istalgan yil uchun hisoblash mumkin: t parametrlning o'rniga mos yilning tartib raqamini (2008 yil tartib raqami 1 ga teng) qo'yish kifoya.

III Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari

3.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni takomillashtirishda xalqaro mehnat taqsimoti va jahon narxlarining tutgan o'рни

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mohiyati, ma'nosini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri xalqaro mehnat taqsimotidir. Dunyoning barcha mamlakatlari u yoki bu jihatdan xalqaro mehnat taqsimotiga (XMT) qo'shilgan. Uning chuqurlashuvi ilmiy-texnika inqilobining (ITI)ning ta'siri ostida bo'lgan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishidan kelib chiqadi.

Xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish davlatlarga qo'shimcha iqtisodiy samara berib, o'z ehtiyojlarini eng kam harajatlar bilan to'liqroq qondirish imkonini beradi.

Mehnat taqsimoti – bu tarixan belgilangan ijtimoiy mehnat tizimidir. U jamiyat rivojlanishi jarayonida faoliyatning sifat jihatdan differentsiatsiyasi natijasida kelib chiqadi.

Mehnat taqsimoti turli shakllarda namoyon bo'ladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar kursida xalqaro mehnat taqsimoti o'rganiladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti mohiyati ishlab chiqarish jarayonining mehnat faoliyatini turli shakllarining ixtisoslashuvi va ularning kooperatsiyalashuvida, o'zaro hamkorligida namoyon bo'ladi. Mehnat taqsimotini faqat ajratish jarayoni sifatida emas, balki, jahon miqyosida mehnatni birlashtirish yo'li sifatida ham ko'rish mumkin.

Xalqaro mehnat taqsimoti davlatlar o'rtasida mehnatning ijtimoiy-xududiy taqsimotining darajasi hisoblanadi. U alohida bir davlatlar ishlab chiqarishlarining ixtisoslashuviga asoslanadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti nazariyasi siyosiy iqtisod klassiklari A.Smit va D.Rikardo ishlarida asoslab berildi va rivojlantirildi. Adam Smit “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari” kitobida (1776 y.) xalqaro mehnat taqsimotini tahlil qilib, savdo va tadbirkorlik erkinligi zarurligini isbotlaydi. Uning fikricha, savdo erkinligini cheklashlar alohida mintaqalar va butun bir davlatlar o'rtasida ro'y berayotgan mehnat taqsimotini chuqurlashishiga halaqit beradi. To'siqlarning yo'qotilishi va xalqaro almashinuv maydonining kengayishi milliy iqtisodiyotni ixtisoslashuviga va ularning o'zaro bog'liqligini oshirishga, umujahon xo'jaligining yuzaga kelishiga olib kelishi kerak. A.Smit keyinchalik jahon

iqtisodiyotida juda mashhur bo`lib ketgan erkin savdo shiorini olg`a surgan edi (laissez-faire). A.Smit g`oyalarini keyinchalik ingliz iqtisodchilari David Rikardo, R. Torrens va Jon Styuart Mill va boshqalar o`z ishlarida rivojlantirishdi.

Klassiklarning xalqaro mehnat taqsimoti to`g`risidagi ilmiy nazariyasining asosiy yutuqlaridan biri bo`lib, ishlab chiqarishning nisbiy harajatlari nazariyasidir. Bu nazariya xalqaro savdo haqidagi iqtisodiy ta`limotning “klassik” asosi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning nisbiy harajatlari nazariyasining asosida mamlakatlar orasida ishlab chiqarish sharoitlarida farq mavjudligi haqidagi g`oya yotadi. Bunga ko`ra har qanday mamlakatda ham va shuningdek har qanday tabiiy va iqlimiy sharoitlarda ham har qanday tovar ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin deb hisoblanadi.

Nisbiy harajatlar nazariyasi biron-bir tovar ishlab chiqarishda bir davlatning boshqa bir davlatdan absolyut ustunligi mavjudligida emas, balki bunday ustunlik mavjud bo`lmagan holatda ham ixtisoslashuv foydali ekanligi isbotlanadi. Agar xalqaro darajadagi harajatlarga nisbatan kam harajat bilan tovar ishlab chiqarishning iloji bo`lmasa, harajatlarning o`rtacha darajadan ko`pligi qaysidir bir tovarda eng kam bo`ladi. Boshqa tovarlarga nisbatan foydaliroq bo`lgan shu tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashish kerak (bunda ixtisoslashish samara beradi). Bunda teskari holat ham nazarda tutilgan. Mamlakat bir necha tovarlar bo`yicha ustunlikka ega bo`lsa, bu ustunlik maksimal bo`lgan tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashish kerak. Iqtisodiy klassiklarining ushbu g`oyalari E. Xeksher, P. Samuelson, B. Olin, V. Leontev va boshqa zamonaviy iqtisodchilar tomonidan yanada rivojlantirildi.

Jahon xo`jaligini rivojlantirish uchun birinchi navbatda ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishda samaradorlikni ko`tarish, shuningdek ishlab chiqarishda harajatlarni kamaytirishga intilish zarur. Xalqaro mehnat taqsimotini rivojlanishi jarayonida asosiy narsa, bu shu jarayonning har bir ishtirokchisi o`zining XMTdagi ishtirokidan iqtisodiy foyda qidirishi va topishidir.

Har qanday davlatning xalqaro almashuv jarayonida xalqaro mehnat taqsimotining ustunliklarini amalga oshirishi – birinchidan, eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning tashqi va ichki bozor narxlaridagi farqni olish; ikkinchidan, arzonroq bo`lgan importdan foydalanib, milliy ishlab chiqarishdan voz kechgan holda ichki harajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Jahon xo`jaligini tizim sifatida ko`rib chiqqanda XMTni bu tizimni tashkil qilgan birlashtiruvchi asos deb ko`rish mumkin.

Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan davlatlarning ishlab chiqarishi ko`p holatlarda tashqi iste`molchilarga, ichki talab esa importga yo`nalgan bo`ladi deb

taxmin qilinsa, rivojlanayotgan davlatlarda esa ichki bozorning nisbatan tez, lekin ekstensiv kengayishi taxmin qilinmoqda.

Xullas, XX-XXI asrlar bo'sag'asida jahonda misli ko'rilmagan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlar ro'y bergan bo'lib, ular albatta xalqaro mehnat taqsimotini rivojlanishiga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatgan edi.

Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi asosiy yo'nalishini biz xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasining kengayishida ko'rishimiz mumkin. Xalqaro kooperatsiya (XK) va xalqaro ixtisoslashuv (XI) xalqaro mehnat taqsimotining shakllari bo'lib, uning mohiyatini namoyon qiladi.

Turli davlatlarning korxonalarini ma'lum bir tovarga ixtisoslashuvi zamonaviy ITI bilan bog'liqdir. Ishlab chiqarishning texnologik tizimini murakkablashib borishi bilan tayyor mahsulotda ishlatiladigan detallar soni ko'paydi. Masalan: yengil avtomobil sanoatida 20 minggaacha, prokat dastgohlarida 100 mingtacha, elektrovozlarda esa 250 mingtacha detallarning qismlari ishlatilishi mumkin.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi (XII) ikkita yo'nalish bo'yicha – ishlab chiqarish va hududiy yo'nalishlar bo'yicha rivojlanib bormoqda. O'z navbatida ishlab chiqarish yo'nalishi:

a) sohalararo;

b) davlatlar guruhi;

d) alohida korxonalarining ixtisoslashuviga bo'linishi mumkin. Bundan tashqari hududiy xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvi esa:

a) alohida davlatlar;

b) davlatlar guruhi;

d) hududlarning jahon bozori uchun ma'lum tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuviga bo'linadi.

Xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvining asosiy turlariga:

- predmetli (mahsulot ishlab chiqarish);

- detalli (mahsulotni tashkil qiluvchilarni ishlab chiqarish);

- texnologik yoki bosqichli (ya'ni, alohida texnologik jarayonlarni, masalan yig'ish, bo'yash va boshqalarni amalga oshirish) ixtisoslashish kiradi.

Xalqaro mehnat taqsimotining boshqa bir shakli - xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasidir. Uning ob'ektiv asosi bo'lib, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishining o'sib borayotgan darajasi, hamda mamlakat ichida yoki tashqarisida ro'y berishidan qat'iy nazar mustaqil korxonalar o'rtasidagi barqaror ishlab chiqarish jarayonlarini borishi hisoblanadi. Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi o'zining rivojlangan shakllarida hamkorlikning turli sohalarini qamrab oladi. Jumladan, birinchidan, ishlab chiqarishda texnologik hamkorlik. Ushbu hamkorliklarga quyidagilar kiradi:

- a) litsenziyalar berish va mulkchilik huquqlaridan foydalanish;
- b) loyiha konstruktorlik hujjatlarini, texnologik jarayonlarni, mahsulotning texnik darajasi va sifatini, qurilish va montaj ishlari zamonaviy, kooperatsiyalashgan korxonalarni ishlab chiqish va moslashtirish;
- d) ishlab chiqarishni boshqarish, standartlashtirish, unifikatsiyalash, sertifikatlashni takomillashtirish, ishlab chiqarish dasturlarini taqsimlash va h.k.lar.

2. Kooperativ mahsulotni sotish bilan bog'liq bo'lgan savdo-iqtisodiy jarayonlar.

3. Sotilgan texnikaga xizmat ko'rsatish.

Jahon iqtisodiyotida kooperatsiya aloqalarini o'rnatishda foydalaniladigan quyidagi uch asosiy usulga alohida e'tibor beriladi:

- Hamkorlikdagi dasturlarni amalga oshirish.
- Shartnoma asosida ixtisoslashish.
- Qo'shma korxonalar tashkil qilish.

Hamkorlikdagi dasturlarni amalga oshirish o'z navbatida ikki asosiy shaklda. (pudratli ishlab chiqarish kooperatsiyasi va hamkorlikdagi ishlab chiqarish) amalga oshiriladi. Shartnoma asosida ixtisoslashish esa ishlab chiqarish dasturlarini ishlab chiqarish kooperatsiyasi ishtirokchilari orasida taqsimlanishini nazarda tutadi. Qo'shma korxonalar bu integratsiyalashgan kooperatsiyadir.

Jahon narxlarini jamiyat uchun ishlab chiqarilgan silatli tovarning jahon bozoridagi qiymatining puldagi ifodasi bilan aniqlash mumkin.

Agar tovar quyidagi talablarga javob bersa, tovar narxini jahon narxiga tenglashtirish mumkin:

- 1) xalqaro savdoda doim yirik-yirik kelishuvning bo'lishi;
- 2) kelishuvlar maxsus emas, tijoratga oid bo'lishi lozim;
- 3) kelishuvlarni faqat erkin konvertirlanuvchi valyutada tuzish;
- 4) kelishuv yo eksport, yoki import kelishuvi bo'lishi lozim;
- 5) barcha operatsiyalar bozorda erkin tartibda amalga oshirilishi zarur.

Amaliyotda narx darajasiga va dinamikasiga har qanday o'zgarishlar, chunonchi, ishlab chiqarishda, taqsimlashda, ayirboshlashda va ma'lum bir tovarni iste'mol qilishda yuz bergan hamda ko'zda tutilgan o'zgarishlar ta'sir ko'rsatadi. Jahon narxi turli omillar ta'siri ostida tashkil topadi, bu omillarning eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi:

- 1) qiymat va iste'mol qiymati ta'siri;
- 2) talab va taklifning nisbati;
- 3) valyuta kursi (nominal va real) ta'siri;
- 4) yirik xo'jalik yurituvchi sub'ektlari va hukumat institutlari ta'siri;
- 5) muayyan kelishuvlarni tuzishdagi shartlarning o'ziga xos tomonlari.

Qiymatning paydo ho'lishida qiymatning texnologik asosi: fan-texnika taraqqiyotining (FTT)ning konstruktorlik tarmog'i - uzoq muddatga mo'ljallangan tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'satish samaradorligini oshirishning asosi bo'lib, mahsulot birligi uchun sarflanadigan resurslar sarfini kamaytirishni shart qilib qo'yadi.

FTT konstruktorlik tarmog'i nomenklaturadagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni va xillarini ko'paytirishni, funktsional xossalarini yaxshilashni ta'minlaydi. Bu qoidaga ko'ra, ilmiy-tadqiqot ishlari va yechimlariga sarflanayotgan xarajatlaridan o'sib boradi. Bu sifatliroq va qimmatroq resurslardan foydalanish hisobiga bo'ladi.

Yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etish bosqichida mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlar oshadi, lekin ishlab chiqarish jadal (intensiv) rivojlana boshlagandan keyin. yangilik orqasida tejamkorlikka erishilgandan keyin mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlar keng miqyosda kamayadi. Mahsulot birligiga sarflanadigan resurslar sarfi fizik me'yorining kamaytirilishi resurslar narxining ko'tarilishiga olib keladi.

Inflyatsiya sharoitida mahsulot birligi uchun belgilangan xarajatlar va mahsulot narxi jismoniy me'yor xarajat omillarini kamaytirish hisobiga ishlab chiqarish omillari narxiga nisbatan sekin o'sadi. Boshqacha qilib aytganda, barcha omillar ishga solingan ishlab chiqarish sur'ati qancha yuqori bo'lsa, ya'ni mahsulot birligiga mehnat va kapital sarfi tez kamayib borsa, mahsulotga qo'yiladigan narx shuncha sekinlik bilan o'sadi.

Talab va taklif nisbati. Taklifning ehtiyojdan oshib ketishi mahsulot yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirib, mahsulot narxining pasayishiga olib keladi. Narxning pasayishi esa, o'z navbatida, ehtiyojning kengayishiga olib keladi va ehtiyoj taklifdan oshib keta boshlaydi. Shundan keyin xaridorlar o'rtasida raqobat kuchayib, narxlar o'sa boshlaydi. Bu, o'z navbatida, ehtiyojni ma'lum miqdorda qisqarishiga olib keladi. Taklif ehtiyojdan osha boshlaydi. Bahoning quyi chegarasi samarali ishlab chiqarishlar tomonidan mahsulot birligiga qilingan xarajat bilan belgilanadi; yuqori chegarasi samarali faoliyat ko'rsatilgan ishlab chiqaruvchilarning mahsulot birligiga sarflangan xarajatlari bilan belgilanadi. Mana shu bilan «tebranuvchanlik printsiplari» ifodalanadi.

Narxlarning tebranish miqdori o'zining tarmoq xususiyatlariga ega. Xom ashyo tarmoqlarida narxlarning o'zgarish diapazoni qayta ishlash sanoatidagi narxlarning o'zgarish diapazonidan ancha yuqori.

Tashqi savdoga valyuta kursining ta'siri. Ma'lum bir davlatdan tovar va xizmatlar eksportining o'sishi chet elda milliy valyutaga bo'lgan ehtiyojni oshiradi va bir vaqtning o'zida mazkur davlatda xorijiy valyutaga bo'lgan taklifni

shakllantiradi. Ma'lum bir davlatda tovar va xizmatlarga importning oshishi u yerda chet el valyutasiga bo'lgan ehtiyojni vujudga keltiradi va xorijliklar uchun milliy valyuta taklifini shakllantiradi.

Valyuta kursining tashqi savdoga ta'sirining asosiy printsiplari.

Milliy pul birligining almashuv kursi pasayganda eksportchi chet el valyutasi daromadi hisobiga o'z valyutasida katta summani oladi. Bu tashqi bozorda sotish bahosini pasaytirishga, eksport hajmini oshirishga va o'zining eksport operatsiyalaridan keladigan foydani ko'paytirishga, eksport hajmini oshirishga imkon beradi. Boshqa barcha teng sharoitlarda milliy pul birligining tashqi qadrsizlanishi mahalliy korxonalarining tashqi va ichki bozorda import tovarlari bahosi ko'tarilishi bilan raqobatbardoshligini oshiradi. Bu bilan import hajmi qisqarib, savdo balansi yaxshilanadi.

Milliy pul birligi tashqi qiymatining o'sishi mahalliy korxonalarining raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir etib, ichki va tashqi bozordagi xorijiy raqobatchilari mavqeini mustahkamlaydi. Eksport qiluvchilarning savdo hajmi qisqaradi va foyda olishi pasayadi. Import tovarlarining narxi tushib ketadi; import hajmi oshib borishi bilan savdo balansi yomonlashadi.

Bu ko'rsatib o'tilgan ijobiy va salbiy holatlar va ularga parallel ravishda valyuta kurslarining o'zgarishi inflyatsiya darajasidagi o'zgarishlar bilan birga kechadi. Bu amaliyotda real valyuta kursi tushunchasidan foydalanishni shart qilib qo'yadi.

Real valyuta kursi deyilganda ikki davlatda ham inflyatsiyaning tezlik darajasi hisobga olingan milliy pul birligi almashinuvi tushuniladi.

Funt sterling kursining (oxirgi marta qadrsizlanishdan keyin) AQSh dollariga nisbati -1 funt sterling 1,5 AQSh dollariga to'g'ri keladi va Buyuk Britaniya va AQShda inflyatsiya tezlik darajasining muvofiqligi yillik hisobda 3% va 2% bo'lsa, funt sterlingning real kursi $1 \text{ funt sterling} = 1,5 \text{ AQSh } \$/\text{f.st} \cdot (1+0,03/1+0,02) = 1,5 \$/1 \text{ f.st.}$ ni tashkil etadi.

Masalan, f.st. kursi pasaygunga qadar (1.6\$ 1 f.st.) 10 funt sterling yoki 16 AQSh dollariga teng bo'lgan.

Tovarning yangi narxi 15,1 AQSh dollari/1 funt sterling xorijlik xaridor uchun ko'proq foydali hisoblanadi:

$$10 \text{ f.st.} \cdot 1.51 \$/\text{f.st} = 15,1 \$$$

Mamlakat savdo balansining holati valyuta kursining miqdoriga, import va eksport tovarga ehtiyoj tavsifidan tashqari ta'sirga moyil bo'ladi.

Mamlakat savdo balansi holati valyuta kursining hajmidan tashqari import va eksport tovarlari ehtiyojiga berilgan ta'rif-tavsifining ham ta'siri bo'ladi. Har doim ham amaliyot milliy valyuta kursining pasayishi yoki ko'tarilishi o'ziga mos keladigan savdo balansining yaxshilanishi yoki yomonlashuviga olib

kelavermaydi, Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga molik boshlang'ich narxi ravon (elastik) bo'lgan tovarlarni import qilish hatto ma'lum darajada narx ko'tarilganda ham kamaymaydi. Valyuta kursining pasayishi ta'siri ostida tovarlar eksporti teng miqdorda import narxlarining ko'tarilishi darajasiga yetolmaydigan darajada qisqarishi mumkin.

Ikki holatda ham importning qiymat hajmi ortib, savdo balansining ahvolini yomonlashtiradi. Eksport bahosining pasayishiga olib keluvchi milliy valyuta kursining pasayishi har doim ham eksport savdosi va eksportdan keladigan foydaning o'sishiga olib kelavermaydi. Ko'pincha, tovar yetkazib beruvchilar o'zlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan bozorlarda (masalan, Yaponiya kompaniyalari AQSh bozorida) mavqelarini saqlab qolish maqsadida narx belgilashda ba'zi bir kurs o'zgartirishlarni kiritadilar.

Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, narxlar ma'lum vaqt davomida bir necha chorakdan tortib 2-3 yilgacha valyuta kursining o'zgarishi ta'siri ostida bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilganlardan ko'rish mumkinki, valyuta kursining tashqi savdoga ta'sir mexanizmi ko'pincha (davomiy pasayib borish tashqi kursining uzoq muddatli o'sib borishi nominal ifodalanuvda savdo defitsiti (taqchilligi)ning chuqurlashuviga mos bo'lgani holda) yashirin xususiyatga ega bo'ladi. Valyuta kursining uzoq vaqt davomida o'sib borishi nominal ifodasida savdo balansining ijobiy saldosi o'sishiga xalaqit bermasligi mumkin. Valyuta kursini muntazam ravishda qisqartirib borishni savdo taqchilligi chuqurlashib borishi deb aytish mumkin.

Qisqa muddatlilik asosida «erkin va suzuvchi» valyuta kursining tebranish chastotasi kuchayganida eksportga ham, tegishli davlatlarning importiga ham ehtiyoj qisqaradi.

Valyuta kursining noaniq harakati eksport tushumi va import to'lovlari hisob-kitoblarida, boshqacha qilib aytganda, valyuta bilan bog'langan tavakkalchilikda namoyon bo'ladi.

Valyuta bilan bog'liq tavakkalchilik natijasida ko'rilgan zararni qoplash tashqi savdo narxida ko'zda tutilgani sababli qo'shimcha xarajatlar ko'payib keladi. Shu bois, dunyodagi rivojlangan yetakchi mamlakatlar valyuta kursidagi nomutanosiblikni bartaraf etish va valyuta kursidan makroiqtisodiyotni tartibga solib turish vositasi sifatida foydalanish (savdo va to'lov balansi, yalpi ehtiyoj) orqali milliy iqtisodiyotni har tomonlama koordinatsiya qilish siyosatini olib borishga intiladi.

Inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi omillar. XX asrning ikkinchi yarmida dunyo bozorida narxlarning ko'tarilishi «taklif inflyatsiyasi» deb nomlangan holat bilan bog'liq bo'lgan. Ushbu holatda umumiy narxning o'sishi tabiiy resurslarga bo'lgan xarajatlarning o'sib ketganida ifodalanadi: neft va boshqa energiya manbalarini

qazib olish va ancha qimmat bo'lgan energiya manbalaridan foydalanish munosabati bilan ularning bahosi oshib ketgan.

Klassik nazariyada inflyatsiya - davlat byudjeti taqchilligi natijasida sodir bo'lib, jahon bozorida dollarda ifodalangan narxlarga kamroq ta'sir etadi.

Inflyatsiyani tiyib turish omili - ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'lib, «taklif inflyatsiyasi» ishlab chiqarishda material va energiya hajmi sarfini kamaytirish yo'li bilan bosib turiladi, klassik inflyatsiya mehnat va kapital sarfini kamaytirish orqali tiyib turiladi.

Yirik xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va hukumat institutlari ta'siri. Jahon hamjamiyati dunyo bozorida narxlarni barqaror bo'lishidan manfaatdor bo'lib, bu quyidagilarda ifodalanadi:

- ❖ barqaror narxlar jahon xo'jaligining muvozanatlashgan va jadal intensiv rivojini ta'minlovchi qulay investitsion muhitni tashkil etish va saqlashga imkon tug'diradi;

- ❖ narxlarning keskin o'zgarishi tovar ishlab chiqaruvchilar hamda tovarlar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilar manfaatlariga zarari tegishi bilan ijtimoiy munosabatlarni bevosita keskinlashuviga olib keladi.

Ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning jahon narxlari ikki asosiy darajada, ya'ni milliy va xalqaro darajada tartibga solinadi. Narxlar iqtisodiy va ma'muriy usullar yordamida tartibga solinadi.

Narxlarni davlat tomonidan tartibga solish deyilganda butun tizimning barqaror rivojlanishiga yordam berish maqsadida narxlarga qonunchilik, ma'muriy va moliya-byudjet ta'siri o'tkazish tushuniladi. Narxni davlat tomonidan tartibga solish shakllari turlicha bo'ladi:

- ➡ ishlab chiqarishda sohasida va tovar muomalasida davlatning bevosita ishtiroki;

- ➡ tovar bozorining talab ehtiyojini va taklif muvozanatiga ta'sir o'tkazish;

- ➡ monopoliyaga qarshi qonunchilik vositasida ta'sir etish;

- ➡ daromadlar siyosatini olib borish;

- ➡ pul muomalasi orqali bozor kon'yunkturasini tartibga solish;

- ➡ pul muomalasi aniq holatini hisobga olgan holda mazkur usullarni uyg'unlashtirish;

- ➡ narxlarni tartibga solishda bevosita va bilvosita usullardan foydalanish.

Bevosita tartibga solish usulidan asosan jamiyatga xizmat qiluvchi tarmoqlarda (energetika, transport, aloqa, suv ta'minoti va h.k.) foydalaniladi.

Narxlar va tariflar qoidaga ko'ra, monopoliyalarga nisbatan daromadning katta bo'lmagan normasi va ularning aholiga realizatsiya qilingan tovarlaridan kelgan daromadning yuqori normasidan kelib chiqib o'rnatiladi.

Davlat narxlari ham aholiga xizmat qiluvchi tarmoqlarni rag'batlantirish hamda milliy iqtisod rivojlanishining yuqori sur'atlarini ta'minlash maqsadida tartibga soluvchi vosita hisoblanadi.

Tartibga solishning bevosita usuli sifatida (AQSh, Frantsiya, Belgiya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlarda) ma'muriy narx o'rnatish usulidan foydalaniladi.

Narxlarni tartibga solishning bu usuli yirik monopoliyalar uchun juda qo'l keladi, ular tovarlar va xizmatlarni ancha past bo'lgan ma'muriy narxlarda sotib olib, foyda ko'radilar.

Narxlarni bilvosita tartibga solish usulida qiymatning shakllanishini aniqlanib beruvchi omillarning ta'siri ko'zda tutiladi. Eng avvalo, yalpi talab va taklifni fiskal - pul kredit va valyuta siyosati orqali tartibga solish ko'zda tutiladi. Bu ishlab chiqarish va bandilikni rag'batlantirish va shu orqali iste'mol bozorini tartibga solish imkonini beradi. Bundan tashqari, davlatning investitsiya, amortizatsiya, tabiiy rentalar, ish haqi siyosatlarini chora-tadbirlaridan ham narxlarni bilvosita tartibga solishda foydalaniladi.

Davlat tomonidan narxlarni tartib solish, ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish va sotishda keng qo'llaniladi. Narxlarni davlat tomonidan tartibga solib turish fermerlar ishlab chiqargan mahsulotlar narxlarini bir xil darajada ushlab turish bilan ma'lum miqdorda daromad olishlari va jamg'arma jamg'arishlarini ta'minlashga ham qaratilgan. Bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash imkonini beradi. Shuning uchun AQShda qishloq xo'jalik mahsulotlarining kafolatlangan narxi darajasidan bozor narxi pasayib ketgudek bo'lsa, davlat fermerlarga federal byudjetdan subsidiyalar beradi.

Hukumat yoki yirik xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (TNK, monopoliya va boshqalar) jahondagi narx darajasiga dumping orqali ta'sir o'tkazishlari mumkin. Bundan kuzatilgan maqsad ma'lum bir tovarlarga yoki tovarlar guruhini jahon bozorida ichki bozordagi narxga nisbatan arzonroq sotish bilan tashqi bozorni egallashdan iborat. Bundan ko'riladigan zarar tashqi bozordagi narxni ko'tarish hamda import mamlakatlari iqtisodiyotiga suqilib kirish bilan qoplanadi.

Narxlar shakllanishining o'ziga xos omillari

Alohida shartnomalar asosida yetkazib beriluvchi ma'lum bir tovar turi va xizmat narxlari aynan shu xildagi tovar turi va xizmat narxlarining jahon bozorida darajasidan farq qilishi mumkin. Bu holat tovarning o'ziga xos sifat belgilari, tovari yuklash va to'lovi, yuklangan turkumning (partiyasi) hajmi. har

ikki tomon munosabatlarining xarakteri bilan bog'liq holda tuzilgan shartnomaning o'ziga xos talablari bilan izohlanadi.

Xalqaro savdoda narxlar turlarining ko'pligi shart-sharoitlarning har xil ekanligini aks ettiradi. mana shunday sharoitda oldi-sotdi aktlari tuziladi. Kuzatuvlar jahon narxining o'zgarib turish tendentsiyasi ana shu shart-sharoitlarga ham bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Tovarlarining o'zgaruvchan narxini aniqlash tovar sifatining doimiyligini, bir xil sharoitdagi yuklash va to'lovlarning taqqoslab ko'rishni talab qiladi. Shuning uchun tovarning tashqi savdo narxini asoslash; aniqlash va kelishib olishda kelishuvning o'ziga xos tomonlarning belgilab beruvchi tabiati haqida aniq tushuncha tasavvurga ega bo'lish kerak.

Misol uchun texnologik mashina mahsulotlari, murakkab texnik tovarlari savdosini olib ko'raylik, bu savdo ishlab chiqaruvchi - sotuvchi va iste'molchi - xaridorning bevosita ishtirokida o'tkazilib, tovarni yetkazib berishning barcha shart-sharoitlari kelishib olinadi.

Xalqaro savdo sohasida qo'llaniladigan jahon narxlari turlarining ko'pchiligiga qarab quyidagicha turkumlash mumkin. Oldi-sotdi bo'yicha konkret operatsiyalar o'tkazishni hisobga olgan holda:

✱ **Shartnomaviy narx** - sotuvchi va xaridor o'rtasida kelishilgan va shartnomada ko'rsatilgan aniq baho;

Odatda u yetkazib beruvchi taklif etgan bahodan past bo'lib, tijorat siri sifatida hech qayerda oshkor etilmaydi.

✱ **Ma'lumot beruvchi narxlar** maxsus nashrlarda, byulletenlarda, davriy adabiyotlarda, kompyuter ma'lumot kanallarida e'lon qilinadigan sotuvchi bahosi bo'lib, qoidaga ko'ra, ular ancha balandroq va kam harakatchan bo'ladi. Mazkur tovar bozorda yuzaga kelgan umumiy dinamika va tendentsiyani ifodalaydi.

✱ **Birja narxlari** - birja orqali sotiladigan tovarlar bahosini aks ettiradi. Bu asosan xomashyo tovarlari va yarim fabrikatlar bo'ladi. Birja savdosiga qo'yilgan tovarning bozordagi konyunkturasini o'zida ifodalaydi, ko'p hollarda noiqtisodiy omillar ta'siriga tushib qoladi; kelishuv chog'ida tovarning birja kotirovkasining, tovarni yetkazib berishni, to'lovni va boshqalarni o'zida ifoda ettirmaydi, kotirovka bahosi maxsus byulletenlarda bosib chiqariladi. Alohida tovarlar turlarining kotirovka narxlari ko'pincha ayrim birjalarda tarkib topgan narx darajasi va dinamikasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

✱ **Auksion narxlar** - tovarning savdo jarayonida vujudga kelgan bahosi bo'lib, ma'lum bir davrdagi talab va taklifni aks ettiruvchi va tovarning real bahosidir. Auksionlarda asosan san'at asarlari, mo'yna, hayvonlar kabi o'ziga xos tovarlar realizatsiya qilinadi.

✱ **Tashqi savdoning statistik narxlari** - milliy va xalqaro statistik ma'lumotnomalarda bosilgan hisob-kitob narxlari, bu ma'lumotlar ma'lum bir tovarda aniq, konkret bahoni aks ettirmaydi. Asosan faqat mamlakatlar va umumjahon tashqi savdosi rivojining dinamikasi va tendentsiyasini umumiy tahlili va statistik hisob-kitoblar uchun xizmat qiladi.

✱ **Jahon bozor narxining** vujudga kelishining xususiyatlariga qarab «erkin bozor» va «yopiq bozor» narxlariga bo'linadi. «Erkin bozor» bahosi raqobat sharoitida yuzaga keladi va talab bilan taklif nisbatini aks ettiradi. Tovarlarni realizatsiya qilish uchun ma'lum bir joyda tashkil etilgan, auksion savdolar birjalarga oid baholar hisoblanadi. «Yopiq bozor» bahosi sotuvchi va xaridor o'rtasidagi o'ziga xos munosabat bo'lib, mazkur tovarga talab va taklif ob'ektlarining ta'siri kam bo'ladi. Bu baholar firmalarda ichki savdo, iqtisodiy guruhlarining mintaqaviy hamda mahsus preferentsial kelishuvlar bahosidir.

Kelishuv xizmati xiliga qarab bahoning quyidagi turlari mavjud:

- ✓ erkin konvertirlanadigan valyutada to'lanadigan savdo bitimlari narxi;
- ✓ erkin konvertirlanmaydigan valyutada to'lanadigan savdo bitimlar narxi;
- ✓ kliring kelishuvlar bo'yicha shakllangan narx;
- ✓ nosavdo operatsiyalari bo'yicha shakllangan narx;
- ✓ transfert narx (firma ichida).

Tovar va xizmatlarni olib kirish - olib chiqilishiga qarab narxlar. FAS va FOV eksport narxlariga ajratiladi. Bu narxlar bo'yicha eksport qiluvchi firma import qiluvchiga tovar narxiga transport xarajatlarini ham o'z ichiga olgan narxda sotadi. Bunda tovarni kema bortiga (FAS) yetkazib berish, yoki yuklash xarajatlarini qo'shib hisoblab kema bortiga chiqarib berish ko'zda lutiladi.

CIF import narxlari - FOB narxidan tashqari yukni eksport qiluvchi yoki import qiluvchining mamlakat chegarasigacha transportda yetkazib berish va sug'urta xarajatlarini o'z ichiga oladi.

Kelishuvlarni o'rnatish qoidalari:

- -shartnoma narxi tomonlar kelishuvi asosida belgilanadi. Qoidaga ko'ra, turli davlat hukumatlari o'rtasidagi shartnoma va kelishuvlar asosida aniqlanadi;
- -birja kotirovkalari, auksion savdolar narxi;
- yirik firmalarning taklif narxlari va amaldagi bitimlar narxi;
- -xalqaro bitimlarda ishtirok etuvchi mamlakatlarning ichki ulgurji narxlari, bu narxlar eksport va importning bojxona bojidan va soliqlari hajmidan farq qiladi.

Eksport qiluvchi mamlakatning eksport narxi; asosiy xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar narxlari, G'arbiy Evropadagi yirik bozorlarining import narxi jahon narxi bo'la olishi mumkin.

- ✪ Alyuminiy bo'yicha -Kanadaning eksport narxi;
- ✪ Yog'och-taxta materiallari bo'yicha Shveytsariya narxi;
- ✪ Kauchuk bo'yicha - Singapur birjasining narxi;
- ✪ Mo'yna bo'yicha - Nyu-York, London va boshqa auksionlar narxlari.

Amaliyotda jahon bozorida o'z tovarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida turli chegirmalar qo'llaniladi. Chegirmalar qo'llanilganda o'rnatilgan summa olib tashlangan bazis narx - jahon narxi hisoblanadi.

Amaliyotda quyidagi chegirmalardan foydalaniladi:

- ❖ tovarni naqd pulga sotib olingandagi miqdori;
- ❖ preyskurant bahosidan umumiy chegirmalar; (asosan kichik hajmli tovarlar uchun belgilanadi)
- ❖ dilerlik chegirmalari;
- ❖ maxsus chegirmalar (idoralamining imtiyozga ega kategoriyalari uchun).

Chegirma o'lchovining har biri konkret holatda alohida aniqlanadi va qoida bo'yicha birinchi taklif etilgan bahosidan 2-10% atrofida bo'ladi. Aniq sharoitlarda chegirma miqdori birinchi taklif narxining 20- 30% iga etishi mumkin.

Jahon narxi darajasi, uning o'zgarib turish tezligi juda ko'p omillar ostida bo'ladi:

- ☑ qiymat omili - ijtimoiy zararli mehnat sarfining o'zgarishi; - kon'yunktura omili - talab va taklif nisbatining o'zgarishi bilan bog'liq;
- ☑ davlat tomonidan tartibga solib turish omili - davlatning xalqaro savdo sohasida olib boradigan iqtisodiy siyosati;
- ☑ valyuta- moliya omili - valyuta bozorining ahvoli;
- ☑ siyosiy omil - harbiy-siyosiy vaziyat.

XX asrning ikkinchi yarmida mamlakatlar, dunyo xo'jaligi ham-da xalqaro iqtisodiy munosabatlarning iqtisodiy-siyosiy rivojlanishi o'ziga xosligi jahon bozorida narxlarning shakllanishida o'z ifodasini topdi.

XX asrning ikkinchi yarmida jahon narxlarining shakllanish xususiyatlari:

XX asrning ikkinchi yarmida eksport narxlari o'sishi dinamikasida ko'tarilish tendentsiyasi kuzatildi, ayniqsa, xom ashyo gruppasidagi yonilg'i narxi ko'tarildi, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarida unchalik katta ko'tarilish bo'lmadi.

Narxlarning birinchi marta katta ko'tarilishi Ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, ikkinchisi 1970 yil o'rtalari bo'lib o'tgan energetika inqirozi natijasida ro'y berdi.

XX asrning 50-60 yillari jahon eksportining barcha tovarlarining indeks narxi o'rtacha ko'tarilishi bilan xarakterlandi.

XX asrning 80-90 yillarida oziq-ovqat mahsulotlari, xom ashyolarning ba'zi bir turlari, yonilg'i, tayyor mahsulotlar narxi pasaydi.

3.2. Tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda to'lov balansining ta'siri va istiqboldagi rivojlanish ko'rsatkichlari

To'lov balans - mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt (odatda bir yil) oralig'ida amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

Iqtisodiy bitimlar – qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya'ni tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o'tishi bo'yicha kelishuvlardan iborat. Har qanday bitim ikki tomoniga ega bo'ladi va shu sababli to'lov balansida ikki tomonlama yozuv tartibiga rioya qilinadi. Har bir bitim to'lov balansining debet va kredit qismlarida o'z ifodasini topadi.

Kredit – qiymatning mamlakatdan chiqib ketishi bo'lib, uning hisobiga mazkur mamlakat rezidentlari chet el valyutalarida qoplovchi to'lovlar ekvivalentini oladi. Debet – qiymatning mazkur mamlakatga kirib kelishi bo'lib, uning hisobiga rezidentlar chet el valyutalarning sarflaydi. To'lov balansida kreditlar umumiy summasi debetlarning umumiy summasiga teng bo'lishi zarur.

To'lov balansidagi barcha bitimlar o'z ichiga joriy va kapital bilan operatsiyalarni olishi sababli, u uchta tarkibiy qismdan iborat bo'ladi (3.1.1-jadval):

- 1) joriy operatsiyalar hisobi;
- 2) kapital harakati hisobi;
- 3) rasmiy zaxiralarning o'zgarishi.

To'lov balansining tuzilishi


I. Joriy operatsiyalar hisobi	
1. Tovar eksporti	2. Tovar importi
Tashqi savdo balans qoldig'i	
Xizmatlar eksporti (chet el turizmidan daromadlar va h.k. - kreditli xizmatlar)	Xizmatlar importi (turizm uchun chet elga to'lovlar va h.k. - kreditli xizmatlar)
5. Investitsiyalardan sof daromadlar (kreditli xizmatlardan sof daromadlar)	
6. Sof transfertlar	
Joriy operatsiyalar bo'yicha balans qoldig'i	
II. Kapital harakati hisobi	
7. Kapital kirishi	8. Kapital oqib chiqishi
Kapital harakati balans qoldig'i	
Joriy operatsiyalar va kapital xarakati balans qoldig'i	
III. Rasmiy zaxiralarning o'zgarishi	

Mamlakatning **tashqi savdo balans (to'lov balans)** mazkur davlatning chet ellik sheriklari bilan xalqaro iqtisodiy munosabatlarning holatini ifodalab, uning kredit-pul, valyuta, budjet-soliq, tashqi savdo siyosatini amalga oshirish va davlat qarzlarini tartibga solishi uchun indikator bo'lib xizmat qiladi.

Joriy operatsiyalar hisobi o'z ichiga tovar va xizmatlar eksporti («+» belgisi bilan), import («-» belgisi bilan), investitsiyalardan sof daromad va sof transfertlarni oladi. **Tovarlar eksporti va importi o'rtasidagi muvozanat (tenglik) savdo balansini tashkil qiladi.**

Tovar eksporti kredit sifatida chiqib, milliy bankda chet el valyutalari zaxiralarini vujudga keltiradi. Import esa («debet» grafasida «-» belgisi bilan) mamlakatdagi chet el valyutalari zaxirasini qisqartiradi.

Investitsiyalardan sof daromadlar (chet eldan sof omilli daromadlar) kreditli xizmatlardan olinadigan sof daromad hisoblanib, u chet ellarga qo'yilgan milliy pul kapitali hisobiga keladi. Agar chet elga qo'yilgan milliy kapital mazkur mamlakatga qo'yilgan chet el kapitaliga qaraganda ko'proq miqdorda foiz va dividend keltirsa, bunda investitsiyalardan olinadigan sof daromad ijobiy, aks holda esa salbiy bo'ladi.



3.2.1-chizma: Qashqadaryo viloyatining 2014 yildagi eksport tarkibi


Sof transfertlar xususiy va davlat mablagʻlarning boshqa mamlakatlarga oʻtkazilgan summasini bildiradi (pensiya, sovgʻa, chet elga pul oʻtkazishlar yoki chet mamlakatlarga insonparvarlik yordamlari). Bunday toʻlovlar mamlakatda mavjud chet el valyutalari zaxirasini kamaytiradi.

Makroiqtisodiy modelda joriy operatsiyalar hisobi qoldigʻi quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{array}{ccccccc} X & - & M & = & X_n & = & Y - (C+I+G) \\ \text{eksport} & & \text{import} & & \text{sof eksport} & & \text{YAIM absorbsiya} \end{array}$$

Absorbsiya - yalpi ichki mahsulotning mazkur mamlakatdagi uy xoʻjaliklari, korxonalar va davlatga realizatsiya qilinadigan qismi.

Importga toʻlovlar eksportdan olingan daromaddan ortiqcha boʻlsa, bu mamlakatning joriy operatsiyalar boʻyicha balansi taqchilligini bildiradi. Bu taqchillik chet el qarzlari yordamida, yoki aktivlarning bir qismini chet elliklarga sotish yoʻli bilan moliyalashtiriladi va bu kapital harakati hisobida aks etadi.



3.2.2-chizma: Qashqadaryo viloyatining 2014 yildagi import tarkibi

Eksportdan olinadigan daromad importga sarflardan ortiq bo'lsa joriy operatsiyalar hisobi ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi.

Kapital harakati hisobida aktivlar bilan amalga oshiriladigan barcha xalqaro bitimlar o'z ifodasini topadi. Bular chet elliklarga aksiyalar, obligatsiyalar, ko'chmas mulk va h.k. sotishdan olinadigan daromadlar hamda chet eldan aktivlar sotib olish natijasida vujudga keladigan sarf xarajatlar.

$$\text{Kapital harakati balansi} = \text{Aktivlar sotishdan tushumlar} - \text{Chetdan aktivlar sotib olishga sarflar}$$

Chet el aktivlarini sotish chet el valyutalari zaxiralarini ko'paytiradi, ularni sotib olish esa valyutalari zaxiralarini kamaytiradi. Kapital harakati hisobi ham taqchillikka va ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi.

To'lov balansining taqchilligi Markaziy bank rasmiy zaxiralarini qisqartirish hisobiga moliyalashtirilishi mumkin. Rasmiy zaxiralarning asosiylari quyidagilar:

- chet el valyutalari;
- oltin;
- mamlakatning XVFdagi kredit ulushi;
- qarz olishning maxsus huquqi (SDR) va h.k.

Balans taqchilligi rasmiy zaxiralar hisobiga moliyalashtirilganda ichki bozorda chet el valyutalari taklifi ortadi, milliy valyutalar taklifi esa nisbatan kamayadi va uning ayirboshlash kursi nisbatan o'sib milliy iqtisodiyotga inqirozli ta'sir ko'rsatadi.

Aksincha, to'lov balansining aktiv qoldig'i Markaziy bank rasmiy valyuta ehtiyojlarining o'sishi bilan birga borganda ichki bozorda chet el valyutalari taklifini kamaytiradi, milliy valyuta taklifi esa nisbatan ortadi va uning ayirboshlash kursi pasayib, iqtisodiyotga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy bank tomonidan chet el valyutalarining bunday sotilishi va sotib olinishi **rasmiy zaxiralar bo'yicha operatsiyalar** deyiladi. Bu operatsiyalar Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari bilan bir xil emas. Rasmiy zaxiralar bo'yicha operatsiyalar natijasida joriy hisobdagi qoldiq summasi, kapital harakati hisobi va zaxiralar miqdorining o'zgarishi nolni tashkil qilishi zarur.

Mamlakat uzoq davr davomida joriy operatsiyalar bo'yicha taqchillikni bartaraf qilishni kechiktirishi va o'zining rasmiy valyuta zaxiralarini to'liq sarflashi natijasida to'lov balansi inqirozi kelib chiqadi. Mamlakat tashqi qarzlarni to'lash holatida bo'lmaganligi sababli, chet eldan kredit olish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Iqtisodiyot subyektlarining davlat va Markaziy bank siyosatiga ishonchsizligi to'lov balansi inqirozini chuqurlashtiruvchi omil hisoblanadi. Milliy valyuta qadrsizlanishining kutilishi chet el valyutalariga chayqovchilikka qaratilgan talabni rag'batlantiradi. Bu Markaziy bankning milliy valyuta qadrsizlanishining oldini olishga qaratilgan harakatini ancha qiyinlashtiradi, chunki uning rasmiy valyuta zaxiralari bir vaqtda to'lov balansining taqchilligini moliyalashtirish va chet el valyutalariga o'sib boruvchi chayqovchilik talabini qondirish uchun yetarli bo'lmay qoladi. Bunday holda valyutalarning «xufyona bozori» vujudga kelib, rivojlana boshlaydi.

Respublikamizda davlat budjeti taqchilligi ijobiy tavsifga egaligi, tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldog'a erishilganligi (2008 yil 4068,8 mln. AQSH dollari miqdorida) va oltin-valyuta zaxiralarimizning yildan-yilga ko'payib borayotganligi orqali «O'zbekiston o'zining ishonchli va to'lov qobiliyatiga ega hamkor ekanini, mamlakatimizda chet el sarmoyasini jalb etish bo'yicha har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratilganini amalda isbotlamoqda»¹⁷.

¹⁷ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 10-b.

3.3. Jahon xizmatlar savdosi va xalqaro raqobatlashuvning tashqi iqtisodiy aloqalar samaradorligini oshirishdagi ahamiyati

Xizmatlar ko'rsatish va servis odamlarning xilma-xil keng ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan ko'p qirrali majmua faoliyat turlari va tijoriy mashg'ulotdir. YUNTKAD va Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan «Xalqaro transaksiyalarni xizmatlar bilan liberallashtirish»da xizmatlarga quyidagi aniqlik beriladi:

Xizmatlar (services) – institutsional birliklar nizomidagi o'zgarish bo'lib, qaysikim boshqa bor institutsional birlik bilan o'zaro kelishuv asosida va harakat natijasida ro'y beradi.

Bu aniqlik ko'p qirrali operatsiyalar firma doirasini qamrab oladi. Shuning uchun xizmat tushunchasi keng va tor ma'noda narxlanadi. *Birinchi holda* xizmatlar – insonning tijoriy mashg'uloti va xilma – xil majmua turdagi faoliyatidir. Uning vositasida u boshqa odamlar bilan munosabatga kirishadi, *ikkinchi holda* –konkret aksiya, tadbir bo'lib, qaysikim bir tomon (sharik) boshqa tomonga taklif qilishi mumkin.

Xizmat ko'rsatish va servis bunday aytganda iqtisodiy sektorda uchlamchi deb ataladi. Jahon ichki yalpi mahsulotining 2/3 uning hissasiga to'g'ri keladi. Ular AQSH iqtisodiyotida va boshqa sanoati rivojlangan davlatlarda o'rtacha 65% darajada kuzatiladi. Shuningdek rivojlanayotgan va o'tish jarayonlarini kechayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida esa mutloq ustunlik qiladi.

Xizmatlar tovarlar va ularning moddiy ifodalanishidan bir qator farqlarga ega. U qo'yidagilardan iborat:

- odatda xizmatlar sezilmaydilar. Ko'pchilik xizmatlar bu sezilmasligi va «ko'rinmasligi» ko'pincha tashqi savdoda eksport va importni ko'rinmas (invisible) deb atashga asos hisoblanadi;
- xizmatlar o'z manbasidan ajralmasdir;
- ularni ishlab chiqish va iste'mol qilish odatda uzilmasdir;
- ular uchun sifat, o'zgaruvchanlik va saqlanmaslik harakterlidir.

Xalqaro savdo va iqtisodiyotda xizmatlar soni va roli eng avvalo ilmiy – texnik yuksalish natijasida tez ortadi. Shu jumladan, xalqaro iqtisodiy aloqalar ham kengayadi. Jahondagi ko'pchilik mamlakatlarda, aholining daromadi, to'lov qobiliyati oshadi. Chunki xizmatlar ko'rsatish bir xil emas, ularning bir nechta tavsifi (klassifikatsiyasi) mavjud.

Xalqaro sanoat standartlashtirish tavsifiga asoslangan BMT qabul qilgan xizmatlar ko'rsatish tasnifi o'z ichiga qo'yidagilarni kiritadi:

- kommunal xizmatlar va qurilish;
- ulgurji va chakana savdo, restoranlar, mehmonxonalar;
- tovarlarni yuklash, saqlash, aloqa, moliyaviy vositachilik;
- mudofaa va majburiy ijtimoiy xizmatlar;
- boshqa ijtimoiy va shaxsiy xizmatlar.

Bu tavsif bo'yicha xizmatlar mamlakatlar ichida amalga oshiriladi va iste'mol qilinadi ammo xalqaro savdoda ob'ekt bo'lishi mumkin emas.

XVF tavsifi to'lov balansini tuzishda qo'llanilganda rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi to'lovlar bilan bog'liq holda quyidagi xizmat turlarini o'z ichiga oladi:

- transport;
- safarlar;
- aloqa;
- qurilish;
- sug'urta;
- moliyaviy xizmatlar;
- kompyuter va axborot xizmatlari;
- royalti va litsenziya to'lovlari;
- boshqa biznes xizmatlar;
- shaxsiy, madaniy, rekreatsion xizmatlar;
- xukumat xizmatlari.

Ishlab chiqarish omillari harakati nuqtai nazaridan xizmatlar **omiliy** (factor serves), xalqaro munosabatlari bilan (mamlakatlararo) paydo bo'ladigan ishlab chiqarish omillari joy almashinuviga bo'linadi. Eng avvalo kapital va ishchi kuchlari (ular daromadlarda investitsiyalarga amalga oshiriladi, royalti va litsenziya to'lovlari, norezidentlar tomonidan to'lanadigan ish haqi to'lovlari), va **noomiliy** xizmatlar (non actor services) - qolgan xizmat turlari (transport, sayoxat va boshqa nomoliyaviy xizmatlar).

GATT/BJST (VTO) doirasida xalqaro muzokaralar chog'ida 12 sektorga bo'lingan 160 dan ko'proq xizmat ko'rsatish turlari hisobga olinadi:

- 1) ishga aloqador xizmatlar (46 soha xizmat turlari);
- 2) aloqa xizmati (25 tur);
- 3) qurilish va injiniring xizmatlari (5 tur);
- 4) distribyutor xizmatlari (5 tur);
- 5) umumiy ta'lim xizmatlari (5 tur);
- 6) atrof –muhit muhofazasi bo'yicha xizmatlar (4 tur);
- 7) moliyaviy xizmat, sug'urta qo'shilgan holda (17 tur);
- 8) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar bo'yicha xizmat (4 tur);
- 9) turizm va sayohat (4 tur);
- 10) dam olish, sport va madaniyat sohasidagi xizmatlar (5 tur);
- 11) transport xizmatlari (33 tur);
- 12) boshqa xizmatlar.

GATS BJST doirasida xalqaro savdo xizmatlarini taqdim etish usullari bo'yicha tavsiflanadi. Bunda quyidagi xizmat ko'rsatish turlari ajratib ko'rsatiladi:

davlatlararo chegara savdo xizmatlari;

iste'molchining xizmatlar iste'mol qilinadigan mamlakatda harakatlanishi;

xizmat ko'rsatiladigan mamlakatda tijoriy muassasa ishtiroki;

xizmat taqdim etilishi uchun jismoniy shaxsni boshqa mamlakatga vaqtincha

ko'chirish. Ko'proq xizmat hajmi (80% ga yaqin summa) 1 va 3-usullarga to'g'ri keladi.

XVFnning xalqaro moliya statistikasi uch guruh xizmatlar bo'yicha ma'lumotlar e'lon qiladi:

- transport xizmatlari;
- turizm;
- boshqa xususiy xizmatlar.

Xizmat ko'rsatishning ko'pchilik turlari xalqaro savdo ob'ekti bo'lishi mumkin. Xizmat ko'rsatishning savdosi –bu notovar tijoriy kelishuvdir. Tovarlar bilan savdodan farqli ravishda xizmatlar eksporti yoki importi bojxona chegarasini albatta kesib o'tishni bildirmaydi. Norezidentga xizmat ushbu mamlakat boshxona territoriyasi ichida ko'rsatilishi mumkin, bu holda kelishuv xalqaro hisoblanadi. Tovarlar eksporti va importi bo'yicha to'lovlar singari xalqaro xizmatlar savdosi to'lov balansida aks ettiriladi.

Xalqaro xizmatlar eksporti xalqaro savdoga nisbatan tez o'sib bormoqda. Xizmat ko'rsatish eksporti 1980 y. 402 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 1990 y. -802 mlrd. dollar, 2000y. – 1435 mlrd. dollar, 2004 y. -1490 mlrd. dollar, ya'ni ikki o'n yillikda 3,6 baravardan ko'proq o'sdi. Xalqaro savdoda tovarlar va xizmatlar eksport ulushi 20% dan ko'proqni tashkil qiladi. Biroq bu ko'rsatkich borgan sari o'sib borayapti. 2015 yilga borib, Rossiya Fanlar Akademiyasi qoshidagi Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar instituti bahosi bo'yicha 25 -30% ni tashkil qilishi mumkin. Yangi–yangi xizmat turlari xalqaro savdoga qo'shilmoqda. Ilgari milliy doirada cheklangan xizmatlar roli ko'paymoqda (ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqalar). Boshqa tomondan, ko'p hollarda yirik va uzoq muddatli kelishuvlarda mos keladigan xizmatlar eksporti va tovarlar eksportini chegaralash ancha qiyin.

Ta'kidlash lozimki, «ko'rinmas» savdo xususiyati shundan iboratki, ko'pchilik xizmat ko'rsatish turlarini sof holda eksport qilib bo'lmaydi. Chunki xizmatlar ishlab chiqarish jarayonlari va iste'mol jarayonlarini makonda va zamonda (vaqtda) bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan GATS xizmatlar ko'rsatish savdosini amalga oshirishning to'rt usulini ajratadi:

- transchegara davlatlararo savdosi, ya'ni milliy iste'molchi xorijlik yetkazib beruvchi xizmatini sotib oladi;
- kommersiya (oldi-sotdi) asosidagi savdo. Qaysikim, xorijiy kompaniya o'z filialini yaratadi yoki milliy kompaniya chegara savdosi shaklidagi kompaniyalarni o'ziga qo'shib oladi. Yaxshi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi va har yillik iste'molchilarga xizmatlarni sotadi;
- xizmatlarni iste'mol qilish yoki ma'lum bir mamlakatning iste'molchilari xorijdagi xizmatlarni sotib olishi (jumladan, chiqish turizmi);
- jismoniy shaxslar migratsiyasi chog'ida, ya'ni xorijiy jismoniy shaxs mazkur davlat iste'molchisiga xizmat ko'rsatadi (masalan, chet ellik ishchilar kuchi bilan mehmonxona qurilishiga).

Xizmatlar ko'rsatish eksporti soxaviy tuzilmasida 1980 yillar boshigacha, transport xizmati ustunlik qilgandi. Biroq keyingi ikki o'n yillikda tez rivojlangan «boshqa xususiy xizmatlar» turizmga birinchilikni bo'shatib berdi. «Boshqa xususiy xizmatlar» xizmatlar eksportida birinchi o'rinni egalladi (40% dan ziyod). Chunki ular tarkibiga, xususan moliyaviy, informatsion, kommunikatsion, maslahat xizmatlari kiradi.

Xalqaro xizmat ko'rsatishlar almashinuvi eng avvalo sanoati rivojlangan mamlakatlar guruhlarida amalga oshiriladi. Tovarlar savdosidagi singari bu tendensiya mamlakatlar guruhlarida ulushi salmog'ini qisqartirish, ularning savdo xizmatini qo'shishdan iborat (1990 y oxirida 70% gacha). Natijada yangi industrial va boshqa rivojlanayotgan davlatlarda xizmat ko'rsatish sohasi faollashadi.

Xizmat ko'rsatish savdosi hajmi bo'yicha AQSH yetakchilik qilayapti (jahon eksportining 19%ga yaqini va jahon import xizmatining 14%ga yaqini). Xizmat ko'rsatish savdosi maksimal hajmi bo'yicha AQShda TMK kanallariga to'g'ri keladi.

Eng yaxshi xizmatlar ko'rsatish eksportchi o'n davlatlarga AQSH dan tashqari Buyukbritaniya, Fransiya, Italiya, Germaniya, Yaponiya, Ispaniya, Niderlandiya, Belgiya –Lyuksemburg va Gonkong kirdi. Birinchi o'nlik importerlarga esa – AQSH, Germaniya, Yaponiya, Buyukbritaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Kanada, Belgiya, Lyuksemburg va Xitoy kiradi. Deyarli mos keladigan ro'yxatda Germaniya, Yaponiya, Kanada va Xitoy xizmatlar netto-importyorlari hisoblanadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti tizimida milliy iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish eksportiga ixtisoslashuv haqida ham gapirish mumkin. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda bu eng avvalo moliyaviy, telekommunikatsion, axborot, ishga aloqador xizmatlar, ilg'or texnologiyalardir. Shuningdek, ta'lim, sog'liqni saqlash va turizm bo'yicha xizmatlardir. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar ham xizmatlar ishlab chiqarish va taqdim etishga ixtisoslashmoqda. Jumladan turizm sohasi (Turkiya, Misr, Tailand va boshqa), transport (Misr, Panama va boshqa ochiq kemachilik reestrlari deb ataladigan davlatlar), moliyaviy (Karib dengizi offshor markazlari va Tinch okeani orollari). Xalqaro xizmat ko'rsatish savdosida yangi industrial davlatlar, misol Xitoy va boshqa bir qator davlatlarning roli ham oshmoqda. Rossiya transport xizmati ko'rsatish netto-eksporteri hisoblanadi. Bu yerda tranzitni tashkil etish uchun o'zining Yevroosiyo joylashuvidan foydalanish, yuqori texnologiya va xalqaro turizm xizmatlarini rivojlantirishi istiqbollarga ega. Rossiya xizmatlar eksporti tuzilmasida 33 % transportga, 42% turizm va 25% boshqa «har xil xususiy xizmatlar»ga to'g'ri keladi.

Umumiy tarzda xalqaro xizmat ko'rsatish savdosida asosiy rivojlanish tendensiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

☑ jahon xizmat ko'rsatish savdosi o'sish sur'atlarini jahon tovar-aylanmasi o'sish sur'atlariga taqqoslanganda nisbatan dinamikligidir;

☑ jahon xizmat ko'rsatish eksporti va importida rivojlangan davlatlar ustunlik roli;

☑ jahonning birnecha mamlakatlarida «ko'rinmas» savdoning yuqori to'plangani;

☑ jahon «ko'rinmas» savdosi hududiy taqsimlanishida G'arbiy Yevropa davlatlari ustunlik qiladi, dollarda. Qaysikim, amaldagi tovar aylanmasining deyarli yarimiga to'g'ri keladi.

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, avvalo, uning iqtisodiy va tijorat ko'rsatkichlariga asoslanadi.

O'tgan asrning 60-yillaridayoq xalqaro raqobatbardoshlik tushunchasiga AQShlik iqtisodchilar M.Erlx va Dj.Xaynlar tomonidan «davlat yoki firmaning o'z tovarini sota olish qobiliyati» deb ta'rif berilgan. AQSh Prezidenti komissiyasining 1985 yildagi ma'ruzasida raqobatbardoshlikka - mamlakatning erkin va adolatli bozor sharoitida jahon bozori talablariga javob beruvchi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish yo'li bilan fuqarolarning daromadlarini shakllantirish va oshirish, deb ta'rif berilgan.

Jahon iqtisodiy forumi homiyligida 1986 yildan boshlab 32 ta mamlakatning raqobatbardoshligi to'g'risidagi ma'ruzalar nashr etila boshlandi. Bu ma'ruzalarda mamlakatlar iqtisodiy raqobatbardoshligining umummilliy omillari quyidagicha guruhlashtirilgan: iqtisodiy dinamizm, sanoat samaradorligi, bozor orientatsiyasi darajasi, moliyaviy tizimning dinamikmi, inson resurslari, davlatning firmalarga ta'sir darajasi, tabiiy boyliklar, tashqi savdo va innovatsion orientatsiya, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik. Bu omillar 292 kriteriyaga asoslangan edi.

Jahon iqtisodiy forumining 1991 yildagi ma'ruzasida unga iqtisodiyotning raqobatbardoshlikka ahamiyati va mohiyati, ta'sir etuvchi omillar 330 kriteriyadan foydalangan holda quyidagicha guruhlandi:

- mamlakatning yalpi salohiyati - iqtisodiy potentsiali;
- internatsionallashtirish - davlatning xalqaro savdo va xalqaro investitsiya oqimidagi ishtiroki darajasi;
- hukumat - davlatning rag'batlantiruvchi roli;
- moliya-kapital bozorining faoliyati yuritishi va moliyaviy xizmat si fati;
- infratuzilma - resurslarni biznesning asosiy ehtiyojlariga muvofiqligi;
- fan va texnologiyalar, ilmiy-tekshirish va tajriba-konstruktorlik ishlarining imkoniyatlari va natijaviyligi;
- inson - mehnat resurslarining soni va sifati.

Mamlakatning raqobatbardoshligi yuqorida sanab o'tilgan omillarning o'zaro aloqasi, xo'jalik-siyosiy muhitning o'ziga xosligi, iqtisodiyotini, uning xo'jalik yuritish mexanizmining samaradorligi bilan aniqlanadi. Ayniqsa, mamlakatlar raqobatbardoshligini aniqlashda asosiy e'tibor milliy muhitga, ya'ni: mamlakatni investorlar uchun jozibadorligi, unda hukm surayotgan ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, innovatsiyalarga va boshqa ne'matlarga hamda huquqiy va iqtisodiy moyillikka qaratiladi.

Mamlakatlar raqobalbardoshliligi ilmiy tushunchasi 1990 yilda Garvard biznes-maktabining professori M.Porter tomonidan kiritilgan bo'lib, bu tushunchaga uning «Millatning raqobat ustunliklari» monografiyasida ilmiy ta'rif

berilgan. Uning fikricha, muayyan bir davlatning raqobatbardoshligi asosida unumdorlik, boshqacha aytganda, «ishchi kuchi va kapitaldan samarali foydalanish» yotadi. Alohida bir mamlakatdagi aholining turmush darajasi shu mamlakatda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad ko'rsatkichi bilan o'lchanadi. Bu ko'rsatkichni M.Porter jahon iqtisodiyotida mamlakatning raqobatbardoshligini aniqlashda asos qilib olgan. Mamlakat va firmalar o'rtasidagi farovonlikka tenglik belgisini qo'ysada, amalda bu tenglik dunyoda kechayotgan real jarayonlarni aks ettirmaydi.

Porter tomonidan mamlakatning xalqaro raqobatdagi ahvolini aniqlab beruvchi dunyo ishlab chiqarishining aniq bir tarmog'idagi ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi. Bu ko'rsatkichlar umumiy xarakterga ega bo'lib, shunday muhitni shakllantiradiki, mahalliy firmalar shu muhit ichida raqobatlashadilar. Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining murakkablashganligini hisobga olgan holda Porter tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar to'rtta boshqa-boshqa omilni, ya'ni texnologik innovatsiya, sanoat iqtisodiyoti, iqtisodiy geografiya, xalqaro savdo, siyosiy bilimlar, sanoat sotsiologiyasi, menejment omillarini birlashtiradi.

M.Porter tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar tizimi "raqobat rombi" nomini olib, o'z ichiga quyidagi ko'rsatkichlar guruhini qamrab olgan:

1. Omil shartlari - odam resurslari, tabiiy resurslar, kapital, ilmiy-axborot imkoniyati (tovar va xizmatlar bilan bog'liq barcha to'plangan bilimlar), infratuzilma (hayot tarzi sifatiga ta'sir etuvchi barcha omillar).

2. Ichki talab (ehtiyoj) sharoitlari - eng avval dunyo bozorida rivojlanish tendentsiyasiga moslik va sifatlilik, iste'molchilar «sifati»; ichki imkoniyatning o'ziga xos tomonlarini - talab (ehtiyoj)ning segment tarkibini hisobga olish;

3. Turdosh va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar - odatda, alohida tarmoqlar emas, balki tarmoqlar «guruhi» raqobatbardosh bo'ladi. Shuning uchun kompaniya ham gorizontal, ham vertikal yo'nalish bo'yicha integratsiyalashadi hamda ishlab chiqarishni ma'lum geografik kenglik doirasida birlashtirish (kontsentratsiyalash)ga intiladi.

4. Firmaning tuzilishi va strategiyasi, ichki tarmoq raqobati. Bu mamlakatning ish yuritishdagi milliy xususiyati; investorlar tarkibi mamlakatda raqobatchilikni rivojlanganlik darajasi.

M.Porter davlatning raqobatdagi o'rnini nuqtali (punktir) chiziqqa o'xshatadi, uning fikricha, davlatning to'g'ridan-to'g'ri aralashuvi raqobatbardoshlikka ta'sir etadi. Davlatning asosiy vazifasi tarmoqlarning raqobatini nazorat qilishni ta'minlash hisoblanadi.

M.Porter qo'l ostidagi yana bir guruh olimlar alohida tarmoqning xalqaro raqobatbardoshlik manba va oqimini tahlil qildilar. Bu alohida olingan

mamlakatlar industriyasining raqobatbardoshligi darajasiga qarab tasniflash imkonini berdi. Rivojlanishning har bir shunday bosqichi firmalarning aniq bir tarmog'iga va faoliyati strategiyasiga ham tegishli; davlatning ma'lum darajada iqtisodiyotga, iqtisodiy siyosatning yo'nalishlariga aralashuviga ham tegishli. O'tkazilgan tahlil asosida milliy iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi to'rt kuchga mos (muvofig) raqobatbardoshlikning to'rt bosqichi aniqlab olindi.

Bu bosqichlar - ishlab chiqarish omillari, investitsiyalar, ishlab chiqarishga joriy etilgan yangiliklar yaratilgan boyliklar bosqichlaridan iborat bo'lib, birinchi uch bosqich milliy iqtisodiyot va milliy boylik raqobatbardoshligining rivojlanish va o'sishini o'zida aks ettiradi, to'rtinchi bosqich esa o'sishning asta-sekin susayishi va oxir-oqibatda pasayib ketishini anglatadi.

Mamlakatlarining yanada yuqori bosqichga ko'tarilishi quyidagi sharoitlar bilan izohlanadi:

- ishlab chiqarish omillarining shakllanish mexanizmi, ularning miqdori va sifati;
- iqtisodiy jarayon ishtirokchilarining motivlari;
- kam harakatchanlikni (inertsiani) yengib o'tishga yordam beradigan ichki raqobat;
- talabni (ehtiyoj) mukammallashtirish;
- ayrim omillarning etishmasligi;
- biznesda yangi ishchi o'rinlari yaratish qobiliyati.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun nafaqat barqaror siyosiy iqlim va oqilona makroiqtisodiy siyosat, hatto iqtisodiy rivojlanishning mikroiktisodiy asoslari ham zarur. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning mikroiktisodiy asoslari - ishchanlik muhitini yaratishga qaratilgan firmalarning amaliy raqobati va strategiyasi, raqobatda ustunlik qilish mexanizmini ishlab chiqish va iqtisodiy siyosatga asoslanadi.

Mikroiqtisodiy farqlar ma'lum darajada davlatlararo jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM darajasidagi farqlar bilan tushuntiriladi. Shunga asoslangan holda M.Porter «mamlakatning mikroiktisodiy raqobatbardoshligi indeksi» ko'rsatkichini kiritdi. Aholi turmush darajasi milliy iqtisodiyot unumdorligi o'lchovi hisoblanmish tovar va xizmatlar qiymati, millatning kapital va tabiiy resurslari bilan o'lchanadi. Demak, iqtisodiy rivojlanishning bosh muammosi, ishlab chiqarishni tez va bir tekis o'sishini ta'minlash uchun qulay sharoit yaratib berishdan iborat ekan.

Buning uchun mikroiktisodiy sharoit o'zaro bog'liqlik darajasining murakkabligini aniqlash kerak bo'ladi. Chunki kompaniyalar shu asosda raqobatlashadi, raqobat mikroiktisodiy tushuncha bo'yicha firmalarni malakali kadrlar bilan ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. M.Porter «ishchanlik doirasi»ni

"Raqobat rombi" deb ataydi. M.Porter investitsiyalashning yuqori sur'atlariga yordamlashuvchi davlatning mikroiqtisodiy siyosati firmalarning ishlab chiqarishini o'stirishga yordam bermaydi, deb hisoblaydi. Bu qanday holda ro'y berishi mumkin? Agar unga mos keladigan shakl tanlanmagan, yetarli kasb mahoratiga ega ishchi kuchlari, yordamlashuvchi, qo'llab-quvvatlab turuvchi tarmoq bo'lmasa, shuningdek, tashqi raqobat bosimining kuchi sezilmasa, korporatsiyani boshqarish ta'minlanmagan bo'ladi. Ishga bog'liq axborotlar yetarli bo'lmaganda esa ishlab chiqarish sekin o'sadi.

M.Porter va boshqa bir guruh olimlar tomonidan 2000 yilda yana ikki indeks: «Hozirgi kunda raqobatbardoshlik» va «O'sish raqobatbardoshligi» indeksleri kiritildi.

«O'sish raqobatbardoshligi» indeksi - iqtisodiyotning kelajakdagi o'sishiga yordam beruvchi omillar bo'lib, aholi jon boshiga YaMM ishlab chiqarishning sur'ati bilan o'lchanadi va teng miqdordagi yana uchta indeksga bo'linadi:

- iqtisodiy yaratuvchanlik indeksi. Bu indeks innovatsiyaning iqtisodiy samaradorligi yoki texnologiyaning samarasini o'lchaydi;

- moliyaviy indeks - yig'implarni yuqori sur'at bilan olib boruvchi va investitsiya qiluvchi - moliyaviy tizim samaradorligini o'lchaydi;

- xalqaro indeks - mamlakatning iqtisodiy integratsiyasi darajasini jahondagi boshqa mamlakatlar bilan taqqoslab o'lchaydi.

«Hozirgi kundagi raqobatbardoshlik» indeksi ikki subindeksni o'z ichiga oladi:

- kompaniyalarning strategiya va operatsiyalari murakkabligi indeksi:

- ishchanlik doirasi sifati indeksi.

Xulosa va takliflar

Men ushbu bitiruv malakaviy ishimni o‘zim tanlagan “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish yo‘nalishlari” mavzusida bajardim. Ishda obyekt hisoblangan Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot bosh boshqarmasining 2012-2014 yillardagi ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda modernizatsiyalash, innovatsiyalarni joriy etish hamda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Chunki, hozirgi kunda tashqi iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va takomillashtirishga doir hukumatimiz tomonidan meyoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligi respublikamizda mavjud holatni tartibga solinishida asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekiston jahonning yetakchi mamlakatlari bilan teng huquqli tashqi iqtisodiy aloqalarni o‘rnatgan holda tashqi iqtisodiy siyosatini olib bormoqda.

Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot bosh boshqarmasining ma’lumotlari tahlil qilinishi natijasida hozirgi kunda viloyatimizda 73 eksportga yo‘naltirilgan korxonalar bo‘lib, shundan 45 tasi qo‘shma korxonalardir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini tashqi savdo, faoliyatning ilmiy-texnika, ishlab chiqarish, investitsiya, valyuta-moliya va kredit, axborot, madaniy va sport turlari, malakali mehnat resurslaridan samarali foydalanish zarur. Tashqi iqtisodiy aloqalarning ana shu barcha turlarini quyidagi shakllarga birlashtirish mumkin, ya’ni savdo (tovarlarni ayirboshlash, xizmatlar ko‘rsatish), qo‘shma tadbirkorlik, hamkorlikning boshqa turlari. Ular xalqaro iqtisodiy munosabatlar amaliyotida ayniqsa keng tarqalgan.

2. Tashqi iqtisodiy aloqalar tarixiy va iqtisodiy toifa hisoblanadi.

Tarixiy toifa sifatida tashqi iqtisodiy aloqalar sivilizatsiya mahsuloti hisoblanadi. Ular davlatlar paydo bo‘lishi bilan yuzaga keladi va ular bilan birga rivojlanadi. Ushbu aloqalarning rivojlanishiga ayniqsa feodalizmning tanazzuli kuchli turtki berdi. Natural xo‘jalikdan tovar-pul munosabatlariga o‘tilishi alohida davlatlarning milliy bozorlarini rivojlantirishga va ushbu milliy bozorlarning tovar ayirboshlashida keskin sakrashni tug‘dirdi, bu esa davlat munosabatlarining iqtisodiy sohasida baynalmilal aloqalar va xalqaro ayirboshlash kengayishi va chuqurlashiga olib keldi.

3. Eksportga mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan, shuningdek import tovarlarini xarid qiladigan va qayta ishlaydigan hamda tashqi iqtisodiy aloqalarning boshqa shakllarini amalga oshiradigan tarmoqlar,

birlashmalar, korxonalar, firmalarning jamul-jami mamlakatning tashqi iqtisodiy majmuasini tashkil etadi.

4. Tashqi iqtisodiy majmua uchta asosiy qismdan tashkil topadi:

- ishlab chiqarish faoliyati eksportga mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, shuningdek, import tovarlari va xizmatlarining iste'molchilari hisoblangan korxonalar;

- tovarlarni xorijdagi iste'molchilarga yetkazib berish, shuningdek xorijda ishlab chiqarilgan mahsulotning kelib tushishi bilan band bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish, kadrlarni tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar, axborot bilan ta'minlash va hokazolar vositasida tashqi iqtisodiy aloqalarni ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan tashkilot va muassasalar.

Tashqi iqtisodiy majmuani rivojlantirishning hozirgi bosqichi faoliyatning ishlab chiqarish va savdo turlarini bevosita, barqaror va uzoq muddatga birlashtirish hamda majmuani dinamik va muvozanatlashtirilgan ilmiy-ishlab chiqarish tijorat tizimiga aylantirish zarur.

Eksport salohiyatini oshirish, qo'shma tadbirkorlikning turli shakllariga kiritish, raqobat qiluvchi ishlab chiqarishlarning mavjudligi, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda mintaqalar, korxonalar, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning mustaqilligini oshirish O'zbekiston tashqi iqtisodiy majmuasini muvaffaqiyatli rivojlantirish shartlari hisoblanadi.

5. Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida respublikada duch kelayotgan asosiy qiyinchiliklar quyidagilar:

- TIALarning o'zgaruvchan shart-sharoitlarini inobatga oluvchi, ularni davlat tomonidan tartibga solishning ilmiy asoslangan konsepsiyasini mavjud emasligi;

- tashqi savdoning tashkiliy infratuzilmasi va eksportga real ko'maklashishning sust rivojlanishi;

- TIA qatnashuvchilarining aksariyat qismida tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan bozor iqtisodiyoti, jahon bozoriga kirish shart-sharoitlari, huquqiy va texnik jihatlari to'g'risidagi maxsus bilimlarning yetishmasligi;

- jahon bozorlari haqida kerakli tijoriy ma'lumotlarning yetishmovchiligi yoki yo'qligi;

- tashqi savdoning funksional sohalarida texnik qo'llab-quvvatlash ko'pchilik turlarining mavjud emasligi;

- bojxona va eksport-import nazoratini kompyuterlashtirish va avtomatlashtirishning talab darajasida emasligi.

TIA sohasida erishilgan yutuqlar bilan birgalikda uning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammolar ham saqlanib qolmoqda. Ularni bartaraf etishda har tomonlama ilmiy asoslangan tashqi iqtisodiy siyosat konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish zaruriyati tug'iladi.

Shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflarni bildiraman.

1. Tashqi iqtisodiy siyosat makroiqtisodiy barqarorlashtirish, ishlab chiqarish bazasini bosqichma-bosqich modernizatsiyalashtirish va investitsion faoliyatni jonlantirishga qaratilgan hukumat umumiy siyosatining ajralmas qismi bo'lishi kerak.

2. Eksport qiluvchilarni amaliy qo'llaydigan, ham uzoq xorijiy mamlakatlar, ham MDH bozorlarida o'zbek mahsulotlari harakati uchun qulayliklar tug'diruvchi choralarni qabul qila turib, eksport va importning samarali tovar tarkibini maqsadli shakllantirgan holda faol tashqi iqtisodiy strategiyaga o'tish juda zarur.

3. Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyati mamlakat korxonalarining mashina va uskunalari, texnologiya va axborotlar, kapitallar jahon bozorlariga, transport kommunikatsiyalariga kira olishi; korxonalar mahsulotining transmilliy korporatsiyalar nazorat qiladigan yoki chet el davlatlari va ular ittifoqlarining protensionistik g'ovlari bilan himoyalangan bozorlarga kirib borishiga siyosiy, moliyaviy va axborot madadini ko'rsatishni ta'minlashi lozim.

4. Chet el mamlakatlari va ularning savdo - iqtisodiy guruhlarini, tashkilot va ittifoqlari bilan munosabatlarda qulay savdo va siyosiy rejimni barpo etish, mavjud va ehtimoliy kamsituvchi cheklashlarni olib tashlash, MDH mamlakatlari bilan munosabatlarda turli savdo-iqtisodiy g'ovlarni bartaraf etish zarur.

5. Kreditor mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda valyuta-moliya muammolarini uzoq muddatga tartibga solish hamda O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qiladigan valyuta, eksport, bojxona nazorati bo'yicha samarador tizimni shakllantirish maqsadga muvofiq.

6. Tashqi savdo, iqtisodiy, ilmiy va madaniy alokalarda respublikaning eksport imkoniyatlarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish hamda importning o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarni jadal rivojlantirish zarur.

7. Eksport tarkibini xom ashyo resurslaridan O'zbekiston uchun qulayroq shakllarga, ya'ni qishloq xo'jaligining qayta ishlangan tayyor mahsulotlarini, yengil sanoat va ko'p bilim talab qiladigan tarmoqlar buyumlarini eksport qilish tomon chuqur qayta o'zgartirishni amalga oshirish lozim.

8. Tarkibiy qayta qurish, aholi hayot ta'minotining kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarini hal etish uchun respublikaning valyutaga bo'lgan katga ehtiyojini hisobga olgan holda dastlabki paytlarda paxta, tola, lint, pilla, rangli metallar, kaprolaktam, karbamid va boshqa mahsulotlar asosiy eksport resurslari sifatida saqlanib qolishini, tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish bo'yicha aniq maqsadni ko'zlagan siyosat yuritish, xorijiy sheriklar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatilishida katta erkinlik berish, o'z mahsulotlarini chet elda sotish, tovarlarni eksport va import qilishda imtiyozliroq tartibni joriy etishni takomillashtirish.

9. Imtiyozli boshqaruv va soliq tartibini vujudga keltirish yo'li bilan eksport ishlab chiqarish sohasida korxonalarning investitsiya va iinovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, xorijiy investitsiyalarning asosan to'g'ridan-to'g'ri kapital kapitallar ko'rinishida respublika iqtisodiyetiga keng jalb qilinishi uchun huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa zarur sharoitlarni yaratish, qo'shma korxonalar tashkil etilishiga ko'maklashish, shuningdek investorlarning manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash hamda xorijiy kreditlardan, eksport qilishdan olingan valyuta mablag'laridan chet eldan hayot uchun muhim oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlovchi, ishlab chiqaruvchi korxonalarni texnika bilan qayta jihozlash uchun texnologik asbob-uskunalar sotib olishda foydalanish lozim.

10. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi qonunlarni yaratish, diplomatiya ishi uchun, shuningdek xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida, bank tizimida va boshqa yangi tashkil etilayotgan tuzilmalar uchun malakali mutaxassislar tayyorlash, talabalar va mutaxassislarni chet ellardagi yetakchi o'quv va ilmiy markazlarida, xorijiy firmalar, banklar va kompaniyalarda o'qitishni hamda malaka oshirishlarini tashkil etishni kengaytirish.

11. Viloyatda tashqi iqtisodiy faoliyat tarmoqlari majmuini ixtisoslashtirilgan tashqi savdo, lizing, konsalting va sug'urta firmalarini, tashqi aloqalarni rivojlantirish manfaatlari va shartlariga javob beradigan transport, aloqa va kommunikatsiyalar tizimlarini vujudga keltirish hamda chet ellarda o'z savdo va axborot vakolatxonalarini ochish, o'zimizning patent-litsenziya ishlari tizimini yo'lga qo'yish, respublika fuqarolari va yuridik shaxslarining ma'naviy mulkini himoya qilish uchun xalqaro bitimlarga qo'shilish, mahsulotni standartlash va sertifikatlash xalqaro tizimiga izchillik bilan o'tishni tashkil qilish zarur.

12. TIAni rivojlantirishda davlat ishtiroki meyorlari optimal variantini topish kerak, bunda asosan tarmoqlar taraqqiyoti va hududiy salohiyat darajalarini to'g'ri baholanishi, undan tashqari sohalarda sarmoya jalb qilishning usullarini ko'rsatish. Bunday usullarga masalan: xorijiy sarmoyadorlarni jalb qiluvchi

reklamalardan foydalanib, ular foydasini olib chiqib ketishiga ishonchli kafolat berish.

13. Xar xil yashirin proteksionistik usullarni qo'llash orqali notarif usullardan voz kechish. Masalan, kvota, litsenziya rasmiyatchiliklari kamaytirish evaziga sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan talabni oshirish orqali yashirin proteksionistik usullarni rag'batlantirish.

14. Respublikaning eksport qudratini rivojlantirish va yanada mustahkamlash, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish, eksport imkoniyatini kengaytirish, jahon bozorlariga kirib borish uchun, avvalo, qimmatbaho xom ashyoni qayta ishlash negizida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarni rivojlantirish zarur, eksportni kengaytirishga qaratilgan strategiyani faol qo'llanish bilan bir qatorda importning salmog'ini qisqartirishga qaratilgan siyosatni izchillik bilan o'tkazish. xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat, bank tizimi, hisob-kitob va statistik hisobot sohasida malakali kadrlar tayyorlashni tashkil qilish lozim.

Xullas, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish dasturlarini muvaffaqiyat bilan amalga oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi keltirilgan barcha tadbirlarni amalga oshirish hamda mamlakatimiz tomonidan beriladigan imkoniyatlardan to'liq foydalanish, O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlaridan, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezident Farmonlari va viloyatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida qo'llash, mahsulot hajmini ko'paytirish, eksport hajmi va tarkibini oshirish, ichki bozorni to'yintirish maqsadida import bo'ladigan tovar va xizmatlaridan meyor darajasida oqilona foydalanish, globallashuv jarayonida erki Men ushbu bitiruv malakaviy ishimni o'zim tanlagan "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish yo'nalishlari" mavzusida bajardim. Ishda obyekt hisoblangan Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot bosh boshqarmasining 2012-2014 yillardagi ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda modernizatsiyalash, innovatsiyalarni joriy etish hamda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Chunki, hozirgi kunda tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va takomillashtirishga doir hukumatimiz tomonidan meyoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligi respublikamizda mavjud holatni tartibga solinishida asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi keltirilgan barcha tadbirlarni amalga oshirish hamda mamlakatimiz tomonidan beriladigan imkoniyatlardan to'liq foydalanish, O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlaridan, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezident Farmonlari va viloyatimizda amalga oshirilayotgan chora-

tadbirlarni o'z vaqtida qo'llash, mahsulot hajmini ko'paytirish, eksport hajmi va tarkibini oshirish, ichki bozorni to'yintirish maqsadida import bo'ladigan tovar va xizmatlaridan meyor darajasida oqilona foydalanish, globallashtirish jarayonida erkin raqobat maydonini vujudga keltirish, mahalliy xom-ashyodan eksportbop tovarlar ishlab chiqarishni va davlatimizni eksport salohiyatini oshirishda, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiyoti tizimiga keng ko'lamda integratsiyalashuvini ta'minlash, iqtisodiyotning barcha sohalarida raqobatbardosh va eksportbop tayyor mahsulotlarni turi va salmog'ini ko'paytirishimiz, jadal harakat qilib, jahon bozorida o'zimizga mustahkam o'rin egallamog'imiz zarur. Jahon bozorida munosib o'rin egallashini ta'minlash, tashqi savdoning istiqboldagi yutuqlarga erishishiga imkon yaratish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish yo'nalishlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga erishish mumkin deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
I. Rasmiy materiallar
1.1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T: O'zbekiston, 2008. – 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Eksport nazorati to'g'risida"gi Qonuni., Xalq so'zi 2004 yil, 196 son 1-bet.
3. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. "Xo'jalik va huquq", 2000 yil 10-son 6-bet.
4. O'zbekiston Respublikasining "chet investitsiyalari to'g'risida" gi Qonuni, Xalq so'zi, 1998 yil 100-son, 2-bet
5. O'zbekiston Respublikasining "Bojxona Kodeksi". 1998 yil Axborotnoma 2 - son.
6. O'zbekiston Respublikasining "Bojxona tariflari to'g'risida"gi Qonuni. Soliq to'lovchilar jurnali 1997 yil 12 son 2-bet.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi Qarori, 2005 yil, Xabarnoma, 3-son, 16-bet.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tovarlari (ishlar, xizmatlar) ni eksport qilishni rag'batlantirishning qo'shimcha choralari to'g'risida" gi Farmoni, 1999 yil Xalq so'zi, 11 oktabr soni, 1-bet.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish bo'yicha qo'shimcha tadbirlar to'grisida" 1998 yil 31 martdagi 137 - sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 25 iyuldagi 287 sonli qarori bilan tasdiklangan "Tashqi iqtisodiy Faoliyatni yanada erkinlashtirish va takomillashtirish to'g'risida" gi Qarori.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

11. Karimov I.A. "Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish" T.: "O'zbekiston", 2005.
12. Karimov I.A. Iqtisodni erkinlashtirish - farovonlik manbai. Saylanma asarlar. T.: - O'zbekiston, II tom, 2001.
13. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda - T.: 1999.
14. Karimov I.A. Buyuk kelajak sari, Toshkent, O'zbekiston, 1998 yil.
15. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li, T.: "O'zbekiston", 1996 y.
16. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: "O'zbekiston", 1995.
17. Karimov I.A. Davlatimiz mulkini xususiylashtirish va ko'p ukladli iqtisodiyet asoslarini shakllantirish. - T.: "O'zbekiston", 1995.

- 18.Karimov I.A. “2012 yil – vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi”. /“Xalq so‘zi gaztesi” // 2012 yil 21 yanvar.
- 19.Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz- keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirish”. /“Xalq so‘zi gaztesi” // 2013 yil 18 yanvar.
- 20.Karimov I.A. 2014 yil yuqori o‘sish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi // Xalq so‘zi. – 2014 yil 18 yanvar.
- 21.Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir// Xalq so‘zi. – 2015 yil 17 yanvar.

III. Дарслиklar va ўқув қўлланмалар

- 22.Nazarova G.G., Maxmudov N.M. Xalilov X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Toshkent TDIU, 2006 yil.
- 23.Hamedov I.A., Alimov A.M. O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati asoslari. T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot jamg‘armasi» nashriyoti, 2001, 328-bet.
- 24.Shodiyev R.X., Mahmudov E.R. Jahon iqtisodiyoti, Toshkent, G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2005 yil 310 bet.
- 25.Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципм, проблемм и политика/ Пер. 16-го англ. изд. - М: ИНФРА-М, 2006. - XXXVI, 940 с.
- 26.Экономическая теория: Учебник. / - изд. и доп./ Под. общ,- ред. акад. В.И. Видяпина, А.И. Добрышина, Г.П. Журавлевой, Л.С. Тарасевича. -М.: ИНФРА-М, 2006. - 672с.
- 27.Дегтарева О.И., Полянова Т., Саркисов С. Внешнеэкономическая деятельность. Москва 2004 г.
- 28.Прокушев Е.Ф. Внешнеэкономическая деятельность. Учебник. М.: Издательско-торговая корпорация «Дашковик и К» 2006 г.
29. Jalolov J.J., Axmedov I.A. Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. Toshkent TDIU, 2006 yil.
- 30.Shodmonov Sh. Sh., Alimov R.H., Jo‘rayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «Moliya» nashriyoti, 2002 yil, 416-bet.
- 31.Nazarova G.G., Haydarov N.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar/ akademik S.G‘ulomov tahriri ostida (o‘quv qo‘llanma), TDIU, 2005 yil. 272-bet.
- 32.Экономическая теория: Учебное пособие. / В.М.Соколинский, В.Е. Корольков и др.; под ред. А.Г. Грязновой и В.М.Соколинского. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: КНОРУС, 2006. - 464 с.
- 33.Покидченко М.Г., Чаплмгина И.Г. История экономических учений: Учебное пособие. - М.: ИНФРА-М, 2006. - 271 с.

IV. Илмий монографиялар, мақолалар ва бошқа асарлар

- 34.Проект программм развития экспортного потенциала РУз на период 2005-2010 гг. МВЭС РУз. 2000 г.
- 35.Ватанабе И. Сборник лекций 2000 г. В Академии Государственного и Общественного строительства при Президенте РУз VIII. Докторлик, номзодлик ва магистрлик диссертациялари

36.Alimova M.P. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdosi va uning rivojlanish istiqbollari. TDIU 2005 yil magistrlik dissertatsiyasi.

V.Gazeta, jurnallar va ilmiy-amaliy anjumanlar ma’ruzalari to‘plamlari

37.Xamrayev O. Eksport salohiyatimiz istiqboli, Xalq so‘zi 2006 yil 15 mart.

38.Ibragimova Y. Toshkent Dunyo ishbilarmonlari nigohida. Turkiston gazetasi 2003 yil, may.

39. Материали Международной конференции "Вопросм содействия экспортной продвижение продукции", Ташкент 1999 г.

40.Ilyosova N. “Barqaror iqtisodiy taraqqiyot kafolati”.// Xalq so‘zi. 2015 yil 3 iyun. № 110(6293)

41.SHeraliyev G‘. “Sog‘lom raqobat rivojlanish omili”.// Xalq so‘zi. 2015 yil 2 iyun. № 109 (6292)

VI. Internet ma’lumotlari

42.Информационные сервер по внешнеэкономической деятельности www.ftinform.com

43.O‘zbekiston biznes informatsion portali www.uzreport

44.Узбекская товарно-сырьевая биржа - глобальная торговая система охватывающая всю территорию Узбекистана www.uzex.com

45.www.informer.ru

46.Внешнеэкономический сервер России www.rusimpex.ru

47.Экспорт информационно технических оборудование www.ixbt.com/export.shtml

48.Jahon savdo tashkiloti www.wto.org

49.Международные перевозки - таможенное оформление www.spoto.ru

50.www.tdiu-makro.narod.ru,

VII.Hisobot va ma’lumotlar

51.O‘zbekiston Respublikasining 2012-2013-2014 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari. –T.: 2014

52.Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot bosh boshqarmasining ma’lumotlari. 2012-2014 yy.

53.Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasining ma’lumotlari. 2012-2014 yil.